



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

**dotsenti *B.Umurqulovning* O'zbek tili va adabiyoti
bo'limi bakalavr bosqichi 5220100 mutaxassisligi 1- kurs
talabalari uchun**

NUTQ MADANIYATI

fanidan tayyorlagan

ma'ruza matni

MAVZU: O'ZBEK NUTQI MADANIYATI MASALALARI

Reja

1. Nutq madaniyati – mavjud nutqiy xodisa.
2. Adabiy til haqida tushuncha
3. Adabiy til - madaniy til.
4. Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari.
5. Nutq madaniyatini egallashning usul va yo'llari

Tayanch so'zlar: nutq madaniyati, adabiy til, madaniy til, adabiy norma, yozma adabiy til, og'zaki adabiy til, nutq madaniyati mezonlari.

Adabiyotlar:

1. Begmatov E., Boboeva A, Asomiddinova M, Umarqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. Toshkent. 1988.
2. Begmatov E. va b. "Adabiy norma va nutq madaniyati". T. Fan. 1983.
3. Imomxo'jaev M. "Notiqning nodir boyligi". T.
4. Qo'ng'irov R va b. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. T. O'qituvchi. 1992.
5. Qoshg'ariy M. Devonu Lug'atit Turk. 1-tom. T.1960.

Hozirgi zamon o'zbek tili fonetik, lug'aviy, grammatik, talaffuz (orfoepik) hamda imloviy normalarining birmuncha mukammal shakllanganligi o'zbek tili madaniyatining ulkan yutug'idir. Binobarin, milliy madaniyatning ajralmas, uzviy qismi bo'lmish nutq madaniyati ham ana shunday yuksak darajada bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'zbek tili bugungi kunda o'zbek millatnning fikr alma-shuv quroli sifatida katta ijtimoiy vazifani ado etmoqda. Bu millat vakillarining ijtimoiy aloqasini to'liq ta'minlashga xizmat qilmoqda. Jumhuriyatimizda davlat ishlari, o'qish-o'qitish va targ'ibot va tashviqot ishlari shu tilda olib borilmoqda. O'zbek tilida O'zbekistonda yashovchi xalqlarning tarixini, bugungi fidokorona mehnatini ulug'lovchi yuksak saviyadagi badiiy asarlar yaratilmoqda. Bir so'z bilan ayt-ganda, ona tilimiz o'zbek xalqining har jihatdan kamol to-pishi va taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, o'zbek tili eng taraqqiy etgan tillardan biridir. Bu borada tilning asosiy ijodkori xalq rolini kamsitmagan holda olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimizning, davlat arboblarning, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san'ati ustalari va nashriyot xodimlarining xizmatlarini alohida qayd qilish lozim bo'ladi. Ayniqsa, tilshunos olimlarimiz va yozuvchilarimizning xizmatlari beqiyosdir. Ularning katta mehnati tufayli o'zbek tilining ko'pgina so'zalarida qat'iy normalar belgilandi, til birliklarining aloqa jarayonidagi lisoniy namunalari tavsiya etildi, til taraqqiyotidagi ko'pgina masalalar ilmiy-nazariy asosga qo'yildi. Shuning uchun ham, ikkilanmasdan, hozirgi zamon o'zbek adabiy tili madaniyati yuksak darajaga ko'tarilganligini qayd qilish mumkin.

Shu o'rinda tilning ijtimoiylik vazifasini bajarish darajasini belgilovchi omillardan biri bo'lmish Nutq madaniyati qanday ahvolda, degan tabiiy bir savol tug'iladi. «Shuni ta'kidlash kerakki,— deb yozgan edi tilshunos V. G. Hostomarov,— hozirgi zamon rus tili madaniyati juda yuqoridir, ammo hozirgi nutq madaniyati ko'p holda anchagina pastdir».

Xo'sh, o'zbek tili madaniyatining yuqori darajada ekanligini e'tibor etilgani holda u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan o'zbek nutqi madaniyatining rivoji unchalik yuksak emasligini qayd etish fikriy qarshilikni yuzaga keltirmaydi.

Tilimizda allaqachon ma'lum norma holiga keltirilgan va xuddi ana shunday shaklda qo'llash hamda tushunish tavsiya etilgan juda ko'plab til birlikmalarining hamma vaqt ham nutqda (u yozma yoki og'zaki bo'lishidan qat'i nazar) o'z o'rnini va himmatini topmayotganligi, buning ustiga ayrim til birliklarini qo'llashda normaoning belgilanmaganligi nutq madaniyatini jiddiy o'rganish masalasini o'rta qo'yimoqda. Chunki nutqimizda uchraydigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, nutq madaniyatini har qachongidan ham rivojlantirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shug'ullanish ishiga bugungi kunda faqat o'zbek tilshunosligidagina emas, balki barcha jumhuriyatlar tilshunosliklarida ilmiy ob'ekt sifatida juda katta ahamiyat berilmoqda. Chunki nutq madaniyati umuminson madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, kishilar yuksak madaniyatli bo'lishi, jumladan nutq madaniyatini etarli darajada egallagan bo'lishlari lozim. Bu masala'ning bir tomoni bo'lsa, ikkinchidan, xalqaro hayotda ikki qarama-qarshi ijtimoiy tuzum o'rtasida mafkuraviy kurash nihoyatda keskinlashgan bir davrda yashamoqdamiz. Bu narsa ham mafkuraviy kurashning asosiy quroli bo'lgan tilning har qachongidan ham o'tkir va keskir bo'lishini taqozo qiladi.

Mana shu sabablarga ko'ra nutq madaniyatini yanada rivojlantirish, uni kamolot bosqichiga ko'tarishga doim g'amxo'rlik qilish lozim bo'ladi.

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot, uslublar va uslubiyat haqidagi ilm

o'zining uzoh o'tmishiga ega. U ta'limot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misrda, Assuriyada, Vavilon va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Gap shundaki, u paytlarda davlat arboblarning obro' e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan baravar darajada ulug'langan. Shu ikki san'atni mukammal egallagan arboblarga yuqori lavozimlarga saylangan. Grek notig'i Demosfen (eramizdan ol-dingi 384—322) va Rim notig'i Sitseron (eramizgacha 106— 43) larning hayoti bunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notiqlik san'atnning o'ziga xos maktabini yaratdilar.

Rossiya tarixida notiqlik san'atiga bo'lgan e'tibor, asosan, Petr I davrida ancha kuchaydi. «XVII—XVIII asrlarga kelib, rus notiqligi bir oz jonlandi. Bu davr notiqligida, asosan, 5 ta yo'nalish mavjud edi:

1. Yuqori doiradagi dvoryanlar orasida mavjud bo'lgan saroy notig'ligi.
2. Diniy notiqlik.
3. Xalq notig'ligi. (Bunda, asosan, xalq qo'zg'aloni rahbarlarining notiqligi ko'zda tutiladi.)
4. Harbiy notiqlik.
5. Diplomatiq notiqlik»¹.

Lomonosovning xizmatlari tu-fayli rus tili nutq madaniyati borasida jiddiy nazariy fikrlar o'rta qashlandi, uning amaliy ahamiyati nimada ekanligi k'rsatib berildi, rus tilining lisoniy boyliklari asosida ijodiy rivojlantirildi. M. V. Lomonosovning «Rus she'riyati qoidalari ha=ida maktublar» (1739), «Rus grammatikasi» (1755—1957), «Nutq madaniyati bo'yicha qisqacha yo'llanma» (1748) kabi asarlari rus tilini ilmiy o'rganishni boshlab beribgina qolmasdan, rus tilshunosligining keyingi taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati bilan shug'ullanish o'ziga xos mavqega egadir. Mashhur turkolog M. Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» asari bu masalaning juda qadimdan o'rta qash qo'yib kelinganligidan guvohlik beradi. U davrlarda shartli ravishda Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko'rsatmalarda sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik, laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilik, tilyoglamalikni qoralash va boshqalar haqida gap boradi.

Bu o'rinda biz ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiyning nomini alohida hurmat bilan tilga olamiz. Navoiy notiqlik san'atini o'z davrida yuksak darajaga ko'taribgina qolmay, nutq madaniyati nazariyasi bilan ham jiddiy shug'ullangan. U «Ma'bubul-?ulub» asarining 24-bobini voizlikka (notiqlik san'atiga) ba'ishlagan. «Muhokamatul lug'atayn» va «Majolisun nafois» asarlari esa bevosita tilshunoslikning nazariy muammolarini gal qilishga, o'zbek tilining boshqa tillar o'rtasida tutgan o'rnini belgilab berishga hamda o'zbek nutqi madaniyatini o'rganishga qaratilgan.

O'rta Osiyo notiqligining o'ziga xos xususiyatlari shundan iborat ediki, u eng avval o'sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu

davrda notiqlik san'ati ustalarining nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, Qi-Roatxonlar, muammogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat beradi.

Nutq madaniyati sohasining paydo bo'lish tarixi o'rganili shi lozim, tilshunoslikda shu nom bilan emas, ammo shu soha doirasida qilingan ishlar belgilanishi va nutq madaniyat* sohasining ilmiy tarixi yaratilmog'i kerak. Nutq madaniyati o'quv kursining mukammal dasturi tuzili-shi lozim va unda nutq madaniyati ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy muammo va soha sifatida isbotlab berilmog'i lozim;

nutq madaniyati sohasining hozirgi nazariy kursi, ya'ni normativ darsligi yaratilmogi lozim. Unda nutq madaniyatining maqsad va vazifalari, tahlil qilinayotgan til material-lari normativ yo'nalishda yoritilmog'i va baholanmog'i kerak.

Nutq madaniyati tushunchasining lisoniy, ilmiy, ilmiy-amaliy mundarijasi hozirda ham izchil belgi-langani emas. Shu sababli nutq madaniyati deganda nimani anglamoq kerak. Til madaniyati deyish to'g'rimi yoki nutq madaniyati deyish o'rinlimi? Balki ba'zi tilshunoslar taklif qilishayotgandek, nutq odobi va so'z odobi atamalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Nutq madaniyati tushunchasini, uning asosiy mohiyati, ushbu tushunchaning yuzaga kelish davri, tadqiqot ob'ekti, boshqa lisoniy kategoriyalardan chegarasi hamda ish ko'rish tarzi haqida fanda turli-tuman qarashlar, biri ikkinchisini inkor qiladigan fikrlar anchaginadir. Shu sababli juda ko'pchilik tadqiqotchilarning haqli ravishda qayd etishlaricha, nutq madaniyati muammosini nazariy jihatdan asoslamasdan turib bu sohada biror ilmiy muvaffaqiyatga erishish qiyin. Hozirda nutq madaniyati sohasi eng muhim muvaffaqiyatni qo'lga kiritdi: nutq madaniyati ilmiy muammo sifatida tan olindi va uni tadqiq qilish lozimligi ko'pchilik olimlar tomonidan ma'qullandi. Shu sababli ham tilshunos V. V. Ve-selitskiy bir vaqtlar: «Hozirda nutq madaniyati bo'yicha tadqiqot olib borishning zarurligini isbotlab o'tirish ortiqchadir» deb yozgan edi¹. Lekin, afsuski, nutq madaniyati sohasi-ning mustaqil muammo sifatida mavjudligiga, uni hal etish mumkinligiga shubha bilan qarovchi kishilar ham yo'q emas. Ba'zi tadqiqotchilarning bunday mulohazalarga kelishining asosiy sababi, bizningcha, nutq madaniyati hodisasining tilshunoslikda hozirga qadar etarli oydinlashmaganligi, ko'p holda aniq hodisa sifatida ko'rsatilmasdan umumiy, mavhum gaplar tarzida talqin etib kelinayotganligidir. Nutq madaniyati sohasiga ishonchsizlik bilan qarashni tug'diradigan sabablardan yana biri, bizningcha bu muammo faqat g'oyat od-diy, o'ta sodda holda tushunish va tushuntirishdan iboratdir. Bunday qarashga ko'ra, nutq madaniyati tilshunoslikning tildagi. xatoliklarni, chalkashlik va nuqsonlarni axtaruvchi, ularni to'plovchi hamda bunday hodisalarga

qarshi faqat «kurash» olib boruvchi sohasidir. Masalan, bunday tushunish va tushuntirish nutq madaniyatining o'z ilmiy qarashlariga ega bo'lgan mustaqil lisoniy soha ekanini shubhali qilib qo'yadi. Umuman nutqda yo'l qo'yilgan turli xil nuqsonlarni aniqlash va unga qarshi kurashish tilshunoslarning vazifasiga kiradi. Ammo bu »masalaning faqat amaliy tomoni bo'lib, o'z nazariy asoslarini ishlab chiqishni talab etadi.

Nutq madaniyati deb yuritilayotgan soha tilshunoslik fanida o'z o'rnini topishi va mavqeini egallashi uchun, bizningcha, u nazariy jihatdan asoslanishi, uning tekshirish ob'ekti, muammolari, ilmiy uslubi amaliy ahamiyati singari masalalar aniqlashtirilishi, isbotlanishi kerak.

Ba'zi tilshunoslar nutq madaniyatini sof nazariy muammo deb tushunsalar, ba'zi tilshunoslar uni faqat amaliy masala va soha sifatida talqin etishadi. Bunday asarlar orasida nutq madaniyati masalalari etikaviy kategoriya, psixologik yoki metodik-pedagogik muammo tarzida talqin etilgan ishlar ham uchraydi.

Nutq madaniyati tushunchasi va muammosini lisoniy yo'nalishda tushunish ham unchalik izchil belgilangan emas. «Nutq madaniyati» sarlavhasi bilan nashr etilgan va etilayotgan asarlarning ko'pchiligida, asosan tilshunoslikning shu kunga qadar u yoki bu bo'limlarida o'rganib kelingan tushunchalar haqida ma'lumoglar beriladi. Natijada nutq madaniyati sohasi bilan tilshunoslikning boshqa bo'limlari o'rganuvchi masalalar orasidagi o'xshashlik yuzaga keladiki, bu nutq madaniyati tushunchasining o'ziga xos mustaqil masala va soha ekanini shubhali qilib qo'yadi. Shu sababli ham har holda nutq madaniyati sohasining mustaqil muammo tarzida yashash xuquqiga egaligini isbotlash lozim bo'ladi.

Aytilganlardan ko'rinadiki, nutq madaniyati deb yuritilayotgan tushunchani til hodisasi, sifatida, fan tushunchasi, ya'ni ilmiy tushuncha sifatida va nihoyat amaliy til jarayoni — nutqiy jarayon sifatida aniqlashtirish lozim bo'ladi. Mana shu maqsadda quyida nutq madaniyati tushunchasining keltirilgan yo'nalishlariga qisqacha to'xtab o'tiladi.

Nutq madaniyati deb yuritilayotgan hodisa bir qator murakkab, ammo mavjud til faktlari, ilmiy, ilmiy-amaliy tasavvurlar, aniq nutqiy jarayon ko'rinishlari va talab-lari bilan aloqadordir. Mana shunga ko'ra nutq madaniyatini tildagi mavjud til hodisasining nomi nutq madaniyati talablariga javob beruvchi aniq nutqiy jarayonning, ya'ni aniq nutqiy ko'rinishning nomi madaniy nutq va u haqida kishilar (so'zlovchilar) ongida mavjud bo'lgan aniq normatik tasavvurlarning nomi; tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot ob'ekti bo'lgan nutq madaniyati va u haqidagi mavjud ilmiy tasavvurlarning, muammoning nomi;

nutq madaniyati muammosini tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan tilshunoslik sohasining — nutq madaniyati sohasining nomi tarzida talqin qilish mumkin.

Kishilarning o'zaro aloqa quroli bo'lgan til anchagina qadimiy tarixga ega bo'lgani uchun so'zlovchilarning bu tilga munosabati ham ko'hna hodisalar jumlasiga kiradi. Chunki til kishilarga doimo o'zaro aloqa, munosabat, madaniy-ma'naviy zaruriyat, jamoa bo'lib birlashish, kurashish quroli bo'lib xizmat qilgan. Shu sababli suhbatdoshlar (oilada, ja-moada, rasmiy doiralarda) nutqning bir-biri uchun tushunar-li bo'lishi, kerakli o'rinlarda esa nutqning o'tkir, ta'sirchan, maqsadga muvofiq bo'lishi ob'ektiv zaruriyat hisoblangan.

Bunga erishish uchun qadimiy davrlarda ham kishilar shubhasiz, tilning ko'pchilik uchun tushunarli bo'lgan va o'zaro suhbat uchun norma tusiga kirgan vositalarini to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash qoidalariga amal qilishgan. Tabiiy ravishda, ob'ektiv ehtiyoj tufayln kishilarda tilga munosabatning muayyan normalari, muayyan til jamoasi amal qilishga odatdana borgan ko'nikmalar, qoidalar yuzaga kela boshlagan. Bunday odat va ko'nikmalarning ikki muhim tomon bilan aloqador bo'lganligi ham shubhasiz: birinchidan, tildagi tabiiy va aslida mavjud imkoniyatlarni egallash, undan o'rinli foydalanishga- intilish; ikkinchidan, so'zlovchilarning muayyan nutqiy talablar, normalarga amal qilishi. Agarda, birinchi holatda til va uning mavjud ifoda vositalari (leksika, grammatik struktura, fonetika, talaffuz va b.) zgallash malakalari, ko'nikmalari shakllana borgan bo'lsa, ikkinchi holatda nutqning til bilan bog'liq bo'lmagan boshqa tomonlari ham namoyon bo'la borgan. Masalan, so'zlovchining va tinglovchining gapirganda muayyan odob-axloq nor-malariga rioya qilishi, ta'sirchan va chiroyli gapirishga in-tilishi, tnlg hurmat, o'z gapi va o'zgalar gapiga e'tiborli bo'lish, o'rinli (o'z o'rnida) so'zlash, so'zlash madaniyati va tinglash madaniyati, suhbat madaniyati, munozara madaniyati, tilga e'tibor va ehtiyotkorlik va boshqalar. Keltirilgan talablar asosida qadimiy davrlarda yashagan til jamoalarida ham ma'lum nutqiy-axloqiy talablar, amal qilinishi shart deb hisoblanilgan muayyan qonun-qoidalar yuzaga kelgan va bu qoidalar til sohasidagi umumnorma, umummajburiyat darajasiga ko'tarilgan.

Qadimiy davr kishilarida nutq madaniyati va tilni egallashning ko'rinishlari tabiiy holda, tabiiy instinkt va ko'nikma tarzida, o'z-o'zndan (stixiyali ravishda) yashagan va rivojlangan. Qadimiy davrlarda nutq madaniyati kurtaklari ko'proq til odobi (nutq odobn) tarzida namoyon bo'lgan. Tilni egallash, umuman tildan, nutq vositalaridan o'rinli foydalanish, tilga munosabat va hurmat qadimda, asosan, axloqiy normalar orqali boshqarilib turgan. Bunday axloq-odob normalarining mazmuni, uning asosiy tayanchlari va talabla-ri xalqning ijodi bo'lmish maqollarda, turkiy xalqlarnng qadimiy yozma obidalarida bu masalaga oid bildirilgan fikrlarda, shuningdek, Sharh, O'rta Osiyoda yashagan donish-mandlar, yozuvchi va shoirlarning, tarixnavislarning asarlarida til,

nutq, nutq odobiga oid bitilgan satrlarda yaxshi ifodalangan va bizgacha etib kelgan.

Yaxshi soʻzlay olish (nutq)—san'atdir, noyob hunardir. Uni egallashga intilgin:

Erdin soʻz hunar, enchidin boʻz hunar.

(«Mahbubul-qulub», 82-bet.)

3. Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning soʻzi, nutqidir:

Suvning mazasi muz bila,

oshning mazasi tuz bila,

odam yaxshiligʻi soʻz bila.

(«Mahbubul-qulub», 79- bet.)

Soʻz zohir etar zamir ishi koʻpragidin, Til muxbir erur koʻngul nihon emgagidin, Fahm ayla kishi holini soʻz demagidin, Kim berdi xabar hadisi koʻnglidagidin.

(«Nazmul-javohir» dan, 41- bet.)

4. Qishining sʻyi (nutqi) uning aqliy kamolotidan darak beradi:

Odamki demak birla kiromiydiru bas, Soʻz durri ishining intizomiduru bas, Siqqat opchaki, ahli ahl komiduru bas, Ahliqa dalil aning kalomiduru bas.

(«Nazmul-javohir» dan, 25- bet.)

5. Soʻzlaganda dnling bilan tiling bir boʻlsin, chunki dildagi tilga chiqadi:

Haq seni sevgay el bila boʻlsang, Tilu koʻnglungni bir qilib bir roʻy, Nuqta sursang shukuftau xandon, Zist qilsang, kushodou xushroʻy.

(«Arbain» dan, 59- bet.)

Demonkim koʻngli poku ham koʻzn pok, Tili poku soʻzi poku oʻzi pok.

(«Xamsa», 175-bet.)

Tilki fasiq va dilpazir boʻlgay — xoʻbroq boʻlgʻay, agar koʻngul bila bir boʻlgʻay.

(«Mahbubul-qulub», 60- bet.)

6. Soʻzlaganda oʻylab soʻzla, tushunib, bilib gapir: Soʻzni koʻnglungda pishqarmaguncha tilga kelturma, harnakim koʻnglungda boʻlsa til surma.

(«Mahbubul-qulub», 83- bet.)

7. Xushmuomala, shirinsoʻz ozor berma:

boʻl. Tiling bilan kishilarga har kimki chuchuk soʻz elga izhor aylar, har neki agʻyor durur yor aylar, Soʻz hattihi el koʻngliga ozor aylar, Yumshogʻi koʻngullarni giriftor aylar.

(«Nashul-javohir» dan, 43- bet.)

8. Chin, toʻgʻri soʻzla, nutqingda halol boʻl. Yolgʻon soʻz baxtsizlik keltiradi. Chin soʻz moʻtabar, yaxshi soʻz muxtasar... soʻzki fasohat zevaridin muayyan emasdur, anga chinlik zevari basdur.

Quvonchi har necha so'zida fasihiroq, so'zi qabih.

(«Mahbubul-qulub»dan, 63-bet). Xiradmand chin so'zdin o'zga demas, Vale bari chin ham deguluk emas. Kishi chinda so'z desa zebo, durur, Necha muxtasar bo'lsa avlo durur.

(«Mahbubul-qulub», 83- bet).

9.Yaxshi, ezgu so'z (nutq) kishiga obro', baxt keltiradi. Ezgu so'zli bo'l: Kim istasa mazhari karomat bo'lmoq, har nav' ishda istiqomat bo'lmoq, So'zdir anga mujibi haromat bo'lmoq, Til zabtidatur anga salomat bo'lmoq.

(«Nazmul-javohir»dan, 30- bet.)

10.Tildan tuhmat uchun foydalanma. Tuhmatchidan qoch, undan nafratlan:

Birovkim yolg'on so'zni birovga bog'lag'ay, o'z qaro bo'lg'on yuzin yoqlag'ay. Kabira gunoqdur — oz so'z hamki o'trukdur, zahra gunohdur — oz so'z hamki o'trukdur, zahri muhlikdur — agarchi miqdori o'ksukdur.

(«Mahbubul-qulub»dan, 61- bet.)

El aybini ayturg'a birovkim uzotur til, Uz aybini fosh aylagali til uzotur bil

(«Magbubul-qulub»dan, 69- bet.)

11.Tilingni tiy. Ko'p so'z, ezma va vaysaqi bo'lma. Bu zararlidir.

Befoyda so'zni ko'p aytma va foydalig' so'zni ko'p eshiturdin qaytma. Oz degan oz yanchilur, oz egan oz yig'ilur.

(«Magbubul-qulub»dan, 82-bet.)

Til ildamidin bo'lur haromat hosil, Yuz nav' nadomatu malomat hosil. Oz so'zlagandin istiqomat hosil, Soqitligidin vale salomat hosil.

(«Nazmul-javohir»dan, 31- bet.)

12. So'zlaganda sharoitnn, suhbatdoshingni hisobga ol, beo'rin so'z aytma... «...Zolim va be dard suhbatida nuqta surma, nammom va nomard muloyamatida dam urma. Dono ilikdin borqondin so'z aytmas, o'tgan yigitlik orzu bilan qaytmas.

(«Mahbubul-qulub» dan, 84-bet.)

13. Bo'shog'iz bo'lma, suhbat sirlarini saqlashga o'rgan:

qaysi majlisdakim eshitsang so'z, Bilgil ul so'z sanga omonatdur, Gar ani o'zga erga naql etsang, Ul omonatqa bu xiyonatdur.

(«Arbain» dan, 57- bet)

14. Gapirganda qaytariqlardan qoch, chunki ular fikrning ta'sirini susaytiradi:

Bir deganni ikki demak xush emas, So'z chu takror topti dilkash emas.

(«Xamsa», 484- bet)

Nutq odobining qayd qilingan madaniy-axloqiy talab va asoslari nutq normalari sifatida qadimiy davrlardan beri avloddan-avlodga o'tib kelgan.

Ushbu nutqny normalarning saqlanishi, o'zlashtirilishi va yashab

kelishida oilaviy an'analar, bir til jamoasi doirasida amal qilingan an'anaviy qoidalar, suhbatdoshlar (so'zlovchi va tinglovchilar)ning bir-birini o'zaro nazorat qilishi, ta'lim tarbiya, o'git-nasihat jarayoni, shuningdek nutqiy odob normalari haqida yozilgan adabiyotlarni mutolaa qilish asosiy o'rin tutgan.

Demak, kishilarning qandaydir to'g'ri, ta'sirchan, chiroyli va yaxshi gapirishga intilishi va unga oid odatiy qoidalar qadimiy tarixga egadir. Bunday odat qadimiy o'tmishdan hozirga qadar mangu an'ana sifatida yashab va takomillashib kelgan. Biroq, nutq madaniyati tushunchasi bilan bog'liq ushbu nutqiy odatlar turli davrlarda muayyan xususiyatlari bilan farqlanib turgan. Ayniqsa, adabiy til paydo bo'lgunga qadar mavjud bo'lgan nutq odobi (nutq madaniyati) tasavvurla-ri, adabiy til paydo bo'lgandan keyingi davr nutq madaniyati tasavvuridan farqlanadi.

Ko'rinadiki, nutq madaniyati alohida soha sifatida shakl-langan va o'quv rejalariga alohida fan sifagida kiritil-gan bo'lishiga qaramay, bu soha ayniqsa tilshunoslik fani, bilan juda mustahkam aloqadadir.

Nutqning aloqaviy sifatlari ichida nutqning to'g'riligi eng asosiy belgilardan gisoblanadi. Namunali nutq birinchi navbatda to'g'ri tuzilgan nutq bo'lishi kerak. Nutq to'riligi esa adabiy til normalariga to'la amal qilishga asoslanadi. Demak, nutq madaniyatida asosiy narsa nutq to'g'riligi bo'lsa, bu esa adabiy til normalariga amal qilish orqali yuzaga keladigan bo'lsa, o'z-o'zidan har bir xalq nutqiy madaniyatining, u haqidagi ta'limotning asosini shu xalq tilining normativ grammatikasi, shu xalq tili sistemasi tashkil etadi.

Nutq madaniyati sohasi til qodisalariga boshqa tomondan yondashadi: grammatik qodisalar, grammatik kategoriyalar, til qurilishi kabi masalalar bilan shug'ullanmaydi. Nutq ma-daniyati grammatik hodisalarga, til faktlariga asosan shu til adabiy normalariga mos kelish-kelmasligi nuqtai naza-ridan yondashadi. qanday holatda normaga qat'iy amal qilish juda zarur b'olib, qanday holatlarda undan chekinish mum-kinligi, unga yo'l qo'yilishi mumkinligi nuqtai nazaridan baholaydi. Grammatik kategoriyalar, grammatik shakllar, til birliklariga adabiy til normasi talabi bilan baho beradi. Ularning tabiati bilan shug'ullanmaydi. Jumladan, masalan s'yzning ?aysi turkumga oidligi, ?anday grammatik kategoriya-larga, ?anday fonetik yoki morfologik tuzilishlarga ega ekanligi nutq madaniyati fanining tekshirish ob'ekti emas. Biroq o'sha so'z o'zbek adabiy tilida keng qo'llanadimi, uning qo'llanishi, ma'lum bir shakli, talaffuzi, ma'lum bir ma'nosi bilan hozirgi tilda ishlatilib turishi o'zini oqlaydimi yoki yo'qmi nutq madaniyatiga aloqadordir.

Masalan, arxaizmlarning hozirgi adabiy tilda ishlatili-shi adabiy til normasiga mos kelmaydi. Ular tarixiy xususiyatni berish uchun ishlatilgandagina yoki boshqa biror maqsadda ishlatilsagina y'zini oqlaydi. Nutq madaniyati u yoki bu so'z, u yoki bu shaklning hozirgi kunda nutq

jarayonida ishla-tilishi mumkinmi yoki yo'qmi ekanligini belgilab, ishlatilish sharoitlarini ko'rsatib beradi.

Tildagi so'zlar, grammatik shakllarning ma'no va vazifalari, ularning tuzilishi tilshunoslikda o'rganiladi. Biroq nutqning ma'lum bir jarayonida o'sha so'z yoki grammatik shakl qaysi shaklda va qaysi ma'nosida qo'llanishi mumkinligi, qo'llashning o'zini oqlash-oqlamasligi nutq madaniyatiga aloqadordir.

Nutq madaniyatining aloqaviy sifatlaridan hisoblangan mantiqlilik va ta'sirchanlik ham, ma'lumki, adabiy til normalariga to'la amal qilish orqali ta'minlanadi. Norma-ga amal qilmaslik mantiqsizlikni vujudga keltirib qo'yishi, nutqni buzishi mumkin. Masalan, «Kunlar isib ketdi, muzlar eridi» gapini olaylik. Bu gap bog'lovchisiz qo'shma gapdir. Grammatik qurilish to'g'ri, so'zlar o'zaro to'g'ri bog'langan, qo'shma gap qismlari hisoblangan har bir sodda gap orqali ifodalangan fikr ham to'g'ri, umumiy fikr ham mantiqqa mos keladi. Shu gapni «Muzlar eridi, kunlar isib ketdi» shaklida o'zgartirib ko'rilsa, yana har bir gap ifodalagan fikr ham, so'zlarning birikishi ham to'g'riligicha qolaveradi. Biroq endi mantiq buziladi. Demak, bu qo'shma gap qismlarining o'rinish tartibi faqat birinchi holatdagi kabi bo'lishi lozim. Yoki: Boramiz biz uyimizga tarzida qo'llash adabiy normaga mos emas. O'zbek adabiy tilida odatda eganing oldin, kesimning gap oxirida kelishi grammatik normadir. Shunga ko'ra, bu gapdagi bo'laklar Biz uyimizga boramiz gapidagi kabi joylashnshi kerak, aks holda nutq to'g'ri bo'lmaydi, mantiq buziladi, ta'sirchanlik ta'minlanmaydi.

Nutq madaniyati sohasining leksikologiya va semasiologiya sohalari bilan uzviy bog'liqligi hech shubhasizdir. Nutqiy aniqlik va mantiqiylikni tilning so'z boyligini egallamasdan, har bir so'zning ma'nolarini aniq bilmasdan turib ta'minlash mumkin emas. Jumladan, tildagi sinonimlarni yaxshi bilmasdan turib, tushunchalarni aniq ifodalab bo'lmaydi. Masalan, yuz so'zi anglatgan tushuncha bilan bashara so'zi anglatgan tushuncha bir emas: Basharangga odam qarab bo'lmaydi gaplarini olib qaraylik. Bu ikkala gap ma'nosida go'yo farq? Yo'qdek. Biroq birinchi gapda shaxsning butun gav-dasi, ust-boshi ko'zda tutilsa, ikkinchi gapda yuzi ko'zda tu-tiladi. Demak, yuz va bashara so'zlari o'zaro sinonim bo'lsa-da, ular anglatayotgan tushunchalar bir-biridan farq qiladi.

Tilning so'z boyligini, uning sinonimlar, antonimlar, qolaversa, omonimlar sistemasini, har bir so'zning y'ziga xos ma'no va grammatik xususiyatlarini, ularning y'zaro munosa-batlarini yaxshi bilish — nutqning tozaligi, ta'sirchanligi, ifodaliligi, jo'yaliligi, qisqaligi kabi ko'pgina boshqa aloqaviy sifatlarni ham ta'minlaydi. Uzbek tilida mavjud b'lgan lug'aviy imkoniyatlarni bilmaslik natijasida, masalan, elvizak so'zi o'rnida skvoznyak yoki tomorqa so'zini bilmaslik natijasida uning o'rnida g'ovli yoki boshqa so'zni ishlatib qo'yish kabilar o'z-o'zidan nutq

tozaligiga putur etkazadi, si-nonimlarni bilmaslik nutq ifodaliligiga salbiy ta'sir qiladi; jumla tuzishni bilmaslik, grammatik qoidalarni to'g'ri egallamaslik nutq tejamligiga zarar qiladi va hokazo.

Yuqorida aytganimizdek, tilning lug'at tarkibinya yaxshi bilmasdan turib boy nutqqa erishib bo'lmaydi. Demak, nutq madaniyati ilmiy tarmoq sifatida lug'atshunoslik (leksiko-grafiya) bilan uzviy aloqadordir.

Lug'atlarning xazina ekanligini, nutq malakalarini oshn-rishda juda katta ahamiyatga ega ekanligini ko'pgina buyuk olimlar, har xil sohalarining mutaxassislari, yozuvchilar, shoirlar doimo ta'kidlab kelishgan.

S. Akobirovning quyidagi fikri juda ahamiyatlidir «Fikrni qisqa, aniq va to'g'ri ifodalash uchun eng muvofiq so'z topish kerak bo'lgan hollarda ham lug'atlardan foydalaniladi»

Nutq madaniyati sohasining tekshirish ob'ekti nutqning aloqaviy sifatlari yig'indisi va tizimini, ularni ta'min-lovchi shart-sharoitlar, shu sifatlarning takomillashuvi, ri-voji yoki qoloqlashishi, pasayishi kabilarni o'z ichiga olsa; uslubiyat sohasining ob'ekti til va nutq uslublarini o'rganishdir. Modomiki uslubiyat nutq uslublarini ham o'rganar ekan, xuddi shu holatda nutq madaniyati bilan uning munosa-bati vujudga keladi. Chunki nutq madaniyati haqidagi ta'li-mot o'z-o'zidan til uslublarini batafsil aks ettirish, har bir uslubning yziga xos tomonlarga ega ekanligining imko-niyatlarinnng yoritilishiga ehtiyoj sezadi. Chunki nutqning aloqaviy sifatlari, odatda, har bir uslub doirasida o'zga-rishi, biri bir uslubda yaxshiroq namoyon bo'lgani holda, ik-kinchisi boshqa bir uslubda sustroq namoyon bo'ladi. Masalan, publitsistik uslubda aniqlik, to'g'rilik birinchi o'ringa chiqsa va yaxshiroq namoyon b'lsa, badiiy uslubda ifodalilik, tasviriylilik, obrazlilik, mantiqlilik kabi sifatlar birinchi o'ringa chiqadi. Yaxshiroq namoyon bo'ladi. Badiiy uslubda ba-diiy tasvir vositalaridan keng foydalaniladi. Shuning uchun ham, ba'zan, badiiy uslubda eskirgan va lahjaviy so'zlardan ham foydalaniladi, ba'zan so'z shakllarining o'zgartirili-shiga ham ruxsat etiladi.

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot nutq uslublarining nutq aloqaviy sifatlari ba'zan ijobiy, ba'zan salbiy ta'sir qilishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ham o'rganadi. Chunki kishilar har qanday sharoitda va o'z faoliyatla-rining hamma sohalarida bir-birlari bilan aloqada bo'lar ekanlar, ularning har biri o'z tilidagi lug'aviy, grammatik va boshqa vositalarni tanlab ishlatishga harakat qiladi.

Ularning har birida tanlash va ishlata bilish qobiliyat-lari, til vositalariga ega ekanlik darajalari har xildir. Til, ma'lumki, hamma uchun umumiy. Biroq bir soha kishila-ri bilan, ikkinchi soha kishilarining so'z boyligi, so'zlarni ishlata bilish qobiliyatlari har xildir. Bu narsa esa o'z-o'zi-dan turlicha nutq ko'rinishlarini vujudga keltiradi. Doimo rasmiy ishda ishlagan odam bilan fan vakillarining yoki kol-xozchi bilan zavod ishchisining nutqi ana shu tarzda bir-biri-dan farqlanib qoladi. Bunday

hol nutq tiplarini vujudga keltiradi. Shu o'rinda, masalan gazeta uslubi, badiiy uslub, so'zlashuv uslubi kabi uslublarning o'zaro farqlariga e'ti-bor berishning o'zi ham kifoya qiladi: «Choy-chaqasini undan-bundan qilib, tarallasini tortib yurgan Toshpo'lat etti yarim so'lkavoyini tahin qaysi go'sxo'rdan olsin, a, yo bobohimni so-tib beraymi? Yoki sayratmamnimi? Etigim bo'lsaku, o'n besh kundan beri garovda, choponni bo'lsa o'tkan kun o'zingning ol-dingda uch so'lkavoyga sotdim. Xudo haqi, galavam aynadi!» (A. Qodiriy).

Bu parchadagi choy-chaqasini, undan-bundan, tarallasini, so'lkavoyini, tahin, go'sxo'r, bobohim, garovda, o'tkan kun, xudo haqi galavam aynadi so'z va so'z birikmalari asosan so'zla-shuv uslubiga xos bo'lib, og'zaki so'zlashuv nutqida ishlatiladi. Bu so'zlarning publitsistik uslubda ishlatilishi qiyin.

Ko'rinadiki, uslubiyat bilan nutq madaniyati bir-birini tamomila inkor etmaydi, aksincha, bir-birini to'ldiradi, aloqida-alohida soha bo'lishlariga qaramay, bir-biri uchun xiz-mat qiladi.

Nutq madaniyati ilmiy soha sifatida mantiqshunoslik va ruxshunoslik fanlari bilan chambarchas aloqada bo'ladi. Ma'lumki, mantiqiy tushunchalar va hukmlar bilan ish yuri-tadi. Modomiki, tushunchalar so'z bilan; fikrlar, hukmlar gap bilan ifodalanar ekan, ana shu so'zlar va gaplar bilan ular ifodalagan tushunchalar va hukmlarning bir-biriga mos kelgan-kelmaganligi, ular o'rtasida zidlikning bor-yo'qligi muhimdir.

2-mavzu. Adabiy til va nutq madaniyati

Reja

1. Adabiy til haqida tushuncha
2. Adabiy til - madaniy til.
3. Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari.
4. Nutq madaniyatini egallashning usul va yo'llari

Adabiy til paydo bo'lgunga qadar nutq madaniyati borasida amal qilgan talab va tasavvurlar adabiy til paydo bo'lgandan keyingi davr, ya'ni adabiy til bilan bog'liq bo'lgan nutq madaniyati tasavvurlaridan farqlanadi. Chunki nutq madaniyati chinakam ma'noda adabiy til va uning normalari bilan bog'liqdir. Avvalo adabiy til tushunchasining mohiyatiga qisqacha to'xtaylik.

Adabiy til haqida gap borganda avvalo adabiy til — xalq tilining, milliy tilning oliy shakli deyilgan ta'rifga duch kelamiz. Adabiy tilning oliy shaklligi bu tiliing o'ziga xosligida, uning o'ziga xos belgilari va vazifasida kʻrinadi. Adabiy til xalq tili negizida yuzaga keladi. Adabiy til-ning paydo bo'lishi va uni yaratishdan maqsad umumxalq om-maviy aloqa vositasini yaratishdir. Adabiy tildan rasmiy davlat tili sifatida foydalanish bu tilning ijtimoiy-siyosiy sohalar tili, rasmiy muomala va yozishmalar tili, idoraviy ishlar va hujjatlar tili, diplomatik aloqalar tili, radio va televidenie tili, og'zaki targ'ibot va tashviqot tili, ilmiy uslublar tili, badiiy adabiyot va sahna tili, maorif, madaniyat tili kabi kʻp yo'nalishlarda rivoj topishi uchun yo'l ochadi. Bu hol adabiy tilda ko'p vazifali xususiyatini yuzaga keltiradi. Adabiy tilning ko'p qirrali va murakkab vazifalari adabiy tilning usluban tarmoqlanishiga, adabny til doirasida xilma-xil nutqiy uslublarning yuzaga kelishiga olib keladiki, bu milliy adabiy tillarga xos muhim xususiyatlardan biridir.

Adabiy til ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-madaniy hayotning barcha sohalarida aloqa quroli darajasiga ko'tariladi. Bu hol adabiy tilni madaniyat va sivilizatsiyaning vositachisiga, bunga doir tushuncha va tasavvurlarni ifodalovchi, o'zida saqlovchi va keyingi nasllarga etkazuvchi qurolga aylantiradi. Adabiy tilda ijtimoiy va madaniy hayotning turli sohalariga oid boy bilimlar mujassamlangan bo'ladi. Shuningdek, adabiy til abstrakt va mantiqiy fikrlashning amalga oshishida ham vosita vazifasini bajaradi. Adabiy tilga xos keltirilgan xususiyatlar adabiy tilning og'zaki shakli uchun ham xosdir. Chunki hozirgi paytda so'zlangan og'zaki nutq matnlarini o'z holidan yozib olish va uzoq davr saqlashning keng texnikaviy usul va imkoniyatlari mavjud.

Adabiy til vazifasining kengayishi, unda murakkab uslubiy tarmoqlanishning yuzaga kelishi adabiy til vosita va imkoniyatlarining rivoj topishini va boy bʻylishini taqozo qiladi. Shu sababli ham adabiy til

xal? tilining boshqa ko'rinishlariga nisbatan boy lug'aviy fondi, takomillashgan grammatik qurilishga egaligi hamda uslubiy tarmoqlarining rivoj topganligi bilan farqlanadi. Ammo adabiy til normal tilgina emas, normalangan — mu'ayyan normalarga solingan tildir. Normalanganlik, norma-lashga muhtojlik adabiy tilning muhim xususiyatlaridan biridir. Adabiy tilning lug'aviy (so'z qo'llash) normalari, morfologik va sintaktik normalari, imloviy va talaffuz normalari mavjud. Adabiy til normasi tabiiy shakllangan normalar bilan bir qatorda ongli ishlangan, ongli baholangan normalardan ham iboratdir. Bu normalar muayyan grammatik qoidalar, darslik va qo'llanmalarda, leksikogra-fik tadqiqotlarda jamlangan bo'ladi. Adabiy tilda yozuvchi va so'zlovchi shaxs mana shu qoidalar asosida adabiy tilni o'rganadi, uning normalarini egallaydi. Adabiy til doimo o'z normalarining shakllannishi, turg'un holatga kelishiga intiladi. Shu sababli boshboshdog'lik adabiy tilga ziddir.

Adabiy tilning normalanishi, bu normalarning muayyan qoidalarga olinishi aslida adabiy tilning umumxalq quro-li, umumxalq mulki ekanligi bilan bog'liqdir. Adabiy til o'zaro aloqa vositasi sifatida o'zi xizmat qilayotgan millat-ning barcha vakili uchun umumiydir. Adabiy tilning qabul qilingan, qoidalashtirilgan normalariga barcha joyda, barcha kishilar (yozuvda va s'yzlovchilar) tomonidan bir xilda amal qilinadi. Chunki adabiy til barcha tomonidan milliy tilning namunali va ishlangan shakli deb qabul qilinadi va tan olinadi. Shunga ko'ra ham adabiy tilning ko'pchilik tomo-didan qabul qilingan va ma'qullangan normalariga, bu normalarga doir qoidalarga amal qilish, unga b'ysunish hamma uchun majburiydir.

Bunday umumma'uriy normalar va qoidalar adabiy til-ning so'z qo'llash va so'z yasash, gap tuzish, so'zlarni yozish va talaffuz qilish kabi barcha sohalarida ham mavjuddir. Adabiy tilda to'g'ri so'zlash va yozish uchun mana shu normalar, ular haqidagi qoidalarni bilish, o'zlashtirish lozim.

Ba'zan adabiy tilni bir yoqlama va noto'g'ri tushunish va tushuntirish qollariga ham duch kelamiz. Bunda adabiy til deb faqatgina ro'znoma tili, ilmiy asarlar tili va badiiy adabiyot tili ko'zda tutiladi. Bunda adabiy tilning og'zaki shakli hisobga olinmaydi shuningdek, ba'zi hollarda adabiy til faqatgina yozma til orqali qolipga solinadi, adabiy til normalari yozma nutqdagina to'la saqlanadi, deyilgan muloha-zalar ham bildiriladi. Keltirilgan fikrlardan adabiy til-ning og'zaki shakli normalangan emas ekan-da, adabiy til og'-zaki shaklida adabiy til normalariga to'liq rioya qilish shart emas ekan-da, deyilgan noto'g'ri fikrga kelish mumkin.

Adabiy tilni normalash haqida gap borar ekan, ba'zi olimlar, hatto adabiy til doirasida bir xil, yagona talaf-fuzga erishib bo'lmaydi, adabiy tilda talaffuzning yagona na-munasi yo'q deb hisoblaydilar. Shuningdek, bunday muloha-zalar ba'zi tadqiqotchilarning notiqlik madaniyatya uchun

yagona retsept yo'q, nutqning qanday bo'lishini aniq sharoit belgilaydi, degan fikrlarini eslatadi. Keltirilgan tarzda fikrlash, albatta, bir yoqlamali bo'lib, og'zaki nutq, madaniya-tini takomillashtirish ishiga zarar etkazadi. Kishilardan nutq madaniyatini, ya'ni to'g'ri so'zlash va ezishni talab qilish uchun mana shunday so'zlash va yozishga vosita bo'la oluvchi qurolni belgilash lozim bo'ladi. Bunday qurol — adabiy tildir. Adabiy tilsiz nutq madaniyatini ta-savvur qilib bo'lmaydi. Adabiy til nutq madaniyatining — to'g'ri so'zlash va yozishning o'lchovi, mezonidir. Ammo adabiy til tayyor holda qaerdandir paydo bo'lgan, birdan tayyor holda osmondan tushgan hodisa emas. U aslida nutq madaniyatining uarkibiy qismi, o'zi ham madaniylikka intiluvchi hodisadir.

Demak, adabiy til madaniyati 3 ta xodisani o'z ichiga oladi:

1. Adabiy tilni ongli ishlash (Normalash);
2. Adabiy tilning ishlangan, ya'ni madaniylashgan xolati;
3. Madaniy adabiy til normalaridagi ba'zi xolatlarni yanada qayta ishlash va takomillashtirish. Yuqorida aytilganlardan 2 xodisaning mavjudligi aniq bo'lib qoladi:

1. Til madaniyati, ya'ni adabiy til madaniyati 2. Madaniy adabiy tildan to'g'ri foydalanish bilan bog'liq bo'lgan nutq madaniyati. Demak, nutq madaniyati madaniy adabiy tilni yuzaga keltirish va nutqiy faoliyatda bu til normalariga amal qilishdan iboratdir.

Nutq madaniyati tushunchasining aniq mavjud hodisa ekanligi, ko'rib o'tilganidek, uning adabiy til va adabiy til madaniyati bilan bog'liqligida bo'lsa, ikkinchi tomondan, kishilarning kundalik nutqiy faoliyati bilan aloqadorligidadir. Adabiy tilning (muayyan normalarga solingan, silliqlangan madaniy tilning) mavjudligining o'zigina hali nutq madaniyatini tashkil etmaydi. Adabiy tildan, uning madaniy-lashgan vositalaridan bu tilda gagshruvchi kishilar jamoasi o'z nutqiy faoliyatlarida foydalangandagina adabiy til mavjud nutqiy hodisaga, nutq madaniyatining kuchli vositasiga aylanadi. Masalan, hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi, ilmiy va badiiy adabiyotlar nashr etiladi, ro'znoma va oynomalar chiqariladi. Radio va televidenie eshittirishlarida ushbu til normalariga amal qilinadi. Yozma nutqda, ya'ni yozganda biz o'zbek tilining imlo qoidalariga, gapirganda esa, adabiy talaffuz normalariga amal qilamiz va hokazo. Uzbek adabiy tili, uning madaniy vositalari umummajburiy norma sifatida o'qitiladi va o'rgatiladi. Adabiy til, uning yozma va og'zaki shakli normalar bu tilda so'zlovchilarning ko'psonli shaxsiy nutqlari va bu nutqlar yig'indisidan iborat b'ylgan umum norma sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek adabiy tilida minglab, millionlab kishilar gaplashadi. Bu kishilarning har biri aloqida shaxs, alohida nutq egalaridir. Ammo ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan nutqiy qurol — yagona o'zbek adabiy tilidir. Mana shu ko'psonli shaxslar, bir tomondan, yagona bitta adabiy til —

o'zbek adabiy tilidan foydalanishiga ko'ra, ikkinchidan esa, bitta til atrofida birlashayotganliklariga ko'ra muayyan umumiylikka, uyushganlikka ega. Mana shu umumiylik tilshunoslikda til uyushmasi (jamoasi) deb yuritiladi. Muayyan til uyushmasini mushtarak qilib turadigan asosiy omil aloqa quroli bo'lgan tilning yagonaligi va bu til adabiy normalarining umummajburiyligidir.

Adabiy til va uning normalari avvalo o'rta va oliy maktab ta'limi orqali, qolaversa oiladagi tarbiya orqali o'zlashtiriladi. Adabiy tilni egallashda mustaqil shug'ullanish, ayniqsa badiiy adabiyotlarni, ro'znoma va oynomalarni o'qish, radio va televidenienni tinglash muhim rol o'ynaydi. Demak, adabiy til, adabiy xil madaniyati o'qish o'rganish, tinimsiz shug'ullanish orqali egallanadigan nutqiy hodisadir.

Adabiy nutq va u bilan bog'liq bo'lgan adabiy til madaniyati — bu avvalo nutqiy ko'nikma, nutqiy malakadir. Adabiy nutq malakasiga — adabiy til normalarini egallash orqali erishiladi. O'rta maktab ta'limida nutts, malakasi, nutqiy ko'nikma, yozma nutq ko'nikmasi, og'zaki nutq ko'nikmasi, nutq madaniyati malakasi singari tushunchalar mavjud. Aslida bu tushunchalarning barchasi adabiy til madaniyatini egallash bilan bog'liqdir.

Ko'rinadiki, adabiy til normalarini qayta nshlash, ongli boshqarish qanchalik zarur bo'lsa, bu normalarni amalda sinab ko'rish va baholash ham shunchalik zarurdir. Mana shunday sababga ko'ra adabiy til normalarini belgilash, uni qayta ishlash, silliqlash birdan boshlanadigan, birdan hal bo'ladigan va tezda tugaydigan jarayon emas, balki doimo va muttasil davom etadigan ishdir. Demak, adabiy til doimiy g'amxo'rlikka muhtojdir. Shunday qilib, nutq madaniyatini egallash — nutq madaniyati ko'nikmasini hosil qilishdir. Bu ko'nikma o'zbek adabiy tili, uning og'zaki va yozma shakli normalarini o'rganish va egallash bilan bog'liqdir. Nutq madaniyati ko'nikmasi — adabiy til va uning normalarini passiv emas, balki faol egallashdir. Tilni faol egallash — tilni ongli ravishda o'zlashtirish va undan og'zaki hamda yozma nutq amaliyotida unumli va xatosiz foydalana olish demakdir. Ba'zi kishilarning o'zbek tilida nuqsonsiz va ravan yoza olmasligi yoki adabiy tilda erkin so'zlay olmasligi ularning o'zbek adabiy tilini faol egallamaganligidan darak beradi.

Adabiy til va uning normativ vositalari, ulardan foy-dalanish haqidagi qoidalar barcha uchun bir xilda majburiy, yagona va umumxalqiydir. Ularni har kim o'zicha, o'zi bilganicha o'zgartirib qo'llashi mumkin emas. Masalan, kitob so'zini ba'zilarning kitop, boshqa birovlarining kitob yoki kutop tarzida noto'g'ri yozishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, yo'q, xol so'zlarini boshqa birovlarining jo'q, qol tarzida noto'g'ri talaffuz qilishiga ham yo'l qo'yilmaydi va b. Demak, til madaniyatiga amal qilish o'sha tilda yozadigan yoki so'zlaydigan barcha kishilar uchun bir xilda

tegishlidir.

Nutqning bu ikkala shakli ham yagona adabiy til normalariga tayanib ish ko'radi. Shu sababli ularda mushtarak lug'aviy normalar, umumiy morfologik, sintaktik vosita mavjud. Ammo yozma nutq amal qiladigan imloviy, punktuatsion normalar og'zaki nutqda, og'zaki nutq amal qiladigan talaffuz normalari, ohangiy (intonatsion) normalar yozma nutqda yo'q yoki etakchi rol o'ynamaydi. Mana shunday farqli tomonlar yozma va og'zaki nutqning sintaktik qurilishida, so'z shakllarining to'liq va noto'liq qo'llanishlarida, imo-ishora bi-lan bog'liq (paralingivistik) vositalarning ishlatilish xususiyatlarida ham ko'rinadi. Bular yozma va og'zaki nutq madaniyatini egallashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekaniga dalildir.

Shu sababli ham nutq madaniyati sohasida yozma nutq madaniyati, og'zaki nutq madaniyati deyilgan tushunchalar mavjud. Bu tushunchalar o'zida yozma va og'zaki nutq shakllari oldiga qo'yiladigan nutq madaniyati talablarini ifodatlaydi.

Yozma nutq doirasiga ilmiy nutq, rasmiy nutq, publitsistik nutq, qisman badiiy nutq, shuningdek radio va televidenie uchun tuzilgan yozma matnlar tili kiradi. Keltirilgan yozma nutq ko'rinishlarining o'zaro farq qiladigan normativ tomonlari bor. Shunga ko'ra, bu normalarga amal qilish bilan bog'liq bo'lgan nutq madaniyati talablari ham mavjudligi shubhasiz. Nutqning keltirilgan vazifaviy tiplari ba'zan ilmiy til, rasmiy til, badiiy til deb ham yuritiladi. Og'zaki nutq dastlab ikki tipga ajraladi: 1) oddiy so'zlashuv nutqi; 2) adabiy so'zlashuv nutqi.

Oddiy so'zlashuv nutqi o'zbek tilida tabiiy holda mavjud bo'lgan og'zaki nutq ko'rinishlaridan iborat. Masalan, turli o'zbek sheva va lahjalari tili, ya'ni dialektal nutq ko'rinishlari, shevachilik unsurlari ta'sirida bo'lgan kundalik so'zlashuvning boshqa xil ko'rinishlari va b.

Oddiy so'zlashuv nutqining til bazasini adabiy til tashkil etmaydi. Shu tufayli oddiy so'zlashuvdan biz talqin qilayotgan ma'nodagi nutq madaniyati talab qilinmaydi. Oddiy so'zlashuv oldiga qo'yiluvchi nutqiy talablar aniq lahja va shevalarning tabiiy normalari bilan ko'proq lisoniy talablar bilan bog'liq bo'ladi.

Adabiy so'zlashuv nutqi adabiy tilning og'zaki nutq doirasidagi vazifalaridan yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda adabiy so'zlashuv nutqi — adabiy til madaniyatiga, ya'ni adabiy til normalariga amal qilgan holda gapirishdir. Ammo adabiy tilda so'zlash adabiy tilda yozishga nisbatan ancha qiyinchilik bilan erishiladigan jarayondir. Buning bir qator sabablari bor: 1) og'zaki nutqda shevachilikning ta'siri kuchli bo'ladi; 2) og'zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o'ylab ish tutish imkoni kam bo'ladi. Chunki og'zaki nutq yozma nutqdan tezkor (avtomatik) jarayon ekani bilan farqlanadi; 3) og'zaki nutqning o'ziga xos grammatik tuzilishi, qurilish tartibi mavjud.

Chunonchn gap bo'laklarining tushib qolishn, qisqarib ketishi, o'rin almashishi, aksincha keraksiz unsurlarning, takrorlarning bo'lishi va b; 4) og'zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vositalari muhim rol o'ynaydi; 5) og'zaki nutqning yuzaga chiqishi so'zlovchining kayfiyatiga, nutq so'zlanayotgan vaziyatga, so'zlovchi nutqiy a'zolarining normal va sog'lomligiga bog'liq; 6) og'zaki nutq normalarining barcha xususiyatlarini payqash, yozib olish, o'rgatish va o'rganish ancha qiyinchilik bilan kechadi; 7) og'zaki nutq bir butun hodisa (matn) sifatida cheksiz va son-sanoqsiz shaxsiy (individual) faoliyatdir. Uning ko'pgina qirralari turli sharoitlarda o'zicha kechadi va payqalmagan holda beiz yo'qolib ketadi; 8) og'zaki nutqning lisoniy xususiyatlari fanda yozma nutqqa nisbatan kam o'rganilgan; 9) og'zaki nutqni normalash ishlariga shu kunga qadar fanda nihoyatda kam e'tibor berildi; 10) kishi so'zlaganda o'z nutqiga xuddi yozayotgandagi kabi etarli e'tibor beravermaydi va b. Og'zaki nutqning quyidagi vazifaviy (funksional) ko'rinishlari mavjud:

Kundalik adabiy so'zlashuv nutqi ko'rinishlari. Bunga adabiy tilda gapiruvchi shaxslarning kundalik so'zlashuv nutqini kiritish mumkin. Lektorlar nutqi. Bu ko'rinishga o'rta va oliy maktab o'qituvchilarining, targ'ibotchi lektorlarning, olnmlarning ma'ruzalari, chiqishlarini kiritish mumkin. Og'zaki nutqning bu xili asosan, monologik nutq xarakterida bo'ladi.

Radio va televidenie nutqi (tili). Bu ko'rinishga radio va televidenie orqali adabiy tilda so'zlangan nutqlar kiradi. Radio va televidenie nutqi asosini diktorlar, radio va televidenie izohlovchilari nutqi tashkil qiladi. Radio va televidenie orqali adabiy tilda olib borilgan eshittirishlar, ko'rsatuvlar, suhbatlar tili ham radio va televideniening o'ziga xos talablariga bo'ysunadi va ba'zi o'ziga xos normativ tomonlarga ega.

Sahna nutqi. Og'zaki nutqning alohida turi sahna nutqidir. Sahna nutqida ijro etilayotgan asarning til xususiyatlarini saqlagan holda, tomoshabinlar uchun umumtushunarli bo'lgan tilda so'zlashga intilish mavjud. Sahna nutqining umumtushunarli bo'lishini ta'minlaydigan asosiy omil adabiy tilda so'zlashdir. Bunda adabiy talaffuz ayniqsa, muhim o'rin tutadi. Sahna nutqi nutqnnng yuqorida qayd qilingan ko'rinishlaridan dialogik xarakterga egaligi bilan ham farqlanadi. Nutqiy turlarni ba'zan ijtimoiy tabaqalar va guruhlar tili nuqtai nazaridan nomlash ham uchraydi. Chunonchi: o'qituvchilar nutqi, o'quvchilar nutqi, yosh-talabalar nutqi, bola nutqi (bog'cha bolalari nutqi) kabi. Nutqning yuqorida keltirilgan xillari ham nutq madaniyatining asosiy talablariga bo'ysunadi. Chunki ularning til asoslari ham adabiy til normalaridir. Shu tufayli ham bu nutqiy ko'rinishlardan talab qilinuvchi nutq madaniyati haqida ham alohida gapirish mumkin. Mana shu asosga

ko'ra o'quvchilarning nutq madaniyati, o'qituvchilarning nutq madaniyati, sahna nutqi madaniyati, lektor nutqi madaniyati, radio nutqi madaniyati, televidenie nutqi madaniyati, umuman keng ma'noda og'zaki nutq madaniyati haqida ham gap yuritish asoslidir. Ammo keltirilgan nutq xillarining asosiy lisoniy xususiyatlari, ular amal qiluvchi adabiy normalar bu nutqlarda yo'l qo'yilayotgan ba'zi nuqsonlarning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari o'zbek tilshunosligida deyarli o'rganilgan emas. Tanqidiy ruhda yozilgan ba'zi maqolalarda adabiy talaffuzni buzish bilan aloqador ba'zi kamchiliklar tanqid qilinadi, ammo bu nuqsonlarni tuzatishning samarali ilmiy va amaliy yo'llari etarli ravishda ko'rsatib berilmaydi.

3- mavzu. ADABIY TIL NORMALARI

Reja

1. Adabiy til normasi haqida ma'lumot
2. Adabiy normaning tiplari.
3. Adabiy tilning me'yorlari.
4. Tilning tasviriy vositalari va nutq madaniyati.

Til normasini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish o'zbek tili nutq madaniyati muammolarini nazariy jihatdan asoslashning muhim

shartlaridan biridir. Chunki «til normasi — nutq madaniyati nazariyasining markaziy tushunchasidir». «Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini, adabiy til normalarinng umumiy holatini, undagi turg'un va noturg'un hodisalarni chuqurroq tekshirmay turib adabiy tilning nutq madaniyati haqida gapirish, adabiy-normatik tavsiyalar berish aslo mumkin emas».

O'zbek tili nutq madaniyatiga bag'ishlangan ishlarda gap ko'pincha nutqimizda uchraydigan kamchiliklar haqida boradi. Lisoniy birliklarni xuddi shu shaklda qo'llash kamchilik ekanligini nimaga asoslanib aytamiz? Tilshunoslik mana shunday qo'llanishning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini ko'rsatuvchi ma'lum o'lchov bo'lishi kerak. Bu o'lchov adabiy til normasidir. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyil-ganda ana shu norma nuqtai nazaridan ish tutiladi.

B. N. Golovin: «Norma — bu til birliklarini o'zaro yaxshi tushunish zarurati tufayli undan foydalanadigan xalq tomonvdan yaratilgan, til qurilishining amalda bulgan xususiyatidir. Aynan mana shu zarurat til sistemasining yagonaligiga erishish yo'lida odamlarga biron variantni ma'qul ko'rish, boshqasidan voz kechish istagini tug'diradi. Jamiyatning ana shunday yagonalikka erishish yo'lidagi intilishi bilan birgalikda til normasi milliy adabiy tilda yuqori darajaga ko'tarilib, mustahkamlanib boradi.

Demak, norma deganda til unsurlarining xalq o'rtasida ko'pchilikka ma'qul bo'lgan variantini qo'llash tushuniladi. Shuning uchun ham norma tushunchasi til qurilishi, umuman til taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, tilda turg'unlik kasb etadi va uzoq muddat yashaydi. Ammo bu norma o'zgarmas hodisalar degan gap emas. Davr o'zgarishi bilan odamlarning bilimi, dunyoqarashi, hayotga bo'lgan talabi o'zgarishi bilan norma ham o'zgarib borishi mumkin. Masalan, 1917 yillarda muxtoriyat, jumhuriyat, baynalminal, yo'qsil, firqa, kashshof kabi so'zlarni ishlatish norma hisoblangan bo'lsa, keyinchalik ular iste'moldan chiqdi. Ularning o'rniga avtonomiya, respublika, internatsional, proletar kabi ruscha-baynalmilal so'zlar qo'llanadigan bo'ldi. hozirda avvalgi atamalar tili-mizga yana qaytib kirmoqda.

Yana bir misol: domla so'zi revolyutsiyadan ilgari diniy maktablar (madrasalarda) mudarrislik qiluvchi kishnlarga nisbatan ishlatilgan. hozir esa bu so'z butunlay boshqa ma'noda — oliy maktablarning o'qituvchilariga nisbatan aytilmoqda. Unda hech qanday yomon ma'no yo'q, ma'noda siljish yuz bergan va shunday ishlatilishi xalq tomonidan norma sifatida qabul qilingan.

«Normani tadqiq etishda shu narsani qattiy yodda tutish kerakki, tilning taraqqiyot qonunlari ob'ektiv jarayonning ifodasi sifatida kishilarning irodasiga bog'liq bo'lmagan holda amal qiladi».

Ba'zi tilshunoslar o'zbek tili doirasidagi normalarni ikkiga bo'lib

- o'rganishni tavsiya qiladi: 1. Tilning umumnormasi yoki umumiy norma.
2. Tilning xususiy normalari yoki xususiy norma.

Umumiy norma ma'lum tilniig, masalan, o'zbek tilining barcha ko'rinishlarida qo'llanayotgan normalar sistemasining yig'indisidan iborat.

Xususiy norma — umumiy normaning nutq ko'rinishlari, shakllaridagi, tilning shakllaridagi aniq ko'rinishlaridir. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda o'zbek tilining quyidagi xususiy normalari haqida gapirish mumkin:

o'zbek adabiy tili normasi;

o'zbek lahja va shevalari normasi (dialektal norma);

o'zbek so'zlashuv nutqi normasi;

o'zbek tilining ijtimoiy tarmoqlari, ya'ni «ijtimoiy dialektlar», «ijtimoiy argolar» normasi (jargonlar, professional nutq ko'rinishlari, argoning boshqa xillariga xos normalari)».

Bizni, albatta, nutq madaniyati nuqtai nazaridan adabiy til normasi qiziqtiradi. Ana shu norma tufayli til, yuqorida ta'kidlaganimizdek, umumxalq tnlining yashash shakllaridan farq qiladi. Til unsurlarini normativ holatga keltirishga intilish adabiy tilning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bu jarayon muntazam davom etib turaddu Ammo «til normasi, deb ta'kidlaydi L. I. Skvortsov fan tomonndan ishlab chiqilmaydi, ular ob'ektiv ravishda mavjud bo'ladi, lug'atlarda, grammatnkalarda, umuman til haqidagi fanda normallashtirishga qadar paydo bo'ladi. Normaning tabiiy taraqqiyotiga fanning yordamlashishi yoki qarshiligi, hosil bo'lgan norma sistemasini mustahkamlashi umuman normaning amal qilishiga ta'siri — bu boshqa masaladir».

Xullas, normativlik adabiy tilning yashash shartlaridan biridir. Adabiy tilda mavjud bo'lgan tovushlar, so'zlar, so'z birikmalari, turli qo'shimchalar, sintaktik qurilma nutq jarayonida ma'lum qonun-qoidalarga aytaylik, kelishilgan, ko'pchilik tomonidan ma'qullangan, norma deb tan olingan ko'rsatmalarga bo'ysungan holda amal qiladi. Mana shu qonun-qoidalarining buzilishi yoki ulardan chetlashish tilda normaning buzilishi, unga amal qilmaslik deb baholanadi. Demak, «adabiy til muayyan konkret normativ vositalar, imkoniyatlar, ularni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan qonun-qoidalar, ko'rsatmalar yig'indisidan iboratdir.

Endi o'zbek adabiy tilining aniq normalarn haqida mulohaza yuritamiz.

O'zbek adabiy tili normalari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

- 1) leksik-semantik normalar — leksik (so'z qo'llash) normalari;
- 2) talaffuz (orfoepik) normalar;
- 3) aktsentologik (so'z va formalarda urg'uning to'g'riligi) normalar;
- 4) fonetik normalar;
- 5) grammatik (morfologik va sintaktik) normalar;
- 6) so'z yasaliş normalari;
- 7) imloviy normalar;
- 8) yozuv (grafika) normalari;
- 9) punktuatsion normalar;
- 10)

uslubiy normalar.

quyida ushbu normalar haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

Fonetik norma. hozirgi o'zbek adabiy tili uchun 6 ta unli va 25 ta undosh tovushning qo'llanishi norma hisoblanadi.

Talaffuz normalari. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakli bo'lgani kabi, nutqda ham imloviy hamda talaffuz normalari mavjuddir.

Talaffuz normalari, ya'ni adabiy talaffuz normasi til birliklarining og'zaki nutq jarayonida adabiy til normasiga muvofiq kelishidir. Yozuv tufayli o'zbek tilining imloviy normasi anchagina durust holga keltirilgan bo'lsa ham, talaffuzda kamchiliklar hali anchagina Talaffuzda hanuzgacha har xilliklar davom etib kelmoqda va bu hol o'zbek tili nutq madaniyatiga salbiy ta'sir k'rsatmoqda. Buning sabablari nimada? Sabab sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

O'zbek adabiy tilining og'zaki normalarini barcha bir xilda mukammal egallay olmaganini sezilib turadi. Og'zaki adabiy tilni egallash yozma adabiy tildan foydalanishga ko'ra sustroqdir.

Adabiy tilda so'zlovchilar nutqida muqalliy shevalar ta'siri kuchli. Bu ayniqsa, lahjaviy talaffuz va lahjaviy aktsentlarda sezilib turadi.

O'zbek adabiy talaffuzi doirasidagi ko'zga tashlanuvchi xususiyatlardan biri kekxa va yosh avlod nutqidagi tafovutdir...

Adabiy til og'zaki shakli normalarining qat'iylashuvida yozma nutq, yozilgan matnlar, talaffuz (orfoepik) va imlo lug'atlari ijobiy rol o'ynab keldi... Shu bilan birga, yozma nutq ta'siri og'zaki adabiy nutq doirasida ba'zi bir nuqsonlarni ham yuzaga keltirdi. Og'zaki nutqda yozma nutq uchungina xos bo'lgan ibora va uzun jumlar yuzaga keldi. Bir qator so'zlar yozilgan shaklida, sun'iy talaffuz etiladigan bo'ldi...

Imloviy norma. Imloviy norma, ya'ni yozuv normasi adabiy tilning madaniylik darajasini belgilovchi asosiy mezonidir. Imloviy norma talaffuz normasidan farqlio'laroq stixiyali ravishda shakllanmasdan til vakillari tomonidan ongli ravishda kelishilgan holda yuzaga keltiriladi va uning amal qilinishi maxsus imlo qoidalari orqali yo'lga qo'yiladi. Ma'lum norma sifatida tavsiya etilgan til unsurlaridan foydalanish millat vakillari uchun majburiy sanaladi.

Tartib son yasovchi -nchi, -inchi lar o'rnida chiziqcha qo'yish, qo'ymaslik qoidalarida ham ikki xillik bor: 1960 yil 10 may tarzida yozilganda ko'p kishilar (chunonchi, Samarqandda): Bir ming to'qqiz yuz oltmish yil, o'n may o'qiydilar. Binobarin, bu qoidalarining ham qaytadan ko'rilishi maqsadga muvofiq.

Adabiy tildagi normativ holatlarni mustahkamlashda lug'atlarning, xususan imlo va izohli lug'atlarning xizmati kattadir. O'zbek tili izohli, imlo va orfoepik lug'atlari yaratildi. Bu lug'atlarning ahamiyati shundan iboratki, xalq ularda berilgan til unsurlariga o'lchov sifatida qaraydi,

yozishda va o'qishda o'sha formalar tarzida foydalanishga harakat qiladi. Shuning uchun ham lug'atlar xalq vakillari uchun tildan foydalanish yo'llarini ko'rsatuvchi o'ziga xos qonunlar majmuasidir.

Drammatik norma. O'zbek tili grammatikasi tilshunoslikning nazariy jihatdan birmuncha mukammal ishlangan, so'z shakllari, qo'shimchalar, so'z birikmalari va gap tuzilishi ancha normallashtirilgan bo'limi sanaladi. O'zbek tilshunosligida sheva va dialektlar bilan qiyoslangan holda adabiy til uchun turlovchi, tuslovchi hamda so'z yasovchi qo'shimchalarning eng ma'qul variantlari tavsiya etilgan va morfologik norma sifatida belgilangan. Ammo nutqda bu normalarga hamma vaqt ham rioya qilinmayapti. Ularning ayrimlarigagina to'xtalib o'tamiz.

Nutqda ko'pincha qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari farqlanmasdan, -ning o'rnida -ni qo'llanmoqda. Masalan:

Maryamxonim... Dod, zolimni dastidan Krdivovani yong'inga uchrashi ko'rsatadiki, xiyonat hurmatdan xam, xalqdan ham kuchliroq ekan (N. Mahfuz). Quyidagi misolni qiyoslash orqali ularning o'rtasidagi farqni yaqqol sezishimiz mumkin: Direktorni xonasida ko'rdim — Direktorning xonasida ko'rdim. Birinchi misoldan direktorning o'zini, ikkinchi misoldan esa boshqa bir kishini ko'rganlik tushuniladi. Shuning uchun ham bu kelishiklarni farqlamaslik qo'pol xatodir.

Sifat yasovchi -li va ot yasovchilik qo'shimchalari ham nutqda ba'zan farqlanmayapti. qiyoslang: Xorazmlik paxtakorlar — Xorazmli paxtakorlar, guruchli ovqat — guruchlik ovqat.

- Jarangsiz undosh bilan tugagan fe'llarga qo'shilib, ort-tirma daraja shaklini hosil qiluvchi -kaz va -qaz qo'shimchalari ham og'zaki nutqda ba'zan farqlanmayapti: daraxt o'tqa-zish — elektr liniyalarini o'tkazish. Adabiy tilning so'z yasash shakllari ham shevalardan farq qiladi: olaylik — olali, ketaylik — getali, ilgak — ilgay, aldoqchi — aldovchi, aldamchi kabi. Shevalardagi so'z yasovchi qo'shimchalar soni adabiy tildagiga nisbatan ko'p. Chunki unda har xillik mavjud. Ammo nutqda adabiy tildagi normativ holatdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yaxshi, namunaviy nutqqa qo'yiladigan birinchi talab uning grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishidir. Bu jihatdan og'zaki va yozma nutq hamda she'riy nutq o'ziga xos farqlarga ega. har qanday holatda ham gap tuzish qoidalarini yaxshi bilish va ulardan to'g'ri foydalanish, gapda so'z va qo'shimchalar o'rtasidagi munosabatning to'g'ri bo'lishi, ega-kesim mosligi hamda ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanishiga e'tibor berish, gapda so'zlar tartibiga normal holat va inversiya qoidalariga rioya qilish lozim bo'ladi.

Lug'aviy norma. Adabiy tilda milliy tilning yashash va amal qilish qonuniyatlaridan kelib chiqib so'z tanlash imkoniyatlari uning leksik normasini belgilaydi. Umumxalq tilidan ysib chiqqan adabiy til unda mavjud bo'lgan so'z variantlaridan lug'aviy norma sifatida eng ma'qulini

— hamma uchun tushunarli bo'lgan kʻyirinishini tanlab oladi, qolgan variantlar esa sheva va lahjalarda, ijtimoiy guruhlar tilida yashayveradi. har bir shevada o'sha sheva uchun so'z qo'llashning o'z lug'aviy normasi bo'lgani kabi adabiy til normasida ham shevalarda uchragani kabi o'ziga xosliklar bor. Masalan, she'riy asarlar tilida visol, ruxsor, siyna, falak, yanoq, qalb, hijron kabi so'zlar sheva va lahjalar va hatto jonli so'zlashuv tili uchun xos emas.

Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar eng avvalo leksikada o'z aksini topadi. Shuning uchun ham leksi-kaning boyib borishi tildagi boshqa unsurlarga qaraganda birmuncha faoldir. Bu hol leksik norma masalasi bilan til-shunoslikda muntazam shug'ullanish lozimligini taqozo qiladi.

Semantik uslubiy norma. Ma'lumki, so'z bir yoki bir necha ma'noda bo'lishi, o'zining tilda mavjud bo'lishi davomida undagi ma'nolarning o'zgarib borishi mumkin. Shu ma'nolarning qaysi biri hozirgi o'zbek adabiy tili uchun norma hisoblanadi? Ana shu savolga javob berish so'zning ma'no normasini belgilash hisoblanadi. Misol uchun birgina andoza-andaza so'zini olib ko'raylik. Hozirgi o'zbek tilida uning quyidagi ma'nolari norma sifatida qaraladi: 1) kiyim-bosh, poyafzal yoki boshqa biror narsa bichish uchun qog'oz yoki kartondan ishlangan shakl, shablon; 2) tayyor qolip, namuna; 3) o'lchov, me'yor, ke'zon. Alisher Navoiy esa uni quyidagi ma'nolarda ham qo'llagan.

1) solishtirish, o'xshatish

Temurdin yasab anda darvozae, Falak tog'idin tog'i andozae.

2) yuksaklik, balandlik

To qolibdursen ko'ngul parvozidin, Shoh qasri tomining andozasidin. So'zlarning ma'no normasi tilning izohli, ikki tillik va atama lug'atlarida o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Adabiy tilning uslubiy normasi til birliklarining nutqda vaziyat, ko'zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib eng ma'qulini qo'llash zaruratidan paydo bo'ladi. Shuning uchun ham uslubiyat deganda so'z (umuman til birliklarini) qo'llash mahorati ham tushuniladi.

O'zbek tilining uslubiy normalarini belgilash tilshunosligimiz, xususan o'zbek uslubiyati oldidagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Xo'sh, uslubiy normalar nimalarga asoslanishi kerak? Bu savolga shunday javob bersa bo'ladi: U birinchidan tavsiya qilinayotgan til vositalari (shakli, so'zi, qurilmasi) umum tomonidan qabul qilinsin, ko'pchilik tilida qo'llansin, yagona va mushtarak hamda tipik bo'lsin; ikkinchidan, ko'p yillar va zamonlardan beri barqaror qo'llanib kelgan bo'lsin va umumtil sistemasidan joy olib, ona tilining hamma sohalari bilan uzviy bog'langan bo'lsin». Bu javob qanchalik ishonchli bo'lishidan qat'i nazar tilning uslubiy normasini aniqlashda til birligi qo'llanilayotgan kontekstga qarab hukm chiqarish muhim ekanligini

unutmaslik kerak. Chunki har bir birlik faqatgina nutq jarayonida o'zining u yoki bu stilistik imkoniyatini namoyish qilishi mumkin. Tilda esa bunday imkoniyatlar cheksizdir. Masalan, sinonimlarning imkoniyatlarini olaylik. Atoqli shoirimiz Maqsud Shayxzodaning ushbu so'zlarini keltiramiz: «Ma'nodosh so'zlarni o'rnida ishlatish so'z san'atkor uchun farz. Masalan, lug'atlarda «odam», «kishi», «inson» sinonim so'zlardek talqin qilinadi. Ammo jonli tilda shunday emas. «Besh inson keldi» emas, balki «besh kishi keldi» deyiladi; «Kishichilik shunday bo'ladi» emas, «Odamgarchilik shunday bo'ladi» deyiladi. Tilimizning shu tovlanib turishida shoir uchun ne-ne bitmas-tuganmas xazinalar bor». Demak, sinonim suzlarni qo'llashdan oldin qaysi ma'no nazarda tutilayotgani e'tiborga olinishi kerak. (so'zlovchi o'z ob'ektiga salbiy munosabat bildiriyaptimi yoki ijo-biy munosabat bildiriyaptimi? Sinonim qatordagi so'z o'z ottrikasiga qarab ana shu ma'noni berishga xizmat qiladi. Bir holatda insonni qo'llash, ikkinchi holatda kishini, uchinchi bir holatda odamni ishlatish uslubiy norma sanaladi. Demak, yuqorida aytib o'tilganidek, s'yzning, umuman, til unsurlarining uslubiy normasini uni ishlatishdan k'yzda tutilgan maqsad va nutq amalga oshirilgan vaziyat belgilaydi.

Bu masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchidan, so'zlarni noo'rin takror qo'llash, ba'zan noaniq ishlatish uslubiy jihatdan noto'g'rilik, binobarin, uslubiy normaning buzilishi sanaladi. Masalan, Uyg'unning «Parvoz» dramasida turgan joyida uzoh turib holadi degan muallif remarkasi bor.

Yozuvchi Abdulla Qahhor «bir o'rinda» sp'zini noaniq qo'llovchi yozuvchilarni qattiq qoralaydi. M. Hakimning «Rashk» hikoya-sidagi «Men ham sizni yaxshi ko'raman... Nimaga shekilli? O'zim ham bilmayman», ...jalanglab turgan qora ko'zlari ko'zimga sanchilar edi» jumllarni tahlil qilib, «Kitobxonga bir fikrni anglatish yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun kishining boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon va sodda til kerak» deb uqtiradi, shu muallifning «Uchrashuv» hikoyasidagi «Otni jadallatdi» deyish o'rniga «Otning jilovini siltab, tezlashni. O'zbek tilining qanchalik normaga keltirilganligi va unga qanchalik amal qilinishi umummilliy o'zbek madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan biridir.

4-MAVZU. NOTIQLIK SAN'ANI TARIXIDAN

Reja:

1. Voizlik kelib chiqish tarixi.
2. Xoja Muayyad Mehnagiy va mavlono Riyoziy yetuk notiq.
3. Husayii Voiz Koshifiy-o'z zamonasining yetuk notig'i.

Tayanch so'zlar. Voizlik xoja Muayyad Mehnagiy va Mavlono Riyoziy-yetuk notiq. Koshifiyning notqlik san'atiga qo'shgan hissasi. Adam Mets-shveysar olimi.

Adabiyotlar.

1. Alisher Navoiy. Majolisun-nafois. Asarlar. O'n beshlik tomlik, 12 tom, 42-bet.
2. Alisher Navoiy. Majolisun-nafois, Asarlar, o'n besh tomlik, 12tom 101-bet.
3. S.Inomxo'jayev, A. Zunnunov. Ifodali o'qish asoslari. T. o'qituvchi. 1978 yil.
4. K. Oripov, M. Oripova. Ifodali o'qish. o'qituvchi. T. 1994 y.
5. S.Inomxo'jayev, Badiiy o'qish asoslari T. 1973 y.

Notiqlik- o'tmish so'z san'atining eng va ommaviy barkamol natijalaridan bo'lib, bu san'atni musulmon Sharqida voizlik deb atalgan. Shunga ko'ra nutq-va'z, notiq-voiz deb yuritilgan. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotida oldingi saflardan biriga ko'tarila olgan edi. Umuman, o'rta asrlarda fan va madaniyatning rivojida Xorazmiy, Farog'iy, Ibn Sino, Beruniy, Qoshg'ariy, Navoiy kabi ulug' siymolar katta hissa qo'shganlar. Bular yashagan davrni Sharq tarixida uyg'onish davri ham deb atalardi. Bu davrda ilm-fan, adabiyot, san'at madaniyatimizning ravnaq topgan yillari bo'ldi. Adabiyot-san'at, fan va umuman, madaniyatimizning targ'ibotchilari bo'lgan bu allomalar ayni vaqtda voiz (notiq)lik san'atini ham yaratdilar. IX-X asrlar orasida yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy (837-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037) kabi yirik olimlarimiz faqat zamonlarining ilm-fani bilan chegaralanib qolmay, ayni vaqtda notiqdan bo'lganlar hamda notiqlikning tug'ilishi, shakllanishi va rivojiga ham katta e'tibor berganlar. Bulardan tashqari, XI asrda Kaykovus tomonidan yaratilgan "Qobusnoma"da ham notiqlik san'ati haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Hatto muallifning ta'kidlashiga qaraganda, barcha hunarlar ichida o'z hunarini-notiqlikni ulug'laydi. Notiqlik juda uzoq tarixga ega,

yana shu davr ichida u shakllanadi, o'zgardi va kamol topdi. Albatta, bu tarixiy jarayonda nasldan-naslga meros qolishga arzigulik an'analar ham yetib keldi. Sharq va xususan o'rta Osiyoda juda ko'plab notiqalar yetishib chiqdilar, faqat yetishib chiqdiligina emas, balki ular notqlik asoslarini yaratib butun sharqqa, hatto, bu Jumladan: Voiz Muhammad Rafi' "Abvobul jinon", Voiz Kazvinii "Zilolu maqol", Voiz Shirvonii "Aksanul axoddis", Muhammad Bobur binni Muhammad Voiz "Hidoyatul-taqvim", Kuraysh Sindii "Anisul-voizin", Mulla Kalon voiz, Samarqandii "Ravzatul-voizin", Qozi Ushii "Miftoxun-najjoh" ("So'zning kaliti") va boshqa bir qator mohir so'z ustalari o'zlarining risolalarini yaratib, notqlik nazariyasi sohasida ham katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Bularning har bir o'z tarixi, taqdiriga ega bo'lgan siymolardir. Voizlikning kelib chiqishi tarixi ham ancha qiziq nuqta Shveytsar olimi Adam Metsning ma'lumotlariga ko'ra ilgari podshohlar el oldiga chiqib, davlat tuzumi, itoatkorlik, xalqaro ahvoldan diniy qoidalardan, o'z siyosatlarini va boshqa mavzularda nutq so'zlab turganlar. Ularning nutq matnlarini esa, saroy xodimlari, yani devonul insho xodimlari yozib bergan. Ayniqsa, juma namozi kunlari ularning chiqib, nutq so'zlashlari shart bo'lgan. Vaqlar o'tishi bilan bunday ishlarni maxsus so'z ustalariga topshira boshlaganlar. Jumladan, Mavlono Faxriddin Ali Safiyni "Latoyifut-tavoyif" asarida aytilishicha, Sulton Husayn Boyqaro bir kuni Sherozga, Shoh Shijo' oldiga rasmiy davlat ishi bilan muzokara olib borish uchun bir, vakil yubormoqchi bo'lgan. Arkoni davlat bilan maslahatlashib, Mavlona Irshoddan boshqa munosib kishi topa olmaydilar. Xullas Irshod borib, rasmiy ishlarni oz muddatda ijobiy hal etadi. Ammo, uning notqlik mahoratiga qo'il qolgan shoh Shijo' Irshodga javob bermay, bir majlis qurib keyin ketishi mumkinligini aytib iltimos qiladi. Notiq majlisni juma kunga tayinlaydi. Boshqa odamlar qatori shoh va uning ayonlari masjidi Jomega yig'iladilar. o'sha kuni mavlono Irshod shunday ehtirosli nutq -so'zlaydiki yig'ilgan xaloyiq ho'ng-ho'ng yig'lay boshlaydi. Notiq hamma nutqqa berilib ketib yig'layotganini ko'radi. Shunda mavlono Irshod o'z notqligining yana bir bunyodkor kuchini namoyish qiladi: u to'satdan shunday kutilmagan burilish yasaydiki, hamma birdaniga ko'z yoshi aralash qah-qah soladi. Shoh Shijo' ham, yig'ilgan xaloyiq ham buyuk notiq Mavlono Irshodni hurmat-ehtirom bilan kuzatib qo'ydilar, o'zbek xalqi orasida Mavlono Irshodga ham o'xshagan notiqalar juda ko'p bo'lgan. Ulardan biri Farg'onalik mashhur notiq Qozi Ushii bo'lgan. U o'sh shahrida qozilik lavozimida ishlagani uchun qozi Ushii taxallusiga ega bo'ladi. U xalq o'rtasida juda katta obro'ga ega bo'ladi. Yuqoridagi asarda yozilishicha, Erondagi Siiston viloyatining xalqi qattiq qo'lligi bilan dong chiqargan, hatto gadoyga ham non bermas ekanlar. Qozi Ushii esa bu xalqning ko'ngil qulfini

so'z kaliti bilan ochib yumshataman deydi. U Siistonga borib, bir ikki hafta shu xalq ichida yuradi, ularning ruhiy holatini o'rgandi. Shahar qozisidan ruxsat olib, juma kuni masjidi Jomeda katta, nutq so'zlaydi notiq bilan baravar xalqning fig'oni falakka ko'tariladi. Siiston xalqi topgan-tutganini minbar ostiga tashlaydi. Lekin Qozi Ushiy nutqi uchun hech kimdan haq olmasligini aytadi, buni eshitgan xalq notiqni yanada e'zozlaydi. Notiq, u xalqning xasis emasligini, aksincha oilyjanob ekanligini xalqning mehr xazinasini ochish uchun munosib kalit topa olish kerak ekanligini isbot etadi. Mutaxassis notidlarni voizlar deb ataganlar. Ularning va'z matnlari odatda chiroyli va badiiy yuksak saviyada bo'lgan. Nutq matnlarining aksariyati nasriy she'r hatto she'riy shakllarda yozilgan. O'tmish sharq notidlari orasida o'z zamonasining Demosfen va Sitseronlari juda ko'p bo'lgan. o'zbek va yunon san'atkor-mutafakkirlarining nutq talqinlari, ta'sirchanligi va notiqlik sanlati asoslari bo'yicha, olg'a surgan flkrlari jahon taraqqiyparvar notidligining shu masalalaridagi talqinlar bilan hamohangdir.

Biz Alisher Navoiy tomonidan tilga olingan va ularning ijodi haqida fikr yuritgan notidlardan faqat uch voiz haqida qisqa-qisqa ma'lumot beramiz. Xoja Muayyad Mehnagiy. U o'z zamonasining yetuk notidlaridan bo'lish bilan birga, oddiy mozor shayxlaridan bo'lgan. Alisher Navoiyning yozishicha, u "zohir ulumin takmil qilib erdi", ya'ni yuzadagi ilmlardan, o'ziga ayon bo'lgan fanlarning hammasini o'zlashtirgangina emas, balki uni to'ldirgan. Shuning bilan birga u o'z tinglovchilari qalbiga qo'l sola olgan, ularni faqatgina tinglovchilikdan, har birini faol fikr yurituvchi, va'z mazmuniga nisbatan faol munosabatda bo'luvchi ijodkor tinglovchilar darajasiga ko'tara olgan. o'z majlislarining qizg'in o'tishiga erisha olgan. o'sha davrlarda Xoja Muayyad kabi otash nafas notidlar soni juda kam bo'lgan. Shuning uchun ham ular nomi ulkan adiblar nomi qatorida tarix sahifasidan sharafl o'rin olgan. Uning ijodiy mahorati boshqa notidlar uchun namuna bo'la oladi. Chunki, u o'sha davrdagi mavjud fanlarning barchasini to'la o'zlashtirgan donishmand olimdir. Muayyad kabi, mahorat va bilimga ega bo'lgan har bir notiq o'z tinglovchilari qalbini larzaga keltirishi, ularni hayajonga sola olishi turgan gap. Ana shunday qudrat-zakovati tufayligina sultonlar, podshohlar ham uning mahorati, is'tedodi oldida bosh ekkanlar. Mavlono Riyoziy Zova deb atalgan viloyatda o'sdi ulg'aydi. O'zining aql-zakovati ila shu viloyatning qozilik lavozimigacha ko'tarildi. Biroq Alisher Navoiy "Majolisun-nafois" asarida yozishicha u ayrim o'rinsiz hatti harakatlari uchun qozilik lavozimidan chetlashtirilgan kishanga solib badarg'a qilingan. Natijada bir umr taqib o'tida yuradi, g'ariblikda kun kechiradi. Maviono Riyoziyning yetuk notiq darajasiga erishadi, mamlakat hukmronlari mafkurasi bilan uning qarashlari o'rtasidagi kelishmovchilik, turli ziddiyatlar asosiy omillaridan biri

bo'lgan. Riyoziy notiqligining tabiiy tomonlaridan biri hamdardlik tuyg'ularini birinchi o'ringa qo'yabilishdir. Alisher Navoiyning yozishicha: "...va'z aytib, minbarda o'z ash'orin o'qib, yig'lab vajdihol qilur erdi",-deydi. Shoirning bu so'zlari ancha diqqat E'tiborga loyiq, chunki el oldida rasmiy nutq bilan chiqib yig'lash darajasiga borib yetish va bu ko'z yoshiga nisbatatL kinochilarda kulgi emas, balki hamdardlik kayfiyatini uyg'ota olish uchun katta san'atkorlik mahorati kerak. Mavlono Riyoziy nutq paytida ko'z yoshi darajasiga yetib borar ekan, qalbidagina yig'lab bayon etar va kishilarni shunga ishontira olar ekan, demak shubhasiz, u juda iste'dodli notiq, chinakam so'z san'atkori bo'lgan. Mavlono Riyoziy ajoyib so'z san'atkori bo'lish bilan bir qatorda, o'z davrining ko'zga ko'ringan pedagoglaridan biri bo'lgan. U o'z ishlarini dunyoviy fanlar: tabiatshunoslik, geografiya, tarix, adabiyot, nazariyasi va boshqa fanlarni chuqur o'rganib, uni yoshlar o'rtasida targ'ib qilgan. Alisher Navoiy yozishiga qaraganda Mavlono Riyoziy o'z fikrida qattiq turuvchi va shu fikr uchun kurashuvchi shaxs sadoqatli ya mohir pedagog va butun hayotini sevimli kasbiga bag'ishlagan ulug'vor inson ekanligini ta'kidlaydi. o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan Mavlono Riyoziy nutqlarida boshqa notiqlar qatori xalq og'zaki ijodi va ayniqsa badiiy adabiyotdan juda ustalik bilan foydalangan. U o'z zamonasining zabardast notig'i, olimi, pedagog va shoirlardan bo'lgan. Husayin Voiz Koshifiy. Husayn Voiz asli tug'ilgan joyi Eronning shimoliy sharqidagi sabzavor shahri bo'lib qachon tug'ilgani hozircha bizga noma'lum, sharqshunos olimlarning fikriga qaraganda vafot etgan yili 1504-1505 yillarga to'g'ri keladi. Xullas, Husayn Voiz Alisher Navoiyning zamondoshi, ubilan bir davrda yashagan, ijod qilgan hatto, Alisher Navoiydan 3-4 yil keyin olamdan o'tgan.

Husayn Voiz eng asosiy fazilati, uning ilm egasi ekanligidir. U juda ko'p fanlarni egallagan va ularning har birida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib brogan mashhur olimlardan biridir. Uning: "Javohirut tafsir" yoki "Tafsiri Husayn", "Mavohibud dunyo", "Lubbi-lubob", "Anvori Suxayli", "Ravzatush Shuxado", "Dah majlis", "Axloqi Muhsiniy", "Mahzanul Insho", "Sabo", "Koshifiya", "Asrori Qosimiy", "Hotamnoma", "Matlaul avvor", "Ehtiyorat" va boshqa bir qator asarlari shundan dalolat beradi.

Husayn Koshifiy notiq sifatida o'z zamonasining mashhur notiqalaridan bo'lgan. Uning nutqini eshitish uchun shaharning turli tomonlaridan yig'ilishlar, tinglovchilar soni shuqadar ko'payib ketishi natijasida orqada turganlarga notiqning ovoziyetib kelolmasa ham, uning ichki ruhiy holatini turli holatlar orqali ifodalanishini kuzatar ekanlar. Bu haqda Voizning o'g'li Faxriddin Ali Safiy o'zining "Latoyifut-Tovoif nomli asarida takidlanishicha otasi masjidi Jomeda nutq so'zlayotgan ekan, odam shunchalik ko'p ekanki majlisga kelayotgan o'sha davrning

mashhur so'z ustalaridan Mavlono Sayid G'iyosiddin tasodifan o'sha yerdan o'tib qolib majlis ahliga mahliyo bo'lib, o'zi qatnashish uchun ketayotgan majlisdan kech qoladi. Ittifoqo shu majlisda Abdurahmon Jomiy ishtirok etayotgan bo'ladi. Sayid G'iyosiddin kirib kelishi bilan undan so'raydi. Nechun kechikdingiz, Mavlono G'iyosiddin? Meni ma'zur tuting, ustod, -dedi G'iyosiddin, kelayotgan edim, masjidi Jomeda Husayn Voiz nutq so'zlayotgan ekan, shunga mahliyo bo'lib qolibman. Xo'sh, qanday yangilik eshitdingiz?

Hech qanday, -deydi G'iyosiddin. Sabab? Sababi shuki, -dedi gunohkor, -odam juda ko'p ekan. Olomon meni turtib bir nechta chiqarib yubordi. Men shunchalik uzoq masofada edimki, uning ba'zi-ba'zi so'zlari zo'rg'a qulog'imga chalindi. Unday bo'lsa nima qilib o'tirdingiz? Qarab o'tirdim, -dedi G'iyosiddin, -Husayn Voiz shunday nutq so'zlayotgan ediki gaplarini eshitmasam ham uning mahoratiga mahliyo bo'lib, nutqining oxirigacha qarab o'tirdim. o'z zamonasining ulkan so'z san'atkori Husayn Voiz Koshifiyning yuksak mahoratiga hatto Alisher Navoiy va Sulton Husayn Boyqarolar ham qoyil qolib tan berganlar, hatto o'z asarlarini rasmiy ijro etish lozim bo'lganda bunday ishga Husayn Voizni munosib ko'rganlar. Jumladan, 898 (1492) yil 8 noyabr kuni, Abdurahmon Jomiyning Dafn etish marosimida Husayn Voiz nutq so'zlaydi va ana shu marosimda Alisher Navoiy o'zining quyidagi tarkibband-tarixini va 7band, 140 misradan iborat marsiyasini o'qib eshittirish uchun unga topshiradi.

"Gavharog koni haqiqat, durri bahri ma'rifat, K-u ba xak vosil shuda dar diya nabudali mosivoh. Koshifi sirri ilohi bud beshak 3-on sabab Gasht tarixi vafotosh asrori iloh".

YA'NI:

Haqiqat konining gavhari ma'rifat dengizining durikim, Haqiqatga erisha oldi va qalbida undan boshqa narsa yo'q edi. Shubhasiz ilohiy sirning ochuvchisi edi, shu sababdan, Vafotining tarixi "Kashfiy asrori iloh" bo'ldi.

Alisher Navoiy tomonidan Husayn Voizga bildirgan Ana shu ishonchning o'ziyoq, mamlakatda, ayniqsa Voizlar o'rtasida katta [shonch va hurmatga sazovor ekanligidan dalolat beradi. Husayn Voiz notiq sifatida shuqadar hurmatga sazovor bo'lganki, buning asosiy sabablaridan biri, uning ovozining shiraligiga, ohangi, ichki ruhi holatini turli harakatlar bilan ifoda qila bilishi bo'lgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, doimo har yerga taklif etishavergan shuning natijasida bu aniqjadval bilan ishlashga majbur bo'lgan.

Xondamirning aytishiga qaraganda, u juma kuni ertalab Hirotning markaziy chorsusida joylashgcdi shoh nomozgohida va'z aytgan shu kun

pehından keyin Alisher Navoiyning masjidida, seshanba kuni Sulton Husaynning madrasasi, chorshanba kuni pir Mujarrat Xoja Abdul Valid Ahmad mozori boshida payshanba kuni Sulton Ahmad Mirzo mozori boshida nutq so'zlagan.

Bularning barchasi, notiqning har tomonlama bilimdonligidan va jahonning baland pastini yaxshi bilganligi uning nutqining sermazmun bo'lishini ta'minlagan omillardan biridir.

5-MAVZU. O'QITUVCHI NUTQI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

REJA

1. Nutq madaniyati va o'qituvchi nutqi.
2. O'qituvchi nutqi – madaniy nutq.
3. O'qituvchi nutqining mezonlari.

Adabiyotlar

1. Begmatov E., Boboeva A., Asomiddinova M., Umarqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. Toshkent. 1988.
2. Begmatov E. va b. "Adabiy norma va nutq madaniyati". T. Fan. 1983.
3. Imomxo'jaev M. "Noti?ning nodir boyligi". T.
4. Qo'ng'irov R va b. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. T. O'qituvchi. 1992.
5. Qoshg'ariy M. Devonu Lug'atit Turk. 1-tom. T.1960.

So'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyishganda aytilmoqchi bo'lgan maqsadning tinglovchi va kitobxonga to'liq borib etishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra nutq oldiga ma'lum talablar qo'yiladi. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to'g'ri, aniq, chiroyli, yorqin, maqsadga muvofiq bo'lishidir. Bu belgilar nutqning asosiy sifatleri, xususiyatlari deb qaraladi.

Rimliklar qadimgi davrlardayoq yaxshi, namunaviy nutqning sifatlerini aks ettiruvchi qoidalarni ishlab chikdanlar. Masalan, Sitseron fikricha, aniqlik va tozalik nutq uchun shunchalik zarurki, ularni asoslab o'tirishning ham zarurati yo'q. Ammo notiq tinglovchilarni o'ziga jalb qilishi uchun nutqning bu sifatlarigina etarli emas. Buning uchun nutq jozibador bo'lishi ham kerak. Notiq Dionis Galikarnas esa nutqda maqsadga muvofiqlikni muhim deb hisoblagan. Xullas, qadimgi rim notiqlik san'ati nazariyotchilari asosiy e'tiborni nutqning har tomonlama yaxshi bo'lishiga qaratganlar.

Ta'kidlash kerakki, nutq ma'lum shart-sharoitlarda amalga oshiriladi. Bunda joy, vaqt, mavzu va aloqa jarayonining maqsadi kabi omillar ham ahamiyatlidir. Shunday qilib, nutqning aloqaviy (kommunikativ) sifati deganda quyidagi holatlarni nazarda tutish lozim b'yladi: nutqning to'g'riligi, tozaligi, aniqligi, mantiqiyiligi, ta'sirchanligi, obrazliligi, tushunarililigi va maqsadga muvofiqligi. quyidagi nutqning ana shu sifatleriga alohida-alohida to'xtalamiz. Nutqning to'g'riligi. Nutqning

to'g'ri bo'lishi — bu uning bosh aloqaviy sifati sanaladi. Nutqning to'g'ri tuzilgan bo'lishi tomonlarning — so'zlovchi va tinglovchining, yozuvchi va o'quvchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini ta'minlaydi. Agar nutq to'g'ri bo'lmasa, u aniq ham, maqsadga muvofiq ham, mantiqiy ham bo'lmaydi. To'g'rilik deganda,— deb yozadi V. G. Hostomarov,— nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan normasiga qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy lug'at va grammatik normalarini egallashni tushunish lozim bo'ladi» 1. Demak, nutqning to'g'ri bo'lishi, eng avvalo, uning adabiy til normalariga muvofiq kelishidir. I. M. Mixaylovning fikrlari ham shu ma'nodadir: «Normativ grammatika, leksikologiya va talaffuz talablariga mos keladigan nutqni to'g'ri nutq deb atash mumkin. To'g'ri nutqda ma'noga mos ravishda qo'llangan so'z adabiy talaffuzni saqlab qoladi va tuzilishi (ya'ni grammatik va intonatsion) to'g'ri bo'lgan gap hosil qiladi». Xullas, nutqning to'g'riligi uning til qurilishining amalda bo'lgan til normasiga muvofiq kelishidir.

Nutqning to'g'ri bo'lishi asosan ikki normaga — urg'u va grammatik normaga qattiq amal qilishni taqozo qiladi.

So'zlardagi ayrim bo'g'inlarning zarb bilan aytilishni, talaffuz qilinishi, ya'ni urg'u hamma tillarda ham bir xil xususiyatga ega emas. Masalan, rus tilida urg'u so'zlardagi har xil bo'g'inlarga tushishi, erkin bo'lishi mumkin bo'lgani holda, o'zbek tilida u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. So'zlarga qo'shimchalar qo'shila borishi bilan urg'uning o'rnini ham o'zgarib boraveradi. Masalan: maktab—maktaby — makbimyz — maktabimizda — maktabimizdagi — maktabimizdagi-lar — maktabimizdagilardan kabi. Demak, talaffuzda ana shu normani saqlash lozim bo'ladi. Bu masalaning bir tomoni bo'l-sa, ikkinchidan so'zlardagi urg'uning ko'chishi bilan ma'noning ham ba'zan o'zgarib ketishi mumkinligini unutmaslik kerak. O'zbek tilida shunday hodisani kuzatish mumkin. Masalan: olma so'zini olaylik. Bu so'zni alohida urg'usiz olib qaraganda uning qanday ma'noda qo'llanastganini aniqlash qiyin. Faqat urg'u undagi ma'noning anshulanishiga ko'maklashadi, ya'ni olma tarzida urg'u birinchi bo'g'inga tushganda harakat, olma kabi oxirgi bo'g'inga tushganda esa mevaning bir turi ma'nosi anglashiladi. Tilimizda bunday so'zlar anchagina. qatlama — qatlama, hozir — hozir, yigytcha — yigitcha, o'quvchimiz — o'quvchimiz, yangi — yangi so'zlarining ma'nosi ham faqatgina urg'u yordamida oydinlashadi. Ularni, ya'ni urg'uni qaerga qo'yishni farqlamaslik so'z ma'nolarining buzilishiga binobarin, so'zlashuv nutqida adabiy — normaning buzilishiga olib keladi. So'zlar talaffuzidagi bunday nonormal holatlarga, ayniqsa, madaniyat va maorif xodimlarining yo'l qo'yishlarini aslo kechirib bo'lmaydi.

Grammatik norma to'g'risida «O'zbek tilining normativligi» deb

ataluvchi bobda ham fikr yuritilgan edi. Grammatika deganda eng avvalo nutq qurilishining grammatik shakllarini, tartibini to'g'ri tuzish va ularning nutqda ishlatilishini o'z ichiga oluvchi, qat'iy qaror topgan sistemasi tushuniladi. Bu sistemaga adabiy tilda gapiruvchilar, ayniqsa, yozma nutq va matbuot uchun majburiy sanalgan grammatik normalar kiradi. «Grammatika—nutq oqimidagi so'zlarning o'zgarishi va ularning gapdagi birikuvining xilma-xil qoidalari yig'indisidir. Faqat grammatik qoidalarga rioya qilishgina nutqqa qat'iy ma'noli va mantiqiy izchil xarakter berish imkonini yaratadi. Chunki so'z o'z-o'zicha hamma imkoniyatlarini ocha ol-maydi. U faqat boshqa so'zlar bilan birikkandagina, har safar (ko'rganimizdek) yangi ma'no kasb etib, fikr va hissiyotlarning nozik qirralarini ifodalab, to'liq va har taraflama yashaydi».

Xullas, grammatik normalarga rioya qilish deganda gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zak va qo'shimchalar o'rtasidagi bog'lanishning tabiiyligi, ega-kesim mosligi, ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanish qonuniyatlari kabilarni e'tiborga olish lozim bo'ladi.

Nutqning aniqligi. Aniqlik ham nutqning asosiy aloqaviy sifatlaridan bo'lib, yaxshi nutqning shakllanish shartlaridan biridir. Agar to'g'ri nutqning yuzaga kelishida faqat lisoniy faktor zaruriy belgi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda uning shakllanishiga xizmat qiluvchi, tildan tashqarida bo'lgan holatlarni ham nazarda tutish lozim bo'ladi. Bu, eng avvalo, til va tafakkur dialektikasidir. Chunki, aniqlik deyilganda tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo'lgan material o'rtasidagi mutanosiblik tushuniladi. Shundan kelib chiqib B. N. Golovin yozadi: «Aniqlikni «nutq — voqelik» va «nutq — tafakkur» munosabati asosida belgilash mumkin».

Tabiat va jamiyatdagi turli voqea-hodisalar, narsalar, olamning jo'g'rofiy tuzilishi, kishilarning his-tuyg'ulari, harakat va holatlari har bir tilda o'zining lisoniy ifodasiga ega. Ana shu lisoniy ifoda yordamida bu hodisalar inson tomonidan anglanadi, tushuniladi, idrok qilinadi va fikr almashinadi. Shuning uchun ham nutq oldida u aniq bo'lishi kerak deb talab qo'yilganda lisoniy birlik hamda u ifodalayotgan tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi aniq muvofiqlik tushuniladi: «...Agar inson tafakkurining eng yuksak yutug'lari, eng chuqur bilimlari so'zda aniq va ochiq-oydin ifodalanmagan bo'lsa, ular baribir odamlarga noma'lum bo'lib qolaveradi. Bizning vazifamiz aytadigan fikrimizning boshqalar tomonidan qabul qilinishiga erishishdan iboratdir. qabul qilish esa ko'p jihatdan bizning o'z nutqimizni qanday ifoda qilishimizga bog'liqdir» 1. Ana shu talablardan kelib chiqiladigan bo'linsa, nutqning aniq bo'lishi nutq madaniyatining, nutq mas'uliyatining g'oyat zarur shartidir. Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek,

Abdulla Qahhor kabi o'zbek so'z ustalarining tilga bo'lgan munosabatlarini ana shu mas'uliyat samarasi deb tushunmoq kerak. Bu jihatdan yozuvchi Abdulla Qahhorning ijodi va til mahorati haqidagi ayrim fikrlari diqqatga sazovordir. U yozuvchi Ma'ruf Hakimning «qahramonning o'limi» hikoyasini tahlil qilib, «Botir beliga qator beshta bomba qistirib...», «qo'lida bomba ushlagan holda ko'chaga yugurdi» jumlaridagi bomba so'zining noto'g'ri qo'llanilganligini, yozuvchining bomba va granatani farqlamasligini tanqid qiladi. A. Qahhor tahlilida davom etib, hikoyadan yana misollar keltiradi: Botir «Sulton akaning oyoqlarini silaganda qo'lga elimga o'xshagan bir narsa yopishganligini sezdi: qorong'ida nima ekanini bilolmay qol-di». Shu urning o'zida: «Jenya... yigitning ko'ziga uzoq tikilib qoldi». Qo'lga tekkan qon ko'rinmagan qorong'ida ko'z ko'rina-dimi?— deydi A. Qahhor. U yana yozadi: «Adabiyotda yolg'onning katta-kichigi yo'q. Hammasi ham baravar zarardir. «Uchrashuv» (M. Hakim)da mana bunday yolg'on gap bor: «Ahmad osmonga qaradi. haqiqatan ko'ni bulut bosgan. Bironta ham yulduz yo'q edi!» Shundan besh satr pastda «Ahmad osmonga nazar tashla-di. haqiqatan uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlarning ko'rinishi xunuk edi». Uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlarni ko'rish uchun havo qisman bo'lsa ham ochiq bo'lishi kerak. Bu erda yo «ko'ni bulut bosgan»i, bironta ham yulduz yo'qligi yolg'on yoki «uzoq ufqdan chiqib kelayotgan bulutlar» to'g'risidagi gap behuda».

Demak, aniqlik — bu so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir.

Aniqlikni vazifaviy uslublar doirasida tushunish ham o'ziga xos. U so'zlashuv uslubida vaziyatga bog'liq bo'ladi. Ras-miy ish qog'ozlari stilida esa aniqlik tildagi tayyor, kirish-so'z va iboralardan foydalanishni taqozo qiladi. Ilmiy uslubda atama va uning ifodalanish aniqligi asosiy o'rinda turadi. Publitsistik va badiiy nutq uslubida esa so'z va iboralar faqatgina badiiy-estetik vazifani bajarishdan tashqari yozuvchining maslagi va g'oyaviy maqsadiga mos kelishi va Shunga xizmat qilishi kerak.

Ana shu sabablarga ko'ra so'z qo'llash aniqligining chegarasini belgilash nihoyatda murakkab ish bo'lib, u avvalo o'zbek tilini yaxshi, mukammal bilishni va uning ijtimoiy voqeylikdagi qo'llanish doirasini yaxshi o'rganishni taqozo qiladi.

Nutqning mantiqiyliqi. Nutqning mantiqiyliqi uning asosiy sifatlari — to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiq buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifo-dalanayotgan fikrning to'liq borib etmasligiga, ba'zan umu-man anglashilmasligiga olib kelishi mumkin. Nutqni tuzish-dagi

e'tiborsizlik natijasida ba'zan hatto mantiqsizlik yuz beradi. Quyidagi misolga e'tibor qiling: «Ferma jonku-yarlari olti oylik davlatga sut sotish planlarini muddatdan oldin bajardilar (gazetadan). Gapda so'zlarning tartibi to'g'ri bo'lmaganligi, «olti oylik» birikmasining «sotish» so'zi-dan keyin kelmaganligi tufayli mantiqda putur etyapti, hatto xato fikr ifodalanyapti.

Nutqning mantiqiy bo'lishi, eng avvalo so'zlovchi va yozuv-chining tafakkur uquvi, qobiliyati bilan bog'liq. Shuning uchun mantiqiylik faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki nolisoniy hodisa sifatida xam namoyon bo'ladi, ya'ni bunda notiqdan faqatgina tilni yaxshi bilishgina emas, mulohaza yuritayotgan mavzu atrofida keng bilimga ega bo'lishi ham talab qilinadi, Shu o'rinda A. G. Chernishevskiyning «Ni-mani noaniq tasavvur qilsang, shuni noaniq ifoda etasan, noaniqlik va ifodani chalkashtirish fikrlar chigalligidan dalolatdir» degan fikrini keltirish o'rinlidir.

Mantiqiy tafakkur problemi materialistik mantiqning markaziy tushunchalaridan bo'lib, bu haqda oliy maktablarda talabalarga etarli darajada bilim beriladi. Ularning ana shu bilimlariga tayangan holda bu o'rinda talabalarning asosiy diqqatini nutqning mantiqiylikdagi lisoniy jihatlar-ga qaratishga harakat qilaylik.

«Nutq madaniyati asoslari» o'quv qo'llanmasining muallifi B. N. Golovin mantiqiylikni ikki guruhga bo'lib, narsa va tushuncha mantiqiylik tarzida o'rganishni tavsiya etadi. Narsa mantiqiylik nutqdagi til unsurlari bilan real voqe'lik-dagi narsa va hodisalarning mazmuniy aloqasi hamda munosabatidir. Tushuncha mantiqiylik esa nutqda mantiqiy tafakkur qurilishini va uning til unsurlari ma'naviy alo-qadorligida mantiqiy rivojlanishning aks etishidir, dey-di u. Ko'rinadiki, so'zarning o'zi ifodalanayotgan narsa-hodisa-larga mos ravishda fikrni aniq ifodalashi narsa mantiqiy-lik bo'lsa, so'z birikmalarining gaplarning, boshlanmalar (abzats)larning, hatto butun-butun matnlarning bir-biriga mosligi, fikrni izchil davom ettirishga bo'ysundirilishi tushuncha mantiqiylikdir.

Tushuncha mantiqiylik haqida aytilgan fikrdan xulosa qilinadigan bo'lsa, nutq mantiqiylikning asosiy lingvistik sharti — bu leksik-semantik va sintaktik normaga amal qilishdir.

Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi deganda eng avvalo, uning adabiy tilning lisoniy normasiga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi. Darhaqiqat, yaxshi, ideal nutq hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, turli til, g'ayriadabiy til unsurlaridan xoli bo'lishi kerak. Bu masalaning lisoniy tomoni bo'lib, nutqiy tozalikning nolingvistik jihatlari ham undan kam bo'lmagan ahamiyatga ega.

Xo'sh, nutqimizning toza bo'lishiga xalaqit berayotgan lisoniy unsurlar qaysilar? Bular asosan dialektizmlar va varvarizmlardir. To'g'ri, ular tilimizda ishlatilishi kerak, bu-siz bo'lmaydi. Chunki badiiy adabiyot

tilida dialektizm va varvarizmlar bilan ma'lum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning ma'lum g'oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Aytaylik, muallif milliy kaloritni bermoqchi yoki asar qahramonining qaeerlik ekanligiga ishora qilishida dialektizm va varvarizmlarga murojaat qilish hatto zarurdir. Masalan: Yoshulli saning qizing bunda gaeirilmagan. Ova, yoshulli. San, manglayi sara badkirdor, na sababdan mundoq yomon so'zlarni elga tarqatding. (Mirmuhsin.) Ushbu misolda dialektizmlar territorial koloritni berishga xizmat qilayotgani kabi quyidagi misolda varvarizmlar — chet so'zlar xarakter yaratishda yozuvchiga ko'maklashgan. Dubora yana bordi bir ishga shul, (So'kib — net,—dedi, kelma durrak, poshul! (Muqimiy.) Yoki H. H. Niyoziyning «Boy ila xizmatchi» dramasiidagi qozining nutqini olaylik. Uzining bilimsiz kishi ekanligini yashirish uchun ataylab arabcha-forscha so'zlarni ishlatishga intiladi: hozi, Ayni hikmat so'zlaysiz! (Hofirga.) Hozirgi inoding ayni qamog'at!

Lahjaviy so'zlarning badshgy adabiyotda o'rni bilan ishlatilishi faqatgina maqsadga muvofiq bo'lib qolmasdan, adabiy tilimizning boyib borishiga, umumxalq tilidagi ayrim unsurlarning saqlanib qolishiga xizmat qilishi ham mumkin. Misol: So'ri qichirladi. Quadrat bobo damsar urdi. Yuzini silab qo'yib, telpagini echdi... Yana:— Quadrat bobo kecha kechqu-run qaytish qildilar. Bugun tushdan keyin chiqaramiz! (N. Qo-bul.) Ammo bu o'rinda nutqning tozaligi va uning dialektizm, varvarizm kabi lug'aviy unsurlarga munosabati haqida gapirilayotganda ularni qo'llashdagi maqsadga muvofiqlik asosiy e'tiborga oliniyapti. Agar shu narsaga badiiy adabiyotda ehtiyoj sezilar ekan, ularni o'rni bilan, masalan personajlar nutqida ishlatish mumkin. Bu unsurlarga nutqning toza bo'lishiga xalal beruvchi unsurlar sifatida qaralayotganda esa ularning noo'rin qo'llanishi nazarda tutilyapti. Ayrim kishi-lar gapirish jarayonida o'z nutqini mutlaqo nazorat qilmaydilar. E'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik natijasida adabiy til normasi buziladi, shevachilikka yo'l qo'yiladi. Bu, ayniqsa, og'zaki nutqda yaqqol seziladi. Xuddi ana shu e'tiborsizlik tufayli ayrim o'rtoqlar tilida asossiz va o'rinsiz ravishda aslida arab, fors va boshqa tillarga tegishli so'zlar ishlatiladi. Agar mazkur tushunchani ifodalaydigan so'z o'zbek tilida bo'lmasa boshqa gap edi. Qolaversa, umuman deyish o'rniga voobie, xo'sh o'rniga tak deyish so'zlovchiga qanday engillik beradi?

Idoraviy atamalar (kantselyarizmlar) ham nutqning toza-ligiga doimo xavf solib turadi. To'g'ri, ulardan foydalanish zarur. Ular rasmiy ish qog'ozlari uslubida fikrni ifodalash uchun juda qulay. Ilmiy uslubda ham tayyor jumlar, shab-lon iboralardan foydalaniladi. Ammo bu kabi so'z va ibo-ralarni so'zlashuv va badiiy nutqda qo'llash nutqqa putur etkazishdan boshqa narsa emas. Bu haqda yozuvchi A. Qahhor «Quyushqon» asarida quyidagilarni yozadi: «...hozirgi vaqtda, tilimizning

boyligini, uning qochiriqlarini o'rganishga erin-gan, so'z san'atiga hunar deb emas, kasb deb qaraydigan, biso-tidagi bir hovuch so'zni yillar davomida aylantirib kun ko'rib yurgan bir turkum qalam ahlining «faoliyati», chala mulla ba'zi olimlarning «ilmiy xulosa»lari natijasida ajib bir til bunyodga kelgan. Bu tilda hech kim gapirmaydi, zotan, gapirish mumkin ham emas, faqat yozib o'qib berish mumkin. Bu tilda yozilgan narsani bir qiyomda o'qimasdan ham iloj yo'q. Bu tilning hech qaerga yozilmagan, lekin amalda joriy bo'lgan temir qonuniga ko'ra «yaxshi ovqat edim!» deb yozib bo'lmaydi, albatta «sifatli ovqatlandim» deb yozish shart. «Papiros che-kadigan kishi gugurtni olib yurishi kerak» deb yozish to'g'ri emas, «Papiros chekish odatiga ega bo'lgan kishi o'zini tegishli gugurt bilan ta'minlab yurishi kerak» deb yozilsa to'g'ri bo'ladi. Bu tilda latifa aytib bo'lmaydi, yozib bo'lmaydi! Bu tilda hazilga, maqolga, matalga, ajoyib xalq iboralariga o'rin yo'q. Bu til har qanaqa jonli fikrga kafan kiygizadi, har qanaqa o'ynoqi mazmunni taxtaga tortadi, har qanaqa lek-torni g'urbatning uyasiga, har qanaqa auditoriyani o'lik chiqqan xovliga aylantiradi.

...Bir talay jurnalistlar, redaktorlar, notiqalar, lektor-lar, agitatorlar singari bu odam ham mazkur tilni rasmiy, qaerdadir tasdiqlangan til deb bilar, bu tilda so'zlanadigan o'lik nutqqa jon kirgizgani qilinadigan har bir harakatni «quyushqondan tashqari chiqish» deb hisoblar ekan.

Nutqning tozaligi, uning keraksiz so'z va iboralardan holi bo'lishi so'zlovchi va tinglovchi uchun ham, yozuvchi va o'tsuvchi uchun ham suv va havodek zarurdir. Til vositalari vaziyat va sharoitga qarab ishlatilgan, hech qanday siyqa so'z va ibora-larsiz hosil qilingan nutqqina tabiiy va samimiy bo'ladi, tinglovchi va o'quvchining qalbiga borib etadi. Ulkan so'z ustasi Abdulla Qahhorning yuqorida aytgan fikrlari batamom mukammal bo'lib, uni boshqacha silib o'zgartishga hojat yo'qdir. Yozuvchi tildan foydalanishdagi tabiiylik shartlarini juda chuqur anglaydi. Uning «Nutq» hikoyasida tabiiylik va samimiyatdan holi bo'lgan nutqning badiiy obraz yaratish vosi-tasiga aylantirilishi buning isbotidir: «O'rtoq rafiqam! Ijizat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunali bajarib kelayotgani-mizga bir yil to'lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!» E'tibor bering: suhbatda o'nlab, yoki yuzlab kishi emas, ikki kishi — er va xotin ishtirok etyapti. Avval xotin bu gaplarni hazil deb o'ylaydi, «qiyqirib chapak chaladi». Ammo notiq jiddiy qiyofada so'zida davom etadi. «Birinchidan», «ikkin-chidan» deb oilada bir yil davomida yuz bergan yutuq-kamchi-liklarni rasmiy ravishda sanab o'tadi va nutqini quyidagicha yakunlaydi: «Lekin bu kamchiliklarga qaramay, turmushimizni a'lo darajada olib borayotganligimizga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas deb hisoblash mumkin. Shu bilan qisqacha so'zimni tamom qilib, oilamiz bundan keyin ham sharaflar bilan

qoplanajagiga to'la ishonch bildirishga ijozat be-ring!»

Notiq nutqini tugatgandan keyin yana asliga qaytadi. Xo-tini uning har bir so'zidan zavqlanadi, kuladi. Nima uchun notiq bir vaziyatda o'zini ikki xil tutyapti? Shuning uchunki, u garchi o'zini «keng eshituvchilar ommasiga mo'ljallangan no-tiq» deb hisoblasa ham, qaysi holatda, vaziyatda qanday ga-pirish kerakligini bilmaydi. Tilning amal qilish qonuniyat-larini nihoyatda sayoz tushunadi. Shuning uchun ham uning nutqi notabiiy va kulgilidir.

Parazit so'zlar deb ataluvchi lug'aviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular asosan so'zlashuv nutqida ko'p ishlatilib, notiqning o'z nutqini kuzatib bormasligi, e'tibor-sizligi natijasida paydo bo'ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. Masalan, ayrim kishilar o'zlari sezmagani holda de-myk, xo'sh kabi so'zlarni qaytaraverishga o'rganib qolganlar. «Bir dokladchining bir soatlik nutqida,— deb yozadi A. Ahmedov.—«o'rtoqlar» so'zi 101 marta, «ya'ni» so'zi 73 marta, «de-mak» so'zi 60 marta takrorlanganligining guvohi bo'lganmiz. qarang, bir soatlik nutqda 234 ta ortiqcha, «bekorchi» so'z ish-latilgan-a». Qo'pol (vulgar) so'zlarning ishlatilishi ham nutqimiz tozaligiga salbiy ta'sir qiladi. Og'zaki nutqda ba'zan uchrab qoladigan so'kinish, haqorat so'zlari jamiyatning axloq nor-malariga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan hodisadir. Ammo badiiy adabiyotda personajlarning kuchli hayajonini, g'azablanganli-gini ifoda etish maqsadida dag'al so'zlardan foydalaniladi. Masalan: qarg'ish uchun so'z topolmadi, G'azabini hech bosolma-di, G`Uynash» so'zini hadeb hijjalab, G` Oxir dedi «Fohisha...». (H. Olimjon). Imkon boricha badiiy adabiyotda ham dag'al so'z-larni ishlatishdan qochish kerak. Chunki, badiiy adabiyot ki-shilarga estetik ta'sir o'tkazish vositasi 65'lishi bilan birga tarbiya manbai ekanligini ham unutmazlik lozim.

Bu nolingvistik shart-sharoitlar qaysilar? Eng avvalo, notiqning mavzu atrofida etarli bilimga ega bo'lishi. Mavzuni yaxshi bilmagan notiqning ta'sirli nutq so'zlashi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e'tiborga olish ham muhimdir. Ya'ni, notiq tinglovchilarni hisobga olishi, kishilarning bilim darajasidan tortib, hatto yoshigacha, nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatigacha kuzatib qurishi, o'z nutqining tinglovchilar tomonidan qanday qabul qilinayotga-nini nazorat qilishi lozim bo'ladi. Professional bilimga ega bo'lgan kishilar oldida jo'n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo'lmagani kabi, oddiy, etarli darajadagi ma'lumotga ega bo'lmagan tinglovchilar oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilish kerak emas. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo'lgan fikrni to'lasicha tinglovchilarga etkazishga yarakat qilish vazifa

qilib qo'yiladi.

Xo'sh, ta'sirchan nutq deganda qanday nutqni tushunmoq kerak? Unga B. N. Golovin shunday ta'rif beradi: «Ta'sirchan nutq deb nutq qurilishining tinglovchi va o'quvchi e'tibori va qiziqishini qozonadigan xususiyatlariga aytiladi, o'z navbatida shu xususiyatlarga ega bo'lgan nutq ta'sirchan sana-ladi».

Omma tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish notiqalar oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan hisoblanadi. Buning uchun esa, yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan re-jasi bo'lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchiva ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab, tinglovchilarga avval nutts rejasini tanishtirib, gapni boshlash lozim. Vaqt-ni hisobga olish notiqlik fazilatlaridandir. Chunki so'zlash muddati oldin e'lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo'lsa, sal oldinroq tugatilsa, tinglovchilar zerikmaydi.

So'zlovchining o'z nutqiga munosabati ham muhimdir, chunki shunday bo'lgandagina quruq rasmiyatchilikdan qochish mumkin bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi aloqa yaxshi bo'ladi. Notiq fikrlarini o'zi yoki tinglovchilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir sub'ektiv fikr mulohazalarini bildirsa, nutq yana ham ishonarli va ta'sirli chiqadi.

6-mavzu. Nutq madaniyatini takomillashtirishda pedagogning vazifalari.

Reja

1. Bolada nutq madaniyatini tarbiyalash.
2. O'qituvchining axloqiy fazilatlari.
3. O'qituvchi va ota-onalarning va vazifasi.
4. Ma'ruzalarda nutq madaniyati.

Adabiyotlar.

1. Begmatov E., Boboeva A, Asomiddinova M, Umarqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. Toshkent. 1988.
2. Begmatov E. va b. "Adabiy norma va nutq madaniyati". T. Fan. 1983.
3. Imomxo'jaev M. "Notiqning nodir boyligi". T.
4. Xo'jaeva N. Notqlik san'ati. T. 1967.
5. O'rinboev, Samiev A. "Notqlik mahorati". T. O'qituvchi, 1984.

Pedagogik axloqning paydo bo'lishi insoniyat tarixining eng qadim zamonlariga borib taqaladi. U o'qituvchilik kasbi bilan birga tarbiyachilik faoliyatining tarkibiy qismi sifatida vujudga kelgan. Ma'lumki, umumiy ta'lim maktablarida, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi mutaxassisni o'qituvchi, muallim, pedagog, ustoz, mudarris, domla deb yuritiladi. O'qituvchilik eng qadimiy kasblardan hisoblanadi. O'qituvchilik kasbining, u bilan birga pedagogik axloqning vujudga kelishi ham kishilik jamiyati tarixida tarbiyaning paydo bo'lishi, ya'ni insonlar to'plagan yurish-turish, xatti-harakatlar, mehnat sohasidagi dastlabki tajribalarni, urf-odatlarini, ahyaiy, axloqiy, ilohiy bilimlarni yoshlarga o'rgatish; yozuv ixtiro qilingach, o'qish, yozishni o'rgatish uchun tashkil etilgan dastlabki maktablarning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq.

Odamlar to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish, ularni hayotga, mehnat faoliyatiga tayyorlash ehtiyoji natijasida qadim zamonlardayoq ta'lim va tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'ldi.

Mashhur chex pedagogi Yan Amos Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida ko'rsatishicha, qadim zamonlarda ota-onalar, odatda, o'z bolalarini oilada o'zlari tarbiyalaganlar. Lekin ota-onalar har xil bo'ladi: bolaga ta'lim, tarbiya berish bir xilining qo'lidan kelsa, bir xilining qo'lidan kelmaydi; bola tarbiyasi uchun ba'zilarining vaqti bo'lsa,

ba'zilarining vaqti bo'lmaydi. Shu sababdan, ko'p oilalar o'z bolalarini bilimli, og'ir tabiatli maxsus kishilarga berib o'qitganlar. Yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi bunday kishilarni pedagog, professor deb, bolalarni ty'plab o'qitiladigan joyni — maktab, gimnaziya, akademiya, universitet deb ataganlar. Uning fikricha, eng qadimgi maktablar Sharq mamlakatlarida, jumladan, Xoldey, Vavilon, Misrda, Isroil shaharlarida ochilgan. Maktab ochishni misrliklardan greklar, greklardan rimliklar o'rganib olganlar).

Bizning ota-bobolarimiz — turkiy xalqlar qadim zamonlardan beri O'rta Osiyoda — Turon zaminda yashab keladilar. Boysun tog'igidagi Teshiktosh g'oridan, Farg'ona vodiysidagi Selung'ur g'oridan topilgan yodgorliklar (odamning suyak qoldiqdari) bu erlarda eng qadimgi odamlar bundan yuz ming yil va bir million yillar avval yashaganidan dalolat beradi. O'rta Osiyoda eramizdan avvalgi ming yillikda ham katta-katta qo'rg'onlar, shaharlar, davlatlar mavjud bo'lgan. Ularda madaniyat elementlari, din, yozuv, maktablar vujudga kelgan. Surxondaryo viloyatts Sherobod tumanidagi Zarautsoy g'orida saqlangan suratlar ham bundan dalolat beradi.

Turkiy xalqlar qadim zamonlardayoq o'z yozuviga ega bo'lgan. Ota-bobolarimiz o'tmishda uyg'ur, runik yozuvlaridan, shuningdek, sug'd, xorazm yozuvlaridan foydalanishgan. Arablar istilosidan sg'ng arab alifbosi qabul qilingan. Arab yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga ming yil-dan ko'proq muddatda amal qilindi. O'zbekistonda 1929 yilda lotin, 1939 yidda rus alifbosiga o'tildi. 1993 yidda O'zbekiston Respublikasi lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga o'tish haqida qaror chiqardi.

Qadimgi Turon zaminda yashagan xalqlar sug'orma dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Odamlar tabiat hodisalarini kuzatib borganlar, olam sirlari haqida payg'ambarlarga hayb ilmi ham kelib turgan. Ayrim kishilar karomat ko'rsatib, bo'lajak voqealarni oldindan aytib bilganlar. Dunyoviy ilmlardan astronomiya, geometriya, arifmetika, tibbiyot taraqqiy etgan. Saroylar, ibodatxonalar huzurida ochilgan maktablarda yoshlarga diniy va dunyoviy ilmlar o'rgatilgan. Mirzalar, hozilar, hakamlar kabi davlat xizmatchilari tayyorlaydigan maktablar ham bo'lgan. Sharq mamlakatlaridagi maktablarda xat-savod o'rgatish murakkab, og'ir ish hisoblangan. Ilm olish — nina bilan quduq qazish, deb bejiz aytilmagan. Mutaфakkir olimlar o'qitishning engilroq usullarini topish ustida bosh qotirganlar. Sharq mamlakatlarida qadimda yaratilgan ayrim qo'lyozma asarlarda tarbiyaning maqsadi, o'qituvchi qanday bo'lishi haqida, shuningdek, ilm oluvchining ma'naviy qiyofasi, xislatlari to'g'risida fikr-mulohazalar bayon etilgan, maslahatlar berilgan.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida maktablarda qattiq intizom o'rnatilgan, jismoniy jazoga yo'l qo'yilgan. Ota o'g'lini maktabga

berayotganida domlaga: «Bolaning eti sizniki, suyagi meniki», degan hikmat bekorga aytilmagan. Ko'pchilik hunarmand, kosib, dehqon, chorvadorlarning bolalari oilada turmush, mehnat jarayonida tarbiya olganlar, kasb-hunarni egallaganlar.

Axloqiy pand-nasihatlarining ijodkori ham, asrlar davomida yoshlarni kamolot sari etaklab, ularga hayot ilmini, turmush saboqlarini o'rgatib kelgan ustoz ham xalqdir. Er yuzidagi barcha xalqlar singari turkiy qavmlar qadim zamonlardayoq hayotiy ehtiyoj taqozosi bilan o'z bolalarini sog'lom, baquvvat, mehnatsevar, katta-kichiklarni izzat-hurmat qiladigan, xushaxloq, botir, vatanni himoya qila oladigan kishilar bo'lib ulg'ayishlarini orzu qilganlar. Tarbiya sohasida to'plagan tajribalarini, orzu-istaklarini umumlashtirib maqol, topishmoq, ertak, rivoyat, hikoyat, doston, urf-odat, marosimlar, bayramlar, an'ana kabilar shaklida ifodalab yoshlarga, oila a'zolariga va boshqalarga o'rgatganlar. Shu tariqa o'zbek xalq pedagogikasi vujudga kelgan. Unda ijobiy axloqiy sifatlar, fazilatlar ulug'lanadi, salbiy xislatlar esa qoralanadi.

Ota-onalar o'z bolalarini aqlli, odobli, go'zal fazilatli inson bo'lib kamol topishini orzu qilishgan. Bunday orzu-istaklar Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» asarida quyidagicha tasvirlanadi:

Aql yo'l ko'rsatib, dilni etar shod,
Har ikki olamda aqlli obod.
Hamisha aqlingni rahnamo etgil,
Noloyiq, ishlardan olisroq ketgil.

O'zbek xalq pedagogikasida ota-onaning ibrat ko'rsatish masalasi keng tadqiq qilingan. «Bolalarga go'zal tarbiya berish uchun ota-onalarning o'zlari go'zal axloqli, tarbiyali bo'lishlari shartdir... Agar otalar o'z umr yo'ldoshlari bilan go'zal ravishda umr kechirsalar, ularni hurmatlasalar, bolalar ulardan olijanoblik va xushmuomalalik odobini o'yranganadi».

O'zbek xalq pedagogikasida qo'llanib kelingan tarbiya usullari yoshlarga o'yzaro izzat-hurmatli bo'lish, qadr-qimmatni anglash; samimiy, iltifotli, halol, haqiqatgo'y, mard, jasur, mehribonlik kabi insoniy fazilatlarni singdirishga xizmat qilgan. Bolani elga manzur, odobli farzand qilib tarbiyalash ota-onaning burchi qisoblangan. O'zbek xalqi yaratgan maqol, naql, afsona, rivoyat, hikoyalarda ma'naviy-axloqiy ideallar, qiziqarli o'gitlar shaklida bayon etilgan. «hurmat qilsang, hurmat ko'rasan», «har kim ekanini o'radi», «Bola aziz, odobi undan aziz» kabi maqollar shular jumlasidandir.

Hikoyat. Naql qilishlaricha, podsho o'z a'yonlari bilan ovdan qaytayotganida yo'lda kelayotgan bir bolani ko'rib qoladi. Otidan tushib, bolaga salom beradi. Vazir bundan taajjublanib, «Shohim, nega bunday

qildingiz?» — deganda u: «Bu ustozimning nabirasi. Ustozga hurmatim tufayli unga salom berdim» — degan ekan. Bu naqlda xalqimizning ustozga, muallimga bo'lgan hurmat-ehtiromi ifo-dalangan. «Har kimki hayotdan olmasa ta'lim, unga o'rgatolmas hech bir muallim», «hayot ustoz, xalq—muallim» kabi qikmatlar juda o'rinli aytilgan.

Zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi — «Avesto» da Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining diniy, axlo-qiy, tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Bu ta'limotning asoschisi Spitama Zaradushtra eramizdan oldingi oltinchi asrda yashagan. Ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, zardushtiylik dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadigan xalqlar dini bo'lib, Xorazm va So'g'diyonada shakllangan, keyinchalik Eron podsholigining rasmiy diniga aylangan. O'sha davrlarda otashparastlik Eronu Turon zaminda keng yoyilgan. Ettinchi asrga kelib O'rta Osiyo arablar tomonidan fath etiladi va, zardushtiylikning ta'siri ancha kamayadi.

«Avesto»ning pedagogik qimmatini shundaki, u ko'p asrlar davomida yoshlarga ilmu ma'rifatni o'rgatish, axloq-odob fazilatlarini tarbiyalashda dasturulamal vazifasini bajargan. «har bir kishini shunday tarbiyalash zarurki, — deyiladi «Avesto»da, — u avvalo yaxshi o'qishni va so'ngra yozishni o'rganib, eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin».

Bolalarga beriladigan ta'lim va tarbiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: diniy va axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, o'qish va yozishga o'rgatish. Bu ta'limotga ko'ra diniy tarbiya berish etti yoshdan boshlangan. O'g'il bolalar etti yoshga etganda, ularga maxsus «muqaddas ko'ylak» kiydirilgan va ular muallim bilan yonma-yon quyoshga qarab turishgan, muallimga qo'shilib «Avesto»dan ezgulik va yaxshilik ma'budasiga madadkor kuchlarni ulug'lovchi duolarni aytishgan: «Men zardushtiylik diniga sodiq bo'lishga va'da beraman, men yaxshi fikrlar, yaxshi so'zlar, yaxshi ishlarga ishonaman.»² Bunday mashg'ulotlar bir kunda besh marta takrorlangan. Undan maqsad bolalar qalbida dunyodagi barcha yaxshilik va ezguliklarning bunyodkori ilohiy Axura Mazdaga e'tiqodni mustahkamlash; insonlar boshiga yovuzlik va yomonliklar olib keladigan Anxura Manudan esa nafratlanish hissini tarbiyalashdan iborat bo'lgan.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra yaxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasida murosasiz kurash abadiy davom etadi. Yaxshilik kuchlariga Axura Mazda, yomonlik kuchlariga Anxura Manu boshchilik qiladi. Insonning hayoti, baxti yoki baxtsizligi ana shu kurashning natijasiga bog'liq. Odam yaxshilikka intilishi lozim, aks holda u yomonlik qopqoniga ilinib, abadul-abad azob-uqubatlarga muhtalo bo'ladi. Zardushtiylik ta'limotida odoblilik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, saxovatlilik fazilatlarini tarbiyalashga katta ahamiyat berilgan.

Bu davrda ulamo-kohinlar bolalarga saboq berganlar. Ular jamiyat

ma'naviy hayotida muhim mavqega ega edilar. Maktabda kichik yoshdagi bolalarni o'qitish jarayonida ko'rsatmali qurollardan, hikoya qilish va suhbat usullaridan keng foydalanilardi. Darsda o'quvchilardan o'tilgan mavzuni shovqinsiz takrorlash talab qilinardi. Bolalarda yoshlikdan mehnatsevarlik va kasb-hunar ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor berilgan. Ular yosh paytidanoq ko'chat o'tqizish, uy-ro'zg'or buyumlari yasash, erga ishlov berish, mol boqishga o'rgatilgan.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra bola o'n besh yoshlarida balog'atga etadi. Uni zardusht qonunlariga ko'ra niyati, so'zi, ishi ezgu bo'lishga e'tibor berishgan. Jismoniy salomatlik, ma'naviy soflik haqida g'amxo'rlik qilish, tozalikka rioya qilish talab etilgan. Zardushtiylik ta'limotida hayvonlarni kaltaklash, qiynash gunoh hisoblanadi.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra yaxshi niyat, latif so'z, ezgu ishning birligi deyilganda — faqirlarga mehribonlik, musofirparvarlik, kishiga isnod keltiradigan ishlardan o'zini tiyish nazarda tutilgan. Shuningdek, insoniy burch faqat axloqiy yo'l-yo'riqlarni o'zlashtirishdangina iborat bo'lib qolmay, balki yaxshi oila va yaxshi farzand o'stirish to'g'risida ham o'ylashni nazarda tutadi. Bu kitobda, turmush yaxshilanishi bilan xalqning «ual-axloq-odobi ham yaxshilanadi, ilohiy so'zlar yaxshir idrok etiladi, deyilgan.

Eramizdan oldingi oltinchi asrdan milodiy beshinchi asrgacha o'tgan davrda Yunonistondagi quldorlik davlatlari va Rim imperiyasida bir qadar demokratik tartiblar, respublika boshqaruvi o'rnatildi. Bu erda o'ziga xos ta'lim-tarbiya tizimlari va pedagogik ta'limotlar yaratildi. Yunonistonlik olimlar — Demokrit, Suqrot, Aflotun, Arastu, shuningdek mashhur Rim pedagogi Kvin-tilianlar o'z asarlarida ta'lim-tarbiya, o'qituvchi axloqiga doir pedagogik nazariyalar yaratdilar.

Masalan, Demokrit tarbiyaning tabiatga mosligi g'oyasini o'rta qo'ygan. O'qitish jarayonida bolalarning qiziquvchanligini hisobga olish zarurligini uqtirgan. Ta'limning kishi tabiatini o'zgartiruvchi qudratli kuch ekanligini, o'qitishda majburlash usulidan ko'ra, ishontirish usulidan foydalanish afzalligini; salbiy namunalarning zarurligini ta'kidlagan edi. U tarbiyada mehnatning roli muhimligini ko'rsatib, pedagoglar, ota-onalar bolada yaxshi xulq hosil qilish uchun ularga foydali xatti-harakatlarni ko'proq mashq qildirishlari lozim, degan edi.

Aflotun bola tarbiyachiga itoat qilishi zarurligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. U bolani muttasil nazorat qilib borish; uning yaxshi xulqi, itoatkorligini rag'batlantirish, itoatsizlik qilsa—qo'rqitish va urib bo'lsa ham to'g'ri yo'lga solish lozimligini ta'kidlaydi. «Agar pedagog yoki ota-ona, — degan edi u — bolaga: mana bu — adolatli, bu esa — adolatsiz, bu ishni qilish yaxshi, bu esa — uyat, bu narsa — muqaddas, bu esa — nopoklik; bu ishni qilish kerak, buni qilmaslik lozim, deb aytmasa va tushuntirib bermasa bolani tarbiyalay olmaydi».

Rim pedagoglaridan eng mashhuri — Mark, Fabiy, Kvintilian «Notiqni tarbiyalash to'g'risida» nomli asarida pedagogik muammolarni, o'qituvchi odobiga doir masalalarni bayon etadi. Kvintilian o'z zamonidagi Grek va Rim pedagogik g'oyalarini yaxshi o'rganib, notiqlar maktabida ko'p yillar o'qituvchilik qilib orttirgan tajri-basini umumlashtiradi. Uning fikricha, bola maktabda ta'lim-tarbiya olishi lozim. O'qituvchi o'zi tarbiyalayotgan har bir bolaga ehtiyotkorlik bilan muomala qilishi kerak. O'qituvchining o'zi o'qimishli bo'lishi, bolalarni sevishi, o'zini yaxshi tuta bilishi, bolalarni bo'lar-bo'lmasga maqtayvermasligi yoki jazolayvermasligi darkor.

Islom ta'limoti o'tmishda yaratilgan barcha ilohiy ilmlarni, insoniy tajriba va fazilatlarni umuminsoniy qadriyat sifatida o'zida jamladi. Qur'oni Karim va hadislarda bayon etilgan axloqiy g'oyalar insoniyat madaniyati xazinasiga qo'shilgan ulkan hissa ekanligi jahon miqyosida allaqachon tan olingan.

Qur'on — falsafiy, huquqiy bilimlar majmuigina bo'lib qolmay, kishilar-ni halollik, poklik, axloq-odob, insofdiyonatga da'vat etuvchi muqaddas kitob sifatida qadrlidir. Qur'on suralarida ezgulikka, halollikka, poklikka da'vat etiladi. Bunga amal qilganlarga jannat huzur-halovati va'da qilinadi. Yovuzlik qilganlar uchun do'zax azobi muqarrarligi eslatiladi.

Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o'z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq normalari, talablari, mezonlarini belgilaydi.

O'qituvchi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar o'qituvchining p'z axloqiy fazilatiga, e'tiqodiga aylanadi. Bular muallimning du-nyoqarashi, fikr va mulohazalari bilan qo'shilib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o'rni va rolini belgilaydi.

O'qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e'tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e'tiqod va sifatlar o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, o'quvchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala, munosa-batlarida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir yetkazishida k'yzga tashlanadi. Pedagogik takt y'ituvchi axloq'ining amaliy ko'rinishlaridan biridir. Muallim xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuklarida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar, tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan

bog'liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, mil-liy g'urur, baynalmilalchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar o'qituvchi odobida pedagoglik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchi, o'qituvchilik sha'ni, qadr-qimmat, o'qituvchilik mas'uliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchan, va adolatli bo'lish, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi, halolligi, pokligi, rostgo'yligi kabilar o'qituvchi axloqining muxim fazilatlarini hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuminsoniy axloqiy qadriyatlar orasida yaxshilik qilish fazilati muhim o'rin egallaydi. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi yodgorligi — «Avesto»da ezgu fikr, yaxshi so'z va yaxshi ishlar insoniy fazilatlar sifatida ulug'lanadi. Islom ta'limotida boshqalarga yaxshilik qilish insonning tabiiy ehtiyoji bo'lishi kerakligi tushuntiriladi, ayniqsa, otanaga, ayollar, yosh bolalarga yaxshilik qilish juda qadrlanadi.

Ota-bobolarimiz doimo yaxshi niyat, yaxshi orzu-istaklar bilan yashaganlar. O'zlaridan yaxshi nom qoldirishga intilganlar. «Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshirdim.

Kishilarning fe'l-atvori, yurish-turishi, xatti-harakati, gap-so'zi ularning xulqiga bog'liq. Yaxshi xulq egasi bo'lgan kishi odamlarga yaxshilik qila oladi. Abdulla Avloniy yaxshi xulklar qatoriga: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymoq, xaqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqdusod, viqor, itoat, xaqshunoslik, xayrixohik, munislik, sadoqat, muhabbat, avf kabilarni kiritadi. «Endi bu yaxshi xulkdarni qo'lga olmoq uchun ota-ona, muallim, ustodlarimiz hazratlarining hikmatli nasihatlarini jon qulog'i birla tinglab, doim xotirada tutmoq, axloqi yaxshi kishilar birla ulfat bo'lmoq, axloqi buzuk, yomon kishilardan qochmoq lozimdur».

Yaxshilik — ijobiy axloqiy fazilat bo'lib, xulqiy sifatlarning majmuini, inson faoliyati yoki biror xatti-harakatiga ijobiy munosabatning yig'indisini aks ettiradi. Yaxshilik — kishining axloqiy ongi va axloqiy tajribasida jamiyat va shaxs manfaatlarining birligi-ni aks ettirib, shaxsga va jamiyatga manfaat keltiradigan ijtimoiy taraqqiyotga mos keladigan fazilatdir.

O'qituvchi odobida yaxshilik fazilatiga pedagogik faoliyat bilan bog'liq holda, o'qituvchining yaxshiligi shaklida aniqlik kiritiladi.

Unda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi manfaatlarining birligi, muallim va o'quvchi maqsadining birligi, ta'lim va tarbiyaning samarasi uchun kurashning birligi aks etadi. Yaxshilik fazilati muallimning ham, o'quvchilarning ham, ota-onalarining ham yaxshi niyatli, xayrixoh, mehribon bo'lishini taqozo qiladi. Yaxshilik qaror topishi uchun

pedagogik jarayonda yomonlikka murosasiz b'ylish, yaxshi istak bilan xushmuomala qilish, yaxshi qiliq, yaxshi xatti-harakatlarning birligi zarur.

Umuminsoniy va milliy axloqda burch tushunchasi har bir kishining o'z vazifasini to'liq bajarishi, boshqalarga to'g'ri munosabatda bo'lishini ifodalaydi. Burchda shaxsning jamiyatga bo'lgan munosabati namoyon bo'ladi. O'z burchiga sodiqlik xar bir kishiga obro', shon-sharaf keltiradi. Kishining o'z burchiga sodikdigi jamiyatga, Vatanga, mehnatga, oilaga, farzandlariga bo'lgan munosabatida bilinadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning huquqlari bilan bir qatorda burchlari ham belgilangan. qonunlarga rioya etish, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish; O'zbekiston xalqining tarixiy, madaniy va ma'naviy merosini avaylab asrash; atrof-tabiiy muhitga extiyotkorona munosabatda bo'lish kabilar har bir fuqaroning burchidir. Burchga sodiklik har bir kishining odobi, axloqini ko'rsatadi. Katta yoshdagi kishilarni hurmatlash yoshlarning burchidir.

Ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash o'qituvchining axloqiy fazilati hisoblanadi. Muallim bolalarga o'rgatadigan g'oyalar uning qalbidan joy olib, dunyoqara-shining asosi bo'lishi zarur. Har bir ishda, har bir masalada muallim o'z burchiga sodiq bo'lishi zarur. Muallimning mafkurasi fuqarolik ruhi bilan sug'orilgan bo'lsa, ijtimoiy burchni vijdonan his qilishga, intizomlilik, o'z xatti-harakatlarini nazorat qila bilish, kamtarlik, insonparvarlik, o'z qadr-qimmatini to'g'ri baholay olishga imkon beradi.

Shaxs axloqini tavsiflaydigan belgilardan biri mas'uliyatdir. Boshqa kishilar oldidagi o'z burchini anglash va uni kishi xulqining omiliga aylantirish, odam o'z faoliyatini boshqalarga ko'proq yaxshilik qilishga ongli va ixtiyoriy ravishda yo'naltirishi mas'uliyat tushunchasining mazmunini tashkil etadi.

O'qituvchining mas'uliyati — mas'uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimnyng faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi zimmasiga bola shaxsini barka-mol inson sifatida tarbiyalash mas'uliyati yuklanadi. Muallim o'quvchilarga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni xayotga, mehnatga tayorlashi darkor. Shu bilan birga u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, unda mavjud bo'lgan ijobiy axloqiy fazilatlarni avaylab o'stirishi lozim.

Muallim sinfda jamiyatning, xalqning, davlatning vakili sifatida o'quvchilar jamoasi bilan yolg'iz o'zi ish olib boradi. Bunday sharoitda o'qituvchining mas'uliyati uning xulqini tarbiyaga solib turadigan, boshqaradigan kuch, o'quvchilarga ta'sir o'tkazish darajasining asosiy mezonini hisoblanadi. Jamiyatning kelajagi, ota-onaning umidi, nuri

diydasi — farzandining taqdiri, kelajagi uning qo'liga ishonib topshirilgan. Muallim o'quvchilar-ning bilimiga baho qo'yadi, baho esa jamiyatning, kattalarning, ota-onaning bolaga munosabatini belgilovchi mezon, omillardan biridir. Yaxshilik, adolat, sha'n, qadr-qimmat, insoniylik kabilarning mavjudligiga bolada ishonchni vujudga keltirish ham o'qituvchining mas'uliyatiga bog'liq. Shunisi ham borki, buni ko'pincha nazorat qilib ham bo'lmaydi. Bu muallimning vijdoniga havola qilinadi.

O'qituvchilik qilayotgan yoki muallimlik kasbini tanlagan kishilar o'z zimmlariga qanchalik yuksak, sharaflı mas'uliyat olayotganliklarini tasavvur etishlari lozim. Oliy yoki o'rta maxsus pedagogika o'quv yuritini bitirib, muallimlik faoliyatini boshlagan kishi barcha o'quvchilarga o'zini yaqin tutishi, odobi, odilligi bilan bolalarga ijobiy-axloqiy namuna ko'rsatishi zarurligini yoddan chiqarmasligi kerak.

Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala-munosabatlar katga o'rin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat asrlar davomida to'plagan bilimlarni, axloqiy tajribani egallab oladi. Muallim pedagogik jarayonda asosiy figura, etakchi kishidir. Unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o'qituvchiga, uning axloqiy sifatlariga, xulqiga o'quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo'yiladi.

Afsuski, hamma muallimlar haqida ham shunday deb bo'lmaydi. O'zining dag'al muomalasi bilan bolaning ko'nglini o'qishdan sovitib, dilini o'rinsiz ranjitadiganlar ham uchrab turadi. Pedagogik amaliyot, badiiy adabiyotda bunga misol bo'ladigan dalillar ko'p. Bundaylar yoshlar tarbiyasiga, ularning axloqiga salbiy ta'sir etadilar. Tarbiyaviy ishlarga tuzatish qiyin bo'lgan darajada ziyon etkazadilar.

Barkamol, ijodkor shaxsni shakllantirishga, tarbiyalashga doir axloqiy normalar pedagogik etikada ifodalangan. Tarbiyalanuvchiga ijobiy ta'sir o'tkazish shartlaridan biri bolaga bo'lgan ishonch bilan unga nisbatan qo'yilayotgan talablarning birligidadir. Bu qonuniyat pedagogik amaliyotda ko'p marta sinovdan o'tgan va o'zini oqlagan. Muallimlar, talabalar bilan o'tkazilgan suhbat natijalari shundan dalolat beradiki, maktabda xushmuomala o'qituvchilar bilan bir qatorda bolalarga huda-behudaga do'q urib, baqirib muomala qiladigan muallimlar ham uchraydi. Bunday muomala jamiyatda qabul qilingan umuminsoniy va milliy-axloqiy normalarga to'g'ri kelmaydi. Bunday o'qituvchilar bolalar orasida obro' orttira olmaydilar.

Pedagogik jarayon, tarbiya jarayoni, odamlarning tabiati shu darajada murakkabki, muallim ba'zan istasa-istamasa qo'pollik qilishga «majbur» bo'ladi, o'quvchi muallimning o'rinli talablarini bajarmayotgan paytlarida u o'zini tutolmay qoladi. Muallim o'z talablarini, hatto

qo'pollik holatini ham, bolaga yaxshilik qilyapman deb hisoblaydi, chunki bu ishni bolaga bilim berish, uni to'g'ri yo'lga solish, yaxshi odam qilib tarbiyalash uchun qilayotganiga ishonadi. Sa'diy Sheroziyning «Guliston» (Tosh-kent, 1968) asarining «Tarbiyaning ta'siri bayoni» bobidagi hikoyatlarda, Alisher Navoiyning «Mahbub ulqulub» asaridagi «Mudarrislar to'g'risida», «Maktabdorlar to'g'risida»gi maqolalarida bildirilgan mulohazalar bu fikrimizga hamohangdir.

Bunday holatlar ko'pincha tarbiyasi qiyin bola bilan muomalamunosabatlar jarayonida sodir bo'ladi. Shuni ham unutmaslik lozimki, bunday bola odatda, nosog'lom oila-dan chiqadi. Bola oiladagi yomon muhitning qurboni bo'lishi ham mumkin. Tajribali pedagoglar tarbiyasi qiyin bola bilan ishlash, muomala qilish murakkabligini, shu bilan birga ular insoniy mehrga zor, xushmuomalaga, e'tiborga muhtoj ekanligini, bundaylarga nisbatan bardoshli, sabr-toqatli, kechirimli bo'lish zarurligini ham ta'kidlaydilar.

Jismoniy jarohat olgan bolani o'qituvchi jazolamas-ligini hamma biladi. Jismoniy tarbiya muallimi oyog'i jarohatlangan boladan yugurish musobaqasida qatnashish-ni talab etmaydi. Bola ba'zan qalbi, ruhi jarohatlangan holda maktabga kelishi mumkin. Ta'lim jarayonida buni hamma o'qituvchilar e'tiborga oladimi? Afsuski yo'q. Bola javob berishni xohlamayapti, dars tayyorlashni istamagan, deb hisoblab hamma o'quvchilarga bir xil talab qo'yish, bir xil muomala qilish hollari ko'plab uchraydi. Ba'zan boladan hatto u bajara olmaydigan ishlar ham talab etiladi. Ayrim o'quvchilar bolaning oilasidagi, ota-onasi-dagi nuqsonlari uchun ham uni ayblashga urinadilar.

Muallimning biror tasodifiy xatti-harakati natijasida o'quvchilarda u haqda sodir bo'lgan fikr ham ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir etishi, muallimning ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi va o'qituvchi foydasiga «hal» etiladi. Muallimning obro'sini saqlayman deb, kattalar ba'zan bolaning qadr-qimmatini erga uradilar, o'quvchidan kechirim so'rashni talab etadilar, vaholanki bu nizoga o'qituvchining noto'g'ri xatti-harakati sabab bo'lgan. Muallimlarning bu ishi axloqiy tarbiya talablariga to'g'ri kelmaydi!

O'qituvchi bolaning imkoniyatlarini, qobiliyatini hisobga olgan taqdirdagina undagi kamchiliklarni bartaraf eta oladi, uning pedagogik talablarini bola bajarishi mumkin. Muallimning talablari bolaning imkoniyat darajasidan past bo'lsa, undagi qobiliyatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi; agar muallimning talablari bolaning qobiliyati va imkoniyatlaridan ortiq bo'lsa, bolada o'z kuchiga ishonmaslik, ishdan o'zini chetga olish his-tuyg'usini paydo qiladi. Muallimning qattiq-qo'lligi va talabchanligi axloqiy tarbiyaning boshqa vo-sitalari bilan birga olib borilishi kerak.

Muallim bilan o'quvchi o'rtasidagi muomalani tartibga soluvchi talablardan biri bolaning xulqini, muomalasini, bola bajargan ishni odilona, to'g'ri baholashdir. Bolaning xulqi, muomalasi ko'pincha u qilgan biror ish bilan tenglashtiriladi. Lekin xatti-harakat axloqiy muomalaning bir qismidir, xolos. Xulqi, muomalasida esa bolaning biror kishi yoki narsaga munosabati ham ifodalanadi. Bolaning xulqi, muomalasi axloqiy jihatdan baholanishi mumkin. Bolaning qilig'i deganda uning xatti-harakatiga berilgan baho ham nazarda tutiladi. «Karim yaxshi ish qilmadi. O'ktam ishni qoyil qildi» degan iboralar ko'p ishlatiladi.

Muomala o'z mohiyati va tuzilishiga ko'ra murakkab axloqiy hodisadir. Unda kishining axloqiy ongi (motiv, istak, unga erishish y'lini tanlash), axloqiy faoliyat (xatti-harakat), axloqiy munosabat (baholash) va kishining unga munosabati namoyon bo'ladi. Shaxsning niyati (mayli) zamirida uni u yoki bu maqsadga undovchi manfa-atlar mavjuddir. Manfaatlar ijtimoiy va shaxsiy him-matga ega bo'lib, ma'lum bir-ehtiyojlardan hosil bo'ladi. Insonning maqsadi doimo asoslangan bo'ladi. Sabab (vaj) muomala odobining, xatti-harakatning, qiliqning bir qismi bo'lib, biror harakatni bajarishga uning yaxshi yoki yomon ekanligini baholashga asoslanadi.

Bolalar hayotida, ayniqsa kichik yoshdagi bolalar faoliyatida va xulqida hissiyotning ta'siri kuchli bo'ladi. Ular hali o'z xatti-harakatlarining motivlarini to'la anglab etmaydilar. Katta yoshdagi o'quvchilarning xulqida ham vaj-sabablar hamma vaqt ijobiy xatti-harakatlarga olib kelavermaydi. Bolalarning xulqini baholashda xatti-harakatlarning natijasiga qarab xulosa chiqarish lozim. Muallym o'quvchining o'z xatti-harakatlariga, xulqiga shaxsning munosabatini ham e'tiborga olish kerak. O'qituvchi bolaning xulqini, xatti-harakatini ob'ektiv baholash uchun bolani bu ishga nima da'vat etganini, nimalar sabab bo'lganini ham aniqlashi lozim. Shundagina axloqiy baho tarbiyaviy qimmatga ega bo'ladi.

Bola harakat qiladigan hayotiy vaziyatlarni, kutilma-gan holatlarni oldindan aniqlash juda qiyin. Bolalarni xatolardan mutlaqo saqlab qolish ham muammo. Muallimning vazifasi o'quvchiga o'z xatti-harakatlarining natijasini ko'z oldiga keltira bilishni va o'z xulqi uchun mas'ul ekanligini tushuntirish, anglatishdan iborat. Bu muallimning dam olish paytlarida ham, o'qishdan tashqari vaqtlarda ham o'quvchilar bilan o'zaro muomala odobida ma'lum axloqiy normalarga rioya qilishni talab etadi.

Pedagogik faoliyatda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomalaning muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Sinfdan tashqari ishlar o'z xususiyatiga ko'ra darsdan keskin farq qiladi. Bu ishlar dars singari qat'iy tartibga tushirilmagani uchun ham muallim va o'quvchilardan o'zaro nazoratni kuchaytirishni, halollik va

vijdonlilikni, xolislikni, axloqiy mas'uliyatni ko'proq talab etadi. Shanbaliklar, safarlar, ekskursiyalar, kino-teatrlarga birga borish muallim bilan o'quvchilarning muomala odobiga ko'proq bog'liq bo'ladi.

Maktabda ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligi faqat o'qituvchining tayyorgarligi, ma'naviy qiyofasi va o'z vazifasini qanday bajarishigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, balki bola yashaydigan muhit va oilaning ta'siriga ham bog'liqdir. Oila bolani axloqiy tarbiyalash, uning ma'naviy-axloqiy yo'nalishlarini shakllantirish-ning muhim omilidir. Oila bola tarbiya oladigan eng birinchi jamoa bo'lib, bola unda axloqiy qoidalar, urf-odatlarini bilib oladi, dastlabki axloqiy tajriba orttiradi.

Har bir inson yoshlikda ona qo'lida tarbiyalanadi. Ona allasi bilan birga bola qalbiga ona muhabbati singady va onaning erkalatishlari bir umr yodda qoladi, oilada bola yaxshi bilan yomonning farqini ajratishni o'rganadi. Oila tarbiyasi orqali bola ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yashashdan maqsad haqida dastlabki tasavvurlar hosil bo'ladi. Oilada shaxsning ijtimoiy-qimmatli fazilatlari o'sa boshlaydi.

Bola maktabga qadam qo'yganda yaxshi va yomon narsalar haqida o'z tasavvuriga ega bo'ladi. O'qituvchi bolada qanday axloqiy tushunchalar mavjudligini va bu tushunchalar, axloqiy fazilatlar qanday sharoitda shakllanganligini ham bilmog'i kerak. Shuning uchun ham muallim o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bog'lab, bolani tarbiyalashda ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi darkor.

O'qituvchilik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy xarakterga ega. Pedagogik faoliyatning bunday xususiyati barcha fan o'qituvchilariga, tarbiyachilar, sinf va makgab rahbarlariga birdek taalluqlidir. Barcha pedagogik xodimlarning har bir so'zi va amaliy xatti-harakatlari o'quvchilarga, tarbiyalanuvchilarga umuminsoniy va milliy axloqni singdirish maqsadiga xizmat qilishi lozim. Bu ish o'z navbatida muallim va o'quvchilardan axloq nazariyasi, axloqiy tasavvur va tushunchalar, o'qituvchi odobiga doir bilimlarini muntazam ravishda oshirib borishni; muhokama, muloxaza qilib, uning mohiyatini tushu-nish, mag'zini chaqishni talab etadi. Murakkab axloqiy hodisalarning mohiyatini o'quvchilarga tushuntirish mas'uliyatli ish bo'lib, buning uchun muallim o'quvchilarning yoshi, saviyasiga mos, ular tushunadigan misollarni izlab topishi, tanlab olishi kerak.

Pedagogik faoliyat o'qituvchidan axloqiy ma'rifatli, yaxshi xulq egasi bo'lishni; axloqiy tajribaga ega bo'lishni, o'z-o'zini muntazam ravishda axloqiy jihatdan tarbiyalab borishni talab etadi, shu bilan birga muallim o'quvchilarga muntazam ravishda axloqdan saboq berib, ularni axloqiy bilimli qilishi; bolalarga yaxshi xulqiy odatlarni amalda bajartirib, mashq qildirib, axloqiy tajriba orttirishlariga ko'maklashishi; o'quvchilarni ham o'z-o'zini tarbiyalab borishlariga erishishi zarur.

Mafkuraviy va ilmiy targ'ibot kishilar o'rtasida maxsus leksiylalar o'tkazish, ma'ruzalar qilish, har xil suhbatlar uyushtirish kabilar orqali amalga oshiriladi. Ana shu leksiylalar, ma'ruzalar, suhbatlar va har xil chiqishlarning ommaga qay darajada ta'sir qilishi; ularni ishontrish, kayfiyatlaryani o'zgartirish, ular diqqatini qo'yilayotgan masalalarga tortish lektorlardan juda katta mahorat talab qiladi. Chunki har bir nutq ommani ishonтира oladigan, ularga tushunarli, yorqin, ta'sirchan, mantiqli va aniq bo'lgandagina kishilarga o'zgacha ta'sir qiladi. Ana shularnn ta'minlagan notiq esa o'z oldiga qo'ygan maqsadga to'la erishadi.

Taniqli notiqlar o'z nutqlarining namunali bo'lishini ta'minlashda quyidagi asosiy holatlarga alohida e'tibor berganlar: o'zi to'xtalmoqchi bo'lgan masala yoki mavzuni chuqur o'rganish, o'zlashtirib olish, undagi masalalarga o'z munosabatini aniq belgilab olish; o'z dunyoqarashiga ega bo'lish, so'z bilan ish birligi, nazariya bilan tajribaning dialektik birligiga erishish, fikrlarni ilmiy asoslash;

mavzuga mas'uliyat bilan yondashish, uni omma oldida to'liq ochnb berishga, yoritishga diqqat qilish;

lektsiyalar, ommaviy chiqishlar paytida tinglovchilar bilan nihoyatda yaqin aloqa, muloqotni ta'minlash. Tinglovchilarning kayfiyatini his qilib turish, bu orqali esa ularning lektor fikrlarini faqat tushunib olishlarinigina ta'minlamasdan, bu fikrlarga ishongira olish;

Har bir nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko'rish, jumladan lektsiyani nimadan boshlashdan tortib, nima bilan tugatashgacha jiddiy o'ylab olish, masalalarni o'rtaga tashlash ketmaketligini yaxshi belgilab olish, ularning o'zaro boglanishini ta'minlashi, ma'lum rejalar yoki reja-konspektlar tuzib

olib, o'zi uchun alohida va keng to'xtalishi zarur bo'lgan o'rinlarni belgilab olish va b.

Namunali nutqni ta'minlovchi asosiy omillar yuqorida sanab o'tilganlar bilan cheklanmaydi, albatta. Shu omillarni yuzaga keltirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan yana bir omil ham borki, bu, yuqorida aytganimiz, tilni yaxshi bilish, undan o'rinli va to'g'ri foydalanish malakasiga ega bo'lish — nutq madaniyatini egallashdir. Mavzuni chuqur bilish, masalalarni to'g'ri anglash, ularga munosabat, tushunarlikni, ta'sirchanlikni, aniqlik va mantiqlilikni ta'minlash, tinglovchilar diqqatini tortish, fikrlarni qanday bayon qilish kabilarning hammasi til orqali, uning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

Nutq madaniyati esa olam-olam mazmunni go'zal ifodalab berishga asoslanadi. Ma'lumki, notiqlar ham har xil bo'ladi. Har biri o'z nutq uslubiga, o'ziga xos bilimga, o'zini tuta bilish, omma bilan til topa bilish mahoratlariga ega bo'ladi. Aristotel to'g'ri ta'kidlaganidek, nutq zamidagi fikrlar gapiruvchi shaxs orqali gavdalanadi va uning nutqn

davomida yuzaga keladi. Demak, har bir notiq o'ziga xos ovozga, o'ziga xos uslubga ega bo'lishi lozim. Biroq, baribir har bir notiq Alisher Navoiy o'zining «Mahbubul-qulub» asarida keltirgan «Ko'ngil xazinasining qulfi — til; U xazina-ning kalitini — so'z bil», «Ko'p, bemaza so'zlaydigan ezma — kechalari tong otguncha tinmay quradigan itga o'xshaydi», «Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do'stona so'z aytadi: ko'n-gilga tushishi mumkin bo'lgan yuz ham — uning so'zi bilan daf bo'ladi. So'zda har qanday yaxshilikning imkoni bor»... «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir...», «Tilning ixti-yorini qo'lingda asragil; so'zingni ehtiyotlik bilan so'zla. Vaqtida aytish kerak bo'lgan so'zni asrama; aytish kerak bo'lmagan gapning yaqiniga yo'lama. So'z borki, eshituvchining taniga jon kirgizadi; so'z borki, gapiruvchining boshini elga uchiradi. Tiling bilan dilingni bir tut; tili va dili bir kishining aytgan so'zi — but. So'zni ko'ngilda pishitmaguncha tilga olma» kabi hikmatlarga jiddiy amal qilish lozim. Bu haqda keyingi paytlarda ko'pgina o'zbek adiblari, so'z san'atkorlari, adabiyotshunos va tilshunos olimlar ham o'z fikr-mulohazalarini bayon qilmoqdalar.

A. Qahhorning «Til haqida nutq» maqolasidagi («Yoshlik» jurnali, 1987 yil, 9-son) quyidagi fikrlari bunga misol bo'la oladi: «Juda boy, chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifo-da etib bo'lmaydigan fikr, tuyg'u, holat yo'q!

Abdulla Qahhor aytgan bu fikrlar bevosita notiqlarga ham tegishli bo'lishidan tashqari, umuman til vositalaridan ustalik bilan foydalanishga e'tiborni tortishdan tashqari, nutq madaniyati uchun ham bevosita taalluqlidir.

Har qanday notiq nutqining madaniyatli bo'lishini ta'minlashga harakat qqilar ekan, avvalo, o'z ona tilining bebaho ne'matlaridan foydalana olishi, so'z qadriga eta bilishi kerak. Bundan tashqari, nutqning go'zal, latofatli, ma'nodor va olijanob bo'lishi uchun, kishining o'zi ham tabiatan samimiy, musaffo bo'lishi kerak. Chunki hamma vaqt ham chiroyli so'zlarni qatorlashtirib tashlash, balandparvoz jumlar tuzish bilan madaniy nutqqa erishib bo'lmaydi. Bu o'rinda Aristotelning quyidagi fikrlari o'rinlidir: «Men ko'p qo'laniladigan hamma so'zlardan boshqasini; noyob so'zlar, metaforalar, cho'zilgan va boshqa so'zlarni galati deb atayman. Lekin kimdir butun nutqni shunday asosda tuzsa, yo topishmoq, yo varvarizm kelib chiqadi».

Kaykovusning shunday fikri bor: «...Xamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir... Nut ya juda yaxshi va san'atkorona o'rganib ol, doimo gapga chechan bo'lishga harakat qil... Nutqi shirin kishiying mehribs xishilari ham ko'p bo'ladi».

Nutqda ta'sirchanlikni ta'minlash uchun maqollar, matallar, hikmatlar, so'z va iboralar va ayniqsa, frazeologizmlardan keng foydalanish zarur. Yozuvchi A. Qahhor o'z hikoyalarining ko'pchiligida epigraf sifatida maqollar keltirish bilan darhol o'quvchi diqqatini tortadi: Osmon yiroq —

er qattiq («Bemor»); Otning o'limi — itning bayrami («O'g'ri»); Olaqarg'a qaq etadi, o'z ko'nglini chog' etadi («Bashorat») kabilar.

Shuningdek, notiq doimo tejamlilikka, e'tibor berishi, zarur bo'lmagan so'zlarni qo'llamaslikka harakat qilishi, ortiqcha takrorlarga berilmasligi kerak. Nutqning cho'zilib ketishi, unda takrorlar bo'lishi, zarur bo'lmagan so'zlarning ko'p uchrashi nutqni siyqalashtiradi, uni zerikarli qilib qo'yadi, qalinlashtiradi. Buni yaxshi his qilgan ko'pgina yozuvchilar, haqiqiy so'z san'atkorlari olam-olam mazmunni bir nechta jumlada yoki bir nechta so'z ishtirokida ifodalab qo'ya qoladilar: «Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi. .. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n besh xoda, bir arava hamish-uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi». (A. Qahhor, «O'g'ri.»)

Boshqa qardosh jumhuriyatlar qatori O'zbekistonda ham fan-texnikaning barcha sohaları shakllandi, rivojlandi. Natijada o'zbek tilida fan va texnikaning barcha sohalariga oid atamalar vujudga keldi, o'zlashtirildi. Mavjud atama-larning ko'pchiligi o'zgardi. Ana shu atamalarning ko'pchiligi umumiy adabiy tilga o'tib, ommalashib ketgan va hamma uchun tushunarli bo'lib qolgan. O'zbek tilida chiqayotgan ro'znomalarga e'tibor beriladigan bo'lsa, ularda telejka, dislokatsiya, pozitsiya, vodoprovod, radio, elektr, televizor, priyomnik, trol-leybus, avtobus, vokzal, gastronom kabi minglab so'zlarni uch-ratish mumkin. O'zbek tili atamachiligida ilgari mavjud bo'lgan jumhuriyat, munajjim, baynalmilal tipidagi ko'pgi-na atamalar o'rnini ruscha baynalmilal atamalar egalladi. Bir qator so'zlar borki, ularni hozirgi o'quvchilar maxsus lug'atlarsiz tushuna olmaydilar: munshi, qozi, dodxoh, haram, avrapo'sh; sipohsolor, viqor, vojib, voiz, vomiq, behbud, badho' alfoz, anduh, andoza, andisha, anjuman, andalib, asno, afgor, axbor, aftoda, misqol, mufti, koranda, chorakor, qush-begi, pansod kabi. Bu so'zlarning bir qismi tarixiy so'zlar sifatida, bir qismi eskirgan so'zlar sifatida ishlatilmoqda.

Har bir so'zning ma'nosini chuqur bilish, tushunish lozim bo'ladi. Bu o'rinda R. Dekartning quyidagi fikri juda mos keladi. «So'zlarning ma'nolarini tushuntirib bering, shun-da siz insoniyat olamini anglashilmovchiliklarining yarmidan xalos qilgan bo'lasiz!»

Yangi vujudga kelgan yoki o'zlashayotgan atamalarni to'g'ri anglamay turib, o'zaro to'g'ri fikrlashish, o'zaro bir-birini to'g'ri anglash mumkin bo'lmay holdi. Chunonchi, ilmiy maqolada ishlatilgan atamani to'g'ri anglamagan, tushunmagan ik-kinchi bir ilmiy xodim, o'sha maqoladagi fikrni to'la anglab etmasligi mumkin, o'quvchi esa o'qituvchi fikrinni to'g'ri angla-maydi va tushunmaydn. Jumladan, o'quvchiga orfografiya ata-masining lug'aviy ma'nosi aniq va to'g'ri izohlab berilmas

ekan, o'quvchi ana shu atama ishlatilgan gapdan hech narsa anglamaydi, juda bo'lmasa, chala anglaydi.

Shuning uchun ham ilmiy jarayonda, shuningdek o'qish, o'qitish jarayonida atamalarning va ularni chuqur bilitsshing hamda to'g'ri, o'rinli, tanlab qo'llay bilishning, qisqasi, ata-machilik madaniyatining roli beqiyos bo'ladi. Atamalarni o'rin-li-o'rinsiz ishlatish, tushunmagan holda qo'llash, soxta bilim-donlikni niqoblash uchun boshqalarga tushunarsiz atamalarga hadeb murojaat qilaverish nutq madaniyatiga putur etkazadi. Ilmiy va o'qish-o'qitish jarayonidagi aloqani faqat atama-largina to'la ta'minlab turmaydi. Bu aloqada boshqa vosita-larning ishtiroki ham bor. Biroq atamalarni bilishning, ularni to'g'ri va o'rinli ishlatishning roli asosiy bo'lib qoladi. Shuning uchun ham ilmiy munozaralarda, ilmiy maqolalarda, o'qish va o'qitish jarayonida har bir atamani ishla-tishga yoki nutqda qo'llashga alohida e'tibor berish lozim. Ayniqsa, o'qituvchilar maktablar va oliy o'quv yurtlari audi-toriyalarida, shuningdek, o'z shogirdlari bilan aloqada bo'l-ganlarida yo tushunarli atamalarni ishlatishlari yoki yangi ishlatilgan atamani to'g'ri va to'la izohlab berishlari lozim. So'zlarning aksariyati odatda ko'p ma'noli bo'ladi. Bu narsa tabiiy holdir. Chunki jamiyat taraqqiyoti davomida ko'plab yangi narsa-hodisalar, tushunchalar vujudga keladi. Ularni ifodalash uchun u yoki bu tilda ba'zan yangi so'zlar yaratiladi, ba'zan boshqa tillardan atamalar qabul qilina-di. Ammo bu bilan ham ehtiyojni qondirib bo'lmaydi. Natijada, shu tildagi mavjud so'zlardan ham foydalanishga to'g'ri keladi. Bu narsa o'z-o'zidan mavjud so'zning ko'p ma'noli bo'lishini keltirib chiqaradi. Jumladan, o'zbek tilidagi bosh, ko'z, quloq, qosh, oyoq, bel kabi so'zlarning dastlab kishi a'zo-laridan biryani ifodalab kelgani, keyinchalik esa, yog'ochning ko'zi, daraxtning boshi, qozonning qulog'i, ayvonning qoshi, stolning oyog'i, ishning beli tipidagi birikmalar tarkibida boshqa ma'nolarda qo'llanib, boshqa tushunchalarni ifodala-shi, so'zning bunday xususiyatga ega bo'lib qolishida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik asos qilib olinganligi ko'z-ga tashlanadi. Ko'rinadiki, ko'p ma'noli so'zlarning vujudga kelishi taraqqiyot natijasida sodir bo'ladigan tabiiy hodisadir.

So'zlar tushunchalarni ifodalash bilan birga kishilarnng his-tuyg'ularini, narsa-hodisalarga bo'lgan o'z munosabatlari-ni ham ifodalaydi. Jumladan o'g'ilchangiz so'zi qanday nutqiy matnda va qanday ohang bilan ishlatilishiga qarab ham ijobiy, ham salbiy munosabatni anglatadi:— ha, ana shu o'g'ilchangiz boshimga ming xil balolarni soldi, ana shu ar-zandangiz qildi bu ishlarning hammasini... («Sharq yulduzi»). O'g'ilchangiz biram shirin bo'ptiki (og'zaki nutqdan). Yoki: Katta, mevali daraxt— katta mevali daraxt; Mulla a'lam, to'g'ri, odam emas — mulla a'lam to'g'ri odam emas tipidagi qo'llashlarda ohangning o'zgarishi bilan so'z ma'nosi-da ham o'zgarish yuz beradi. Shuningdek,

o'zbek tilida, rahmat, balli, barakalla, zo'r, yaxshi, tasanno, qoyil, ofarin kabi ju-da ko'p so'zlar ohangning o'zgarishiga qarab bir o'rinda o'z ijobiy ma'nolarida qo'llansa, bir o'rinda kesatiq, kinoya, ta'na kabi ma'nolarni ifodalashi mumkin.

Atamalarda bu holatlar kuzatilmaydi. Ular uchun emo-tsionallik, ko'p ma'nolilik xos emas. Atamalar o'z sinonim-lariga ham ega bo'lmasligi kerak. Atama ma'nosi ohang ta'sirida o'zgarmaydi. Biroq amalda shu narsa kuzatiladiki, biz kuzatayotgan atama ba'zan ko'p ma'noli bo'ladi, ba'zan uning sinonimlari borligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, ot — lingvistik termin; sifat, son ham shunday: Sifatlarning ma'no-lari bir xil emas, asliy sifatlar va nisbiy sifatlar kabi qo'llanishlar bilan Keyingi paytlarda mahsulot sifatiga kam e'tibor berilmoqda tipidagi qo'llanishlarda bular o'r-tasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Oldingi qo'llanish-larda sifat so'zi lingvistik atama tarzida kelgan bo'lsa, keyingn qo'llanishda umumiste'moldagi so'z tarzida kelgan-dir. Bu narsa atamalarning bir ma'noli bo'lishi haqidagi asosiy mulohazada chalkashlik tug'dirmasligi kerak. Chunki, baribir o'sha sifat so'zi ilmiy atama vazifasida bir ma'nolidir.

Har bir sohaning o'ziga xos tushunchalari bor. Bu tushuncha-larning jami esa shu sohaning tushunchalar sistemasini tash-kil etadi. Shu sohaga oid tushunchalarni ifodalovchi maxsus atamalar ham mavjud. Ana shu atamalar jami esa shu soha atamalar sistemasini tashkil etadi. Ya'ni shu soha atamachi-ligi bo'ladi. Jumladan, matematika, fizika, biolognya, ximiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, meditsina va hokazo ju-da ko'p sohalari bor. Ularning o'zlariga xos tushunchalari ham mavjud: qo'shuv, oluv, kvadrat, ildiz, tangens, kotangens, si-nus, kosinus; zaryad, kuchlanish, bosim, havo oqimi; molekula, mikroorganizm; morfolognya, struktura, aruz, g'azal, turoq, pozitsiya, sifat, ega, kesim, o'zak, negiz, affiks kabilar. Kel-tirilgan so'zlar ana shu tushunchalarni ifodalovchi atamalar-dir. Ko'rinadiki, terminologiya «tor ma'noda ma'lum bir so-haga oid maxsus leksika» bo'lsa, «keng ma'noda umumiy lug'at tarkibining ayrim sohalarda ishlatiladigan qismidir». (S. F. Akobirov.)

Har bir sohaning o'z atamalar sistemasida esa bitta atama faqat bitta tushunchani ifodalaydi. Atamalarning bir ma'-noli bo'lishi haqidagi asosiy talab ana shu nuqtai nazardan belgilanadi. Shu talabdan kelib chiqilganda yuqorida tilga olingan bosh, qo'l, ko'z, oyoq, qosh, quloq so'zlari anatomiyada maxsus atamalar sifatida o'llanib, faqat kishi organizmi qismlarinigina ifodalasa, umumiy adabiy tilda, oddiy so'z sifatida baholanadi va ko'p ma'noli hisoblanaveradi. Shuningdek, bir vaqtlar o'zbek tili nuqtai nazaridan ata-ma sifatida baholangan elektr, kosmos, radio, televidenie, raketa, mashina, traktor, trolleybus, avtobus, mashnnist kabi minglab atamalar o'z sohalari doirasidan chiqib, keng omma o'rtasida qo'llanadigan, umumiy adabiy tilga xos, hamma tu-

shunadigan so'zlarga aylanib ketgan. Ana shuning natijasida umumxalq tili leksikasi ham boyib boradi.

Atamalarni qo'llashda har qanday murakkab fikrni ixcham, oson, lo'nda va aniq, shuningdek, tushunarli ifodalash, shu yo'l bilan fikr almashinuvini osonlashtirish maqsad qilib qo'yiladi. Atamachilik til leksikasining tarkibiy qismi hisob-langani uchun kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashda katta rol o'ynadi.

Atamalarni qo'llashdagi bunday kamchnliklar lingvistik atamalarni qo'llashda ham uchrashi kuzatiladi: O'zbek tiliga oid darsliklarda «fe'l darajalari», «fe'l nisbatlari»; «ijro mayli», «aniqlik mayli», «darak mayli»; «orttirma daraja», «qo'zg'atish daraja» tipida qo'llashlar uchraydiki, bu narsa talabani chalg'itadi, uning bilim olishini qiyinlashtiradi.

Xuddi shuningdek, o'zbek tiliga oid darsliklarda «Bog'langan qo'shma gap» atamasi ishlatiladi. Bunda, odatda gap teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar to'g'risida boradi. Xo'sh, ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida yoki boshqa vositalar bilan bog'langan qo'shma gaplarchi? Ular «Bog'lanmagan qo'shma gaplar» tarzida talqin qilinishi kerakmi? Umuman, qo'shma gap qismlari bir-biri bilan bog'lanmagan holat ham b'ladimi? Ko'rinadiki, atamani puxta o'ylab tuz-maslik natijasida jiddiy chalkashlik vujudga kelgan. Xuddi shu kabi «Ergashgan qo'shma gap» atamasi chuqur o'ylamasdan tuzilgan bo'lib chiqdi. Hozirgi kunda uning o'rnida ba'zan «Ergash gapli qo'shma gap» atamasi ishlatilyapti. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Gap shundaki, bunday qo'llashlar o'quvchini chalkashtiradi, noaniqlikni vujudga keltiradi, o'zaro fikr almashishni, anglashni qiyinlashtiradi. Nutq tinglovchiga to'g'ri etib bormaydi.

Atamalarni qo'llashda ma'lum kamchiliklar sodir bo'la-yotgan ekan, buning sabablari ham mavjuddir: Nutq muallifi atamaning tub ma'nosini to'g'ri anglab etmaydi. Natijada, uni mantiqan mos kelmaydigan so'zlar bilan biriktiradi va jumla tuzadi. Uningcha, atama to'g'ri ishlatilganday tuyuladi. Masalan: Odamga doim boshpana boshini bekitib yurish uchun pana joy kerak, faqat uy emas, odam o'zi yashaydigan torgina muhitda ham munosabatlardan boshpana qurib oladi, munosabatlarni boshiga pana qilib yuradi... (A. A'zam.) Bu gapdagi boshpana so'zi anglatgan tushunchani yaxshi bilmaslik natijasida, bu o'rinda noto'g'ri qo'llangandir. Boshpana so'zi asosan turar joy, uy degan ma'noni bildiradi. («O'zbek tilining izohli lug'ati», 139-bet.) Yana: Uning sochlaridan kelayotgan juda ingichka bir hindiy mushk isi boshimni aylantiradi tipidagi gaplar ham uchrab qoladi. Ingichka so'zi o'rinsiz ishlatilgan.

Muallif o'z nutqiga jiddiy e'tibor bermaydi, uni ku zatmaydi, unga

baho bermaydi. Natijada atamalar pala-partish ishlatilib yuboriladi. Ba'zan esa ongli ravishda, mavjud atamalarni yaxshi bilgan holda, an'anaviy qo'llanilib kelayotgan, hamma uchun tushunarli b'lgan atamalardan voz kechib, an'anani buzib

o'zini shu fanning bilimdoni qilib ko'rsatish maqsadida hech kim uchun tushunarli bo'lmagan, qo'llanilishi y'zini oqlash-oqlamasligi hali noma'lum bo'lgan atamalarni qo'llash hollari ham uchraydi. Bu bilan nutq muallifi o'zini go'yo «yangi narsa» aytgan hisoblaydi. Masalan, so'shma so'zatamasi o'rnida o'rinli-o'rinsiz holda kompozita atamasini qo'llash, gapning ergashishi yoki gapning bog'lanishi atamaları o'rnida gipotaksis, parataksis atamalarini qo'llash kabi. Xuddi shu kabi, ba'zan, hamma uchun tushunarli, tanish atama turganda, ma'lum sabablarga k'yra, ataylab tinglovchi uchun notanish b'lgan sinonim atamani o'rinli-o'rinsiz qo'llash uchraydi: grammatik ma'no atamasi o'rnida formal ma'no, affiksali morfema atamasi o'rnida formal morfema, ko'rsatkich, affiks atamaları o'rnida formant, qisqartma so'z, qisqartma, qisqartma ot terminlari o'rnida abbreviatura atamalarini ishlatish kabi. So'zlovchining bular ichidan eng ma'qulini tanlab olib ishlatishiga hech kim monelik hilmaydi. Biroq nutqning bir qismida birini, ikkinchi qismida ikkinchisini izohsiz ishlatib ketish aloqa sifatiga putur etkazadi.

Tilni chuqur bilmaslik, uning sintaktik va semantik imkoniyatlarini egallamaslik natijasida nutqda terminlar noto'g'ri ishlatilib yuboriladi.

So'z yasalihi, jumladan atamalarning yasalihi qonun qoidalarini yaxshi bilmaslik natijasida noto'g'ri atamalar hosil qilinadi va ularning nutqda ishlatilib yuborilishi ham so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi aloqani qiyinlashtiradi: «Shu yashayotgan joyimda nojoyligimdan emas, nimadanligini o'zim ham bilmayman, tushuntirishim qiyin, ammo...» (A. A'zam.)

Keltirilgan misoldagi nojoy so'zining yasalihi halizdir. Chunki o'zbek tilida tarkibida o'unlisi bo'lgan undosh-unli-undosh tarkibidagi bir bo'g'inli so'zlarga no-prefiksi qo'shilib yangi so'z hosil qilishi norma emas: nonon, nojon yasalihi-lari uchramagani holda nonsiz, jonsiz yoki benon, bejon yasalishlari normativ hisoblanadi. Bundan tashqari, ba'zan, har xil sabablarga ko'ra, atama yasashda, atamachilik talablariga zid ish tutiladi. Ma'lumki, atamalar ixcham, aytilishi va yozilishi qulay bo'lishi kerak. Bunga zid ravishda, masalan, fizik xossalar o'rniga fizikaviy xossalar, mexanik harakat o'rniga mexanikaviy harakat tipida termin yasashlar uchraydi.

«O'zbek tilida yangi sifat shakllarini qo'llanib bo'lmaydigan hollarda ba'zan -li affiksli sifatlar qo'llaniladi. Masalan «sharikli podshipnik», «tishli g'ildirak», «plun-jerli nasos» va hokazolar. Lekin -li

affiksli sifatlar hamma vaqt rus tilidagi sifatlarning ma'nosini beravermaydi. Bundan tashqari ular ba'zan noaniqliklarga sabab bo'ladi. Masalan, «ikkita sharikli podshipnik», «yigirma bitta tishli g'ildirak», «ichki tishli g'ildirak» deganda «ik-kita», «yigirma bitta» va «ichki» so'zlarining sharikkami — podshipnikkami yoki tishgami, g'ildirakkami oidligi bilin-maydi». (S. F. Akobirov, Til va terminologiya, Toshkent, 1968, 36- bet.)

Ba'zan badiiy adabiyotlarda ham yozma nutq muallifining til qonuniyatlariga amal qilmagan holda, sun'iy ravishda o'zini oqlamaydigan so'zlar yasab yuborish hollari kuzatiladi: Oshqozonkasal bo'lib qolaman; hammo'ytsalam do'stlari...; Oriyat-ni esa qozon-tovoq, idish-oyoq deganlar quchoq ochib qarshilay-di; Piishriq-sishiriqdan chiqolmay qoladi..., Men bitta odam emasman, men tumonatman, chaman odamzorman, to'p gulday turlanib... (A. A'zam.); ... nima desam, ishongan, oqko'ngiltanti Tangir bilan bahslashayotgan bo'laman...; haqberdi bilan yolg'iz qolsam, har gal unga va'da qilgan juda zarur narsamni esimdan chiqqanidan emas, berishga qizg'anganimdan atay uyda qoldirib kelib, endi o'tirik bahonalar bilan o'zimni oqlab y'tirganday o'ng'aysizlanaman. (A. A'zam.)

Keltirilgan gaplardagi oshqozonkasal, hammao'yqalam, pi-shiriq-sishiriq, odamzorman, oqko'ngil tanti kabi yasalishlar hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan so'z yasash qoidalariga mos kelmaydi. Ayniqsa, oqk'ngiltanti, odamzorman so'zlari-ning bu tarzda yasalishi maqsadga muvofiq emas. Agar har kim o'zicha ana shunday so'zlar, atamalar yasay beradigan bo'lsa, atamachilikni umuman tartibga solib bo'lmay qoladi.

Ko'rinadiki, atama yasash bilan bog'liq bo'lgan bunday kamchilnlarni bartaraf qilmasdan turib, o'zbek tili atamachi-lik sistemasini mukammallashtirib bo'lmaydi. Modomiki, atamachilik sistema mukammal holga kelmas ekan, atamalar-ni qo'llashdagi kamchiliklarnn tugatish qiyin. Natijada ilmiy, o'qish-o'qitish sohalaridagi nutqiy aloha sifati yomon holicha holaveradi. Shu sababli nutq madaniyatining asosiy mezonlari bo'lgan to'g'rilik, mantiqlilik, aniqlik, tushunar-lilik kabilarga putur etadi. qolaversa, adabiy tilda ortiqcha, keraksiz bo'lgan unsurlar ko'payib ketib, hatto nutq tozaligi ham buziladi.

Ba'zan mavjud atama bor bo'lgani holda, uni bilmas-lik oqibatida, boshqa sun'iy atamalar hosil qilish yoki mavjud terminni o'z mustaqil qarashlariga mos ravishda o'zgar-tirish, ayrim hollarda esa, tushunchani, hodisani o'z nuqtai nazaridan baholagan holda uni mavjud atama bilan ifoda-lash hollari uchraydi.

NUTQ MADANIYATINI EGALLASHNING USUL VA YO'LLARI

Jamiyat a'zolarining o'zaro fikr olishuv jarayonida tildan foydalanishi va foydalana olish qobiliyati o'zining ma'lum qonuniyatlariga ega. Bundagi bir umumiy holat shundan iboratki, har bir kishi ham o'z ona tilisi yoki o'zi egallagan boshqa biror tildan ehtiyojiga yarasha foydalanish ko'nikmasiga egadir. Ushbu kŷnikma ko'p zamonlar davomida avloddan-avlodga o'tib keluvchi insoniy mushohada va tafakkur an'anala-rining har bir shaxsda takrorlanuvchi intellektual xususiyatlariga tayanadi. Adabiy til paydo bo'lmasdan oldin kishilar urug' va qabila tilida fikrlashgan davrlarda ham yoki ular adabiy tilda, shuningdek ma'lum shevada so'zlashganlarida ham mana shu intellektual shaxsiy qobiliyat tufayli o'z maqsadlariga erisha oladi, biri ikkinchisini bermalol tushunadi. Bunday qobiliyat shaxsning ŷzi gapirayotgan til yoki til shaklining normativ sistemasini egallaganligi, uni ijodiy idrok eta

olishi bilan bog'langandir. Masalan, gar qanday urug' va qabila tili ham, hatto uning hozirgi davr ko'rinishlari bo'lgan sheva va lahja ham bir-biridan ma'lum darajada farqlanuvchi vositalarga egadir. Ushbu til qonuniyatlarini egallagan, ya'ni gapirayotgan sheva yoki lahjaning normativ belgilari asosida yoshlikdan so'zlay olish malakasiga erishgan har bir kishi hech qanday yordamsiz o'sha tilda fikrlasha oladi. Ammo shaxsning o'zi egallagan tilni qaysi darajada (oddiy yoki chuqur) bilishi ushbu shaxsning o'z faoliyati, intilishi, hayotiy tajribasi hamda hayotiy ehtiyojiga bog'liq bo'lgan masaladir.

Demak, odamlarning yoshlikdan ma'lum bir tilda so'zlay olishi tabiiy-shaxsiy va ob'ektiv qobiliyatdir. Shu tufayli ham nutq madaniyati sohasi kishilarni umuman so'zlashga, ma'lum til vositasida fikr almashishga o'rgatish vazifasini ko'zda tutmaydi. Chunki qayd etilganidek, insonning o'z ona tilida so'zlay olish qobiliyati avvaldan bor bo'lgan tabiiy instinktdir. Xo'sh, shunday ekan, nutq madaniyati sohasining maqsadi nima? Nutq madaniyati sohasi umuman ona tilida emas, balki jamiyat a'zolarini ona tilining maxsus shaklida (madaniy shaklida) gapira olishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Tilning bunday shakli ma'lum bir milliy tilda gaplashuvchi ijtimoiy guruhlarining barchasi uchun mushtarak bo'lgan til — adabiy tildir. Shu tufayli nutq madaniyati uchun kurash bu kishilarning o'zaro har qanday fikr almashishini madaniylash-tirish (masalan, sheva yoki lahjalarda gaplashishi) uchun kurash emas, balki butun millat a'zolari uchun yagona bo'lgan adabiy tilda tp'g'ri fikr almashish uchun kurashdan iboratdir.

Adabiy til va nutq madaniyati sohasi bo'lmasa kishilar «har qanday jamiyat nutqiy amaliyotida ham qanday qilib to'g'ri gapirish mumkin yoki mumkinmas deyilgan masala u yoki bu tarzda o'rta qo'yilgan va hal etilgan bo'lishi kerak... Ilmiy tilshunoslik yuzaga kelgunga qadar tajribada, «til didi»ga tayanib ish ko'rilgan, normalarni belgilash stixiyali bo'lgan. Ammo, shunga qaramasdan kishilarning bir-birini tushunmasligi tufayli jamiyatning parchalanib ketishiga sabab bo'luvchi hodisalar yuzaga kelmadi»¹.

Tilshunos E. F. Petrishevaning nutqiy normativlik va uning o'ziga xos tabiiylik holati haqida aytgan fikrlari ham keltirilgan mulohazalarga hamohangdir: «Til faktlariga yondoshish faqat tilshunoslarga xos emas. qanday gapirish mumkin va mumkinmas degan tasavvur chalasavod kishilarning nutqiy ongida ham mavjud. Ushbu tasavvurga stixiyali ravishda o'z nutqida har bir kishi ham amal qiladi. Bu holat mazkur tasavvur egasi uchun odatlanmagan til faktlariga duch kelganida, ayniqsa ravshan seziladi».

Darhaqiqat, masalan, o'zbek tilining farg'ona guruhi shevalarida gaplashuvchi kishilarning har qaysi bir tomondan o'zi uchun ona tili bo'lgan shevaning o'ziga xos imkoniyatlarini egallagan va biladi. Shu

bilan birga u o'z nutqida va o'sha shevada gaplashuvchi o'zgalar nutqida ona sheva normasidan chetga chiqishlarni payqaydi. Xuddi shuningdek, Farg'ona shevalaridan birida gaplashuvchi kishi uchun Xorazm shevalarining yoki Samarqand vohasidagi qipchoq shevalarining birortasi uchun xos ko'pgina xususiyatlar yogdir. Shu sababli farg'ona shevasiga mansub shaxs bunday holatni hatto anormal va xatolik deb baholashi ham mumkin. Shu tufayli ham V. A. Itskovichning «har qanday til muhitida, dialektal muhitda ham to'g'rilik va noto'g'rilik haqidagi intuitiv tasavvur mavjud degan» gaplarida haqqoniylik bor.

Demak, kishilarda tabiiy va an'ana tusiga ega bo'lgan ona tilini yoshlikdan egallay olish va undan o'rinli, tanqidiy foydalana olish qobiliyati bor ekan, unda nutq madaniyati sohasi kimlarni ko'zda tutib ish olib boradi, degan qonuniy savolning tug'ilishi tabiiydir. Bu savolga berilgan javoblar gozirgi zamon tilshunosligida juda kam. Mavjud javoblarda esa ushbu masala turlicha talqin etilganini ko'ramiz. Bular ichida uchtasi xarakterlidir.

Nutq madaniyati sohasi butun millatni (xalqni) ko'zda tutib ish olib boradi.

Nutq madaniyati faqat zirolilar (o'qimishli ommaning) nutqini yaxshilashni ko'zda tutadi.

Nutq madaniyati sohasi, birinchi navbatda, yosh avlod nutqini to'g'rilashini ko'zda tutib ish ko'radi.

Har uchala qarash tilshunoslik fanida hali maxsus ravishda yrganilgan va etarli isbotlangan emas.

Tilshunoslikda ushbu masalani ana shu tarzda maxsus qo'yib hal etishga intilgan maqolalar ham uchramaydi. Ammo ayrim ishlarda keltirilgan muammolar bo'yicha yo'l-yo'lakay aytilgan fikrlar mavjud. Ularning ayrimlariga to'xtab o'tamiz.

Tilshunos G. Vinokur nutq madaniyati haqida fikr yuritar ekan, bu muammo «barcha, umum uchun tegishli» chora ekanini ta'kidlagan. Shu sababli ham u bu masalaga oid vazifalarni faqat shahar aholisi, ziyolilar doirasidagina olib boriluvchi ish emas, balki qishloqda ham amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim tarbiya deb bilgan¹. U bunday tarbiyaning natijasi aholi turli qatlamlari vakillarining adabiy til normasini egallashini ta'minlashdan iboratdir deb tushungan. Ma'lumki, shu kunga qadar adabiy til va uning normasini butun aholi bir xilda egallagan jamiyatning o'tmishda ham va hozirda ham bo'lganligi tilshunoslik fani uchun ma'lum emas.

Nutq madaniyati tushunchasi hozirgi ilmiy ma'noda adabiy til bilan bog'liqdir. Shu tufayli adabiy tilni egallamagan va unda so'zlay olmaydigan kishining nutqiy madaniyati haqida gapirish ham ortiqchadir. Anglashiladiki, oldin ham qayd etilganidek, nutq madaniyati sohasi adabiy tilda gapiruvchilar, adabiy tilni egallagan va egallayotganlar

nutqini, nutqiy faoliyatini ko'zda tutgan holda ish ko'radi. Ammo hozirda adabiy til umumxalqning so'zlashuv quroliga aylanayotgan bizning jamiyatimizda ham aholiing ko'pchilik qismi mahalliy lahja va shevalarda yoki adabiy til bilan o'z shevalarining qandaydir qorishmasidan iborat bo'lgan bir tilda so'zlashmoqdalar. Masalan, o'zbek millatiga mansub kishilar kundalik faoliyatlarida o'zbek adabiy tilidan qay darajada foydalanayotganiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajralishi mumkin:

O'zbek adabiy tilida normal gapira oluvchi va yoza oluvchi kishilar guruhi;

O'zbek adabiy tilida yoza oluvchi, ammo og'zaki nutqda adabiy til normalariga to'liq amal eta olmaydigan kishilar guruhi; rasmiy doiralarda adabiy tilda so'zlay oladigan, ammo oddiy so'zlashuvda, ayniqsa oilada shevada yoki sheva bilan adabiy tilning aralashmasidan iborat bir tilda gapiruvchi shaxslar guruhi; mahalliy shevaning kuchli ta'siri sezilib turadigan nutq egasi bo'lmish kishilar guruhi;

mahalliy shevaning kuchsiz ta'siri (asosan talaffuzida, ayrim so'zlarni tanlashda) sezilib turadigan tilda so'zlaydigan kishilar guruhi; adabiy tilni «bilmaydigan» va o'z mahalliy shevasida gaplashadigan kishilar guruhi. O'zbek aholisi nutqining keltirilgan ko'rinishlari og'zaki nutq madaniyatini barchadan bir xilda talab etib bo'lmasligiga yorqin dalildir. Kishilarning «adabiy tilni bilmasligi» tushunchasi nisbiy hodisa bo'lib, uni adabiy tilni tamoman tushunmaydi ma'nosida emas, balki ular adabiy tildan to'la ma'noda foydalanmaydi, bu tilda gapirishga va yozishga tamoman odatlanmagan degan ma'noda tushunish lozim. Ammo shunday bo'lganda ham keltirilgan oltinchi guruh kishilarning mavjudligi, hattoki ularning o'zbek aholisi ko'pchiligi qismini tashkil etishi nutq madaniyati talablarini butun o'zbek millati doirasida qo'yish mumkinmasligini ko'rsatib turibdi. Bunga sabab o'zbek aholisining ma'lum qismi hali adabiy tilda gaplashishga o'tmagan va bunday nutqiy faoliyatga hali to'lig'icha ko'nikmagan.

Mana shu kabi sabablar tufayli bo'lsa kerak, nutq madaniyati sohasining ish tutish doirasini (nutq madaniyati haqida gap ketganda kimlarni ko'zda tutish lozimligini) belgilash fanda munozaralidir. Chunonchi ba'zi tadqiqotchilar nutq madaniyati, asosan, o'qimishli kishilarni, (ziyolilar ommasini) ko'zda tutib ish ko'radi degan fikrni oldinga suradilar: «O'zbek adabiy tilidan foydalanib ish olib boradigan va nutq madaniyatlari yuqori bo'lishi shart deb hisoblanuvchi kishilar deganda, birinchi navbatda olimlar, matbuot xodimlari (jurnalistlar), adiblar, shoirlar, artistlar, lektorlar, davlat arboblari, idora va tashkilot xizmatchilari, adabiy tilning ommaviy og'zaki shakli bo'lgan radio, televidenie, kinoning diktorga va notiqchilari; pedagoglar, agitatorlar va propagandistlar ko'zda tutiladi».

Nutq, madaniyati ijtimoiy-madaniy hayotning qonuniy talabi bo'lsada, uni egallash aslida har bir shaxsning madaniy saviyasi, ong va bilimiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan jamiyatdagi barcha shaxslarni bir vaqtning o'zida bir xilda yuksak madaniyat darajasiga erishgan deyish mumkin bo'lmaganidek, aniq shaxslarning barchasini ham bilim va madaniy saviyasi jihatdan nutq madaniyatini egallashga bir xilda hozirlangan, qobiliyatli odam deyish qiyin. Olimlar ushbu masalada turli-tuman, ammo umumiy bir maqsadni ifoda etuvchi fikrlar bayon etishgan. Ulardan ayrimlariga to'xtalib o'taylik.

Tilshunos M. G. Ferman yozadi: «Kishining nutq madaniyati uning umumiy madaniyligi darajasining oshishi bilan bevosita aloqadordir. Chunki u o'zining xilma-xil fikr va mushohadalarini nutqi orqali ifodalaydi. Nutq madaniyatining pastligi, bir tomondan so'zlovchining umumiy rivojidagi kamchilikni, ikkinchi tomondan esa, uning o'z fikrini savodli va tushunarli shaklda izhor qila olishga o'rganmaganligini ko'rsatadi».

I. N. Serkovnitskiy fikricha, nutq madaniyati shaxsning madaniy kamolatining tarkibiy qismidir. Nutq xalq erishgan madaniyat darajasini o'zida ifoda etadi. har bir kishining nutqi uning madaniylik darajasini ko'rsatuvchi yorqin va ishonchli dalilidir».

Mana shu tarzda aytilgan gaplar fanda anchaginadir. Adabiy tildagi gapiruvchi kishi uchun ham uning adabiy til normalarini qanchalik bilishi nisbiydir. Chunki kishining adabiy til normasini qanchalik egallaganligi «so'zlovchining umumiy madaniy saviyasi bilan belgilanadi». Mana shunday asoslarga ko'ra, nutq madaniyati mutaxassisleri: «Nutq madaniyati kishining etarli va yuqori umumiy madaniy kamolotga erishganligini ko'zda tutadi», — deb yozishgan.

Ko'rinadiki, ushbu o'rinda ham nutq madaniyati sohasining ish k'yrish doirasi va chegarasi mavhumlashib qoladi. Axir, nutq madaniyati sohasi insonni hamma tomonlama kamolatga etkazishni emas, balki uning nutq madaniyatini ko'tarishni ko'zda tutadi. Bordi-yu, yuqorida ta'kidlanganidek, nutq madaniyati shaxsning umumiy madaniy kamoloti bilan bog'liq bo'lsa, demak nutq madaniyati faqat o'shanday kamolotga erishgan kishilar doirasi bilan chegaralanib qoladi. Umuman ushbu masalalar g'oyatda murakkab va munozaralidir. Nutq madaniyatining vazifasini keltirilgan holatdagi kabi keng tushunilsa, unda nutq madaniyati tilshunoslik sohasi emas, balki qandaydir keng ko'lamli (universal), murakkab fanga aylanadi. Bu holda nutq madaniyati sohasi bajaruvchi ish yanada chigallashadi va mavhumlashadi.

Shunday qilib, nutq madaniyatini egallash borasida shaxsning umumiy madaniy darajasi etakchi talablardan sanaladi. Demak, nutq madaniyati ma'lum ma'noda har qanday kishilar, odamlar guruhini emas, balki ma'lum madaniy saviyaga ega, adabiy tilni muayyan

darajada egallagan odamlarni ko'zda tutgan holda ish ko'radi.

Nutq madaniyati ma'lum madaniy va ma'naviy kamolot belgisi bo'lib, bizning davrimizda keng xalq ommasining umumiy madaniy qurilish ishiga, jumladan adabiyot va til muammolariga aralashuvi ancha faollashdi. Bunday faollik, bir tomondan, keng xalq ommasining kundalik nutqida adabiy tilning turli madaniy va kommunikativ vositalar orqali (radio, televidenie, teatr, kino, matbuot, lektsiyalar) lahjaviy nutq va so'zlashuv tiliga o'tkazayotgan ta'siri tufayli yuzaga kelgan o'zgarishlarda, ikkinchidan, jamoatchilikning adabiy tilda yo'l qo'yilayotgan nuqson va kamchiliklarga (masalan, matbuot tili, radio va televidenie tili, qo'shiqlar tili va boshqalardagi) munosabati hamda bu nuqsonlarni salbiy baholashida yorqin ko'rinmoqda. Masalaga mana shu nuqtai nazardan yondoshiladigan bo'lsa, ba'zi tadqiqotchilarning «Nutq madaniyati haqida qayg'urish — umumxalq ishidir» degan gaplarida ma'lum haqiqat borligi, shubhasizdir.

Butun millat va uning barcha a'zolarining nutqini birdan madaniy nutq talablariga xoslab bo'lmasligining asosiy sabablaridan yana biri adabiy tilning o'zidagi rivojlanish qonuniyatlari bilan, adabiy til normasidagi davr o'tishi bilan paydo bo'lib turadigan siljishlar bilan aloqadordir.

hattoki bir avlodga mansub kishilar nutqi uchun dastlab norma bo'lib hisoblangan til hodisalari ysha shaxs hayoti davomida keyinchalik «xatolikja, normativmas vositaga aylanmoqda. Shu tufayli adabiy tilning ma'lum davrdagi madaniy holatini, ya'ni adabiy til madaniyatini, barcha davrlar uchun beto'kis narsa deb tasavvur qilish o'rinsizdir. Chunki til, adabiy tilning o'zi rivojlanishi ta'sirida o'zgarib turuvchi hodisadir. Mana shu ma'noda nutq madaniyati tushunchasi ham, madaniy (adabiy) nutq namunalari ham, o'z davrida go'zal, namunali gapirgan notiqalar va hozirda ko'rkam gapirayotgan no-tiqlar nutqi ham ideal hodisa emas, balki nisbiy hodisadir. Xuddi shuningdek, hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida ko'rkam gapirishni istagan har bir kishi ushbu adabiy tilning o'tmish davrlaridan andoza topilishi qiyin. Har davrning o'z tili va nutqiy uslubi bo'lganidek, har davrning o'z madaniy adabiy tili va betakror nutqiy madaniyati bo'ladi.

Shunday qilib, nutq madaniyati sohasi bir davrning o'zida jamiyat a'zolarining barchasini madaniy nutqiy tarbiya tilga ola olmaydi. Ushbu ma'noda madaniy nutqiy tarbiya ma'lum chegarali, istisnoli tomonlarga ega. Nutq madaniyati sohasi, asosan, adabiy tilni egallaganlar, unda so'zlash va yozishni istovchilarni va yosh avlod nutqini t'y'rilashni ko'zda tutadi. Lekin nutq madaniyati sohasi bu bilan chegaralanib qolmasligi kerak albatta. Vazifani bunday tushunish nutq madaniyati sohasi uchun chegaralangan maqsaddir. Nutq madaniyati sohasining to'liq, ya'ni pirovard matssadi barcha xalq,

ommasining nutqini adabiy tarbiyaga olishdek maqsadni ko'zda tutmog'i lozim. Bu maqsad nutq madaniyati sohasining buyuk orzusidir. Bunday orzu haqida hozirgi kunda gapirish mumkin ammo uning amalga oshishi, ya'ni jamiyatning barcha a'zolarining adabiy tilni mukammal egallashi va bu tilda to'g'ri va ravon, madaniy va ko'rkam gapira olishi kelajakda amalga oshishi mumkin bo'lgan hodisadir. Shu sababli ushbu tushuncha shu kunning vazifasi sifatida ham, hali to'la amalga oshmagan haqiqat sifatida ham nutq madaniyati sohasining oliy, pirovard maqsadidir.

Har qanday holda ham nutq madaniyati — bu avvalo nutqiy ko'nikma, nutqiy malaka hosil qilishdir. Bu ko'nikma nutqiy—amaliy jarayon bo'lib, maxsus mehnat va mashq evaziga, o'qish va uqish orqali erishiladigan qobiliyat, ma'lmu. Ushbu xususiyatni E. A. Baxmutova shunday ta'riflaydi: «Nutq madaniyati fikrni to'g'ri, aniq va ifodali izhor eta olish malakasidir»

Insonning aloqa quroli b'ylmish tilni, jumladan adabiy tilni o'rganishi va egallashi to'rt xil yo'l bilan amalga oshadi deyish mumkin:

Tilni tabiiy holda egallash. Bunga bolaning o'z ona tilini oila muhitida, shuningdek atrof-muhit ta'sirida o'rganishi va bilib olishi kiradi. Bola tilni ota-onadan, oila a'zolaridan, shuningdek o'zi duch kelgan kishilardan tabiiy holda eshitish va o'zlashtirish orqali egallaydi. Bolada bola tili malakasi tabiiy holda, stixiyali ravishda yuzaga keladi va shakllanadi. Bu jarayonda ham qaysi bir darajada o'rgatish (faqat o'rganish emas) nishonasi mavjud. Masalan, oila a'zolarining bola nutqini nazorat qilishi, unga so'zlarni va qanday so'zlashni o'rgatishi, bola tilida uchraydigan ba'zi nuqsonlarning to'g'rilashi va b.

Tilni o'qitish, o'rgatish orqali egallash. Bunga asosan o'rta va oliy maktab ta'limi kiradi. Shuningdek, qisman bolalar bog'chasidagi ta'limni ham mana shu omilga qo'shish mumkin. Til va uning qonuniyatlari, nutq qoidalari o'rta maktabda ona tili (o'zbek tili) va adabiyot darslarida o'qitiladi.

Bolaning til egallashida boshqa fan darslarining rolini ham kamsitib bo'lmaydi. Tarix, geografiya, astronomiya, biologiya, hatto matematika darslari ham o'quvchilarda nutq madaniyati malakasining shakllanishida sezilarli rol y'ynaydi. Bu fanlarga oid darslar jarayonida bolaning lug'at boyligi oshadi, u gap tuzishning bir qator murakkab tiplarini, fikr ifodalashning ba'zi mantiqiy asoslarini egallaydi.

Tabiiy fanlardan dars beradigan o'qituvchilar orasida o'zbek adabiy tilini yaxshi egallagan, so'zga usta mohir notiqalar talayginadir. Bunday o'qituvchilar nutqini o'quvchilar, odatda, havas bilan tinglashadi, ular tiliga taqlid ham qilishadi. Til va adabiyot o'qituvchilari orasida adabiy tilni etarli egallamagan va bu tilda ravon, namunali gapira olmaydigan pedagoglar ham ozmuncha emas. Shunga qaramasdan, o'rta maktabda nutq madaniyatini o'rganishning asosiy omili ona tili va adabiyot

darslarida beriluvchi ta'limdir. Ayniqsa, bunda ona tili (o'zbek tili) ta'limi etakchi o'rin tutadi. Demak, nutq madaniyatini tarbiyalashda o'qitish (pedagogik ta'lim) asosiy omildir. Shu sababli maktab ta'limida, ayniqsa ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga alohida diqqat qilinadi, bu ishning ilmiy metodik tomonlari pedagog olimlar tomonidan maxsus tahlil etilgan.

3. Til va nutq madaniyatini mustaqil o'qish, shug'ullanish orqali o'rganish. Tilni, pirovard natijada nutq madaniyatini egallashda mustaqil o'qish, til va nutq ustida mustaqil ishlash muhimdir. Bu ish ikki xil xarakterlidir. Birinchisi, kishi tilga oid maxsus adabiyotlar, darslik va qo'llanmalar, lug'atlarni o'rganadi. Undagi til va nutqqa oid qonuniyatlarni egallaydi. Ikkinchisi, nolingvistik adabiyotlarni mustaqil o'qiydi va bu hol kishi nutqining o'sishiga, adabiy til normalarini egallashiga turtki bo'ladi. Masalan, badiiy adabiyot asarlarini ko'plab o'qish, she'rlarni yod olish, gazeta va jurnallarni o'qish, radio va televidenie eshittirishlarini tinglash va b. Til va nutq ustida ishlash — keltirilgan misoldagi tarzda ishlash tilni o'rta maktab dasturi asosda o'rganish va o'zlash-tirishdan farq qiladi. Mustaqil o'qitishda shaxs erkin bo'lib, uning faoliyat darajasi ham kengdir. Shaxs yzi uchun zarur, yzi xo'lagan grammatikalarga, leksikologiya, fonetika darsliklariga, turli hajmdagi izohli, ikki tilli, terminologik lug'atlarga murojaat qilishi mumkin. Shu sababli til ustida mustaqil shug'ullanish o'rta maktabning dasturiy ta'limidan farqlanadi. Mustaqil shug'ullanish adabiy tilni egallash, nutq madaniyati malakasini hosil qilishning muhim omilidir. Chunki bunda adabiy til normalari ixtiyoriy, ongli ravishda o'zlashtiriladi. Bu yo'l bilan hosil qilingan nutqiy malaka esa mustahkam bo'ladi.

4. Til va nutq madaniyatini egallashning ko'rinishlaridan biri nutqiy taqliddir. Har bir kishi o'zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma'noli va o'tkir gapiradigan kishi(lar) nutqiga havas bilan qarashi va unga taqlid qilishga intilishi mumkin. Bu holda nutqiy taqlid — namunali til, nutq madaniyatini egallashga intilishning omillaridan biriga aylanadi.

Namunali, yaxshi gapiruvchilar, odatda, radio va televidenie diktorlari, mashhur artistlar, badiiy so'z ijrochilari, ba'zi yozuvchilar, olimlar orasida uchraydi. O'z namunali nutqi bilan o'quvchilarda tilga, nutq madaniyatiga qiziqish uyg'otgan notiqalar va davlat arboblari, lektorlar, o'ta va oliy maktab o'qituvchilari oz emas. Notiqlik mahoratini, adabiy tilda to'g'ri, ta'sirchan so'zlashning ajoyib sirlarini egallagan bunday shaxslar nutqi — nutqiy taqlidning qonuniy ob'ektidir. Birov nutqiga taqlid qilish orqali nutq madaniyatini egallash shaxsdan katta havas va hafsala talab qiladi. Nutqiy taqlid taqlid qilinayotgan shaxs nutqi qanday bo'lsa, aynan shunday gapirishda erishishdan iborat degan gap

emas. har bir shaxs nutqining o'ziga xos mustaqilligi, betakrorligi saqlanmog'i lozim. Nutqiy taqlid — namunali nutqning usullariyi, sirlarini o'rganish demakdir. Nutqiy taqlid — ongli faoliyatdir va milliy notqlikning eng yaxshi namunalari va an'analarini avlodidan-avlodga o'tkazish, etkazish, ko'p asrlar davomida saqlab qolishning vositasi hamdir. Notqlikdagi ba'zi betakror yo'nalishlar, notqlik maktablari mana shu yo'l bilan yuzaga keladi.

Keltirilgan barcha hollarda nutq madaniyatini egallash — bu ongli ravishda intilish va tinimsiz mehnatdir. Chunki nutq madaniyati malakasini busiz hosil qilib bo'lmaydi. Shunday qilib, tilni nutq madaniyatini egallashning quyidagicha bosqichlari mavjud: oila va atrof-muhitdan o'rganish; yasli, bog'cha ta'limi; o'rta maktab ta'limi;— oliy maktab ta'limi;til ustida mustaqil shug'ullanish.

Tilni egallash haqida gap borganda, ikki sifatiy narsa-ni farqlamoq kerak. Bularning birinchisi, umuman o'zbek xalq tilini bilish, ikkinchisi o'zbek adabiy tilini egallash.

Biz oldingi sahifalarda ham qayd qilganimizdek, shaxs o'zbek tilining biror lahjami yoki shevasida ham g'oyat chiroyli gapirishi, so'zga chechan, ya'ni mahoratli notiq bo'lishi mumkin. Ammo bunday nutq til materialini nuqtai nazaridan nutq madaniyati namunasi bo'la olmaydi. Nutq madaniyati—o'zbek adabiy tilida so'zlangan namunali, madaniy nutqdir. Demak, tilni bilish haqida gap borganda, umuman o'zbek tilini (xalq tilini) bilishni o'zbek adabiy tilini egallashdan farq qilmoq kerak. Nutq madaniyati shaxsning umuman tilni bilish darajasi bilangina emas, balki adabiy tilni namunali bilishi va undan nutqning og'zaki va yozma shakllarida namunali foydalana olishi darajasi bilan o'lchanadi.

Adabiy til va uning normalarini egallash va undan unumli foydalanish qandaydir xurhun, qotib qolgan, birdan-bir yagona shaklga ega bilgan hodisa emas. So'zlovchi yoki yozuvchi adabiy til va uning normativ vositalaridan nutqiy talab, nutqiy sharoit, nutqiy faoliyat ehtiyoji va talabiga ko'ra ijodiy foydalanadi. Bunga sabab bir tomondan kishilar juz'iy nutqiy faoliyatining xilma-xilligi, nutqiy vaziyatlarning ko'p qirraligi bo'lsa, ikkinchisi nutqiy uslublarning rang-barangligidir. O'zbek adabiy tilining aniq mavjud ko'rinishlari turli uslublar talabiga ko'ra kyp qirralidir. Hozirgi o'zbek tilida ilmiy uslub, publitsistik uslub, uslub, badiiy uslub, s'zlashuv uslubi mavjud. Bu uslublar ba'zi o'ziga xos yoki qorishiq shaxobchalarga ham b'linadi: ilmiy-ommabop uslub, ilmiy-publitsistik uslub; adabiy so'zlashuv uslubi, sodda so'zlashuv uslubi kabi. Nutq madaniyatini egallash o'zbek tili uslublarining xususiyatlarini bilish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli ham nutq madaniyatiga oid qo'llanmalarda, o'quv programmalarida «Nutq madaniyati va uslub» deb nomlangan bo'limlar mavjuddir. Bir qator risolalarda esa nutq madaniyati

bilan uslublar orasidagi munosabatlar yoritilgan.